

# VOKAL SAN'ATIDA BARQAROR TARAQQIYOT VA NOMODDIY MADANIY MEROS



- ❖ O'ZDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ "Vokal san'ati" (turlari bo'yicha) yo'nalishi
- ❖ Professor Toshmatov Urazali

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan  
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasini mudiri,  
professor Toshmatov O‘rozali

**Taqrizchilar:** Parij milliy oliy musiqa va raqs konservatoriyasi  
professori  
Dylan Corlay

O‘zDSMI “Folklor ijrochiligi” kafedrasini  
mudiri, dotsent Axmedova Oygul

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>18</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>101</b>
<b>V.</b>	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>119</b>
<b>VI.</b>	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>122</b>
<b>VII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>125</b>
<b>VIII.</b>	<b>TAQRIZLAR.....</b>	<b>129</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

#### **“Vokal san’atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros” modulining maqsadi:**

Nomoddiy madaniy merosning jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi o‘rni, uni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, ushbu merosning avvalgi va zamonaviy holatini solishtirish orqali uning hozirgi kunda qay darajada ta’lim tizimida o‘rganilayotganligi misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyotga tatbiq etish va boshqalarni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

#### **“Vokal san’atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros” modulining vazifalari:**

- nomoddiy madaniy merosning dunyoda barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rsatish;
- XX asrning so‘nggi choragi va XXI asr boshlarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish;
- O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy merosning sohalari, turlari, janrlari bilan tanishish;
- nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq xalqaro va milliy qonunchilik, huquqiy-normativ hujjatlarni o‘rganish;

-nomoddiy madaniy merosning ta'lim muassasalarida o'rganilishi va oliy ta'lim tizimida ularni qo'llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“**Vokal san'atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros**” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- nomoddiy madaniy merosning mazmun, mohiyatini;
- nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida YUNESKO tomonidan va O'zbekistonda qabul qilingan qonun hujjatlari va huquqiy-normativ hujjatlarni;
- nomoddiy madaniy merosning sohalari, turlarini;
- musiqa san'ati bilan bog'liq nomoddiy madaniy meros janrlarini;
- nomoddiy madaniy merosning ta'lim muassasalarida o'rganilishiga qaratilgan maqsad va vazifalarni **bilishi** lozim.
- sahna san'ati (Art performing) bilan bog'liq nomoddiy madaniy merosni tasniflash;
- nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida tegishli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish;
- musiqa san'atining tegishli sohalarining o'zlashtirilishida nomoddiy madaniy meros namunalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;
- nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlardan ta'lim jarayonida talabalarni xabardor qilish;
- nomoddiy madaniy merosning zamonga moslashuvi orqali saqlab qolinishi mumkinligini tushungan holda uni ta'lim tizimiga tatbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- musiqa san'atini o'zlashtirishda an'anaviy uslub va tajribalarni qo'llash hamda pedagogik faoliyatga tatbiq etish;
- musiqa san'atining tegishli yo'nalishlari va janrlarini o'zlashtirishda zarur bo'lgan uslubiy va o'quv qo'llanmalarini yaratishda nomoddiy madaniy merosdan samarali foydalanish;
- nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasidagi ilg'or tajribalarni o'rgangan holda o'z pedagogik faoliyatiga tatbiq eta bilish;
- zamonaviy texnik vositalarni nomoddiy madaniy merosni o'rganishda qo'llash;
- xorijiy davlatlarda nomoddiy madaniy merosning ta'lim tizimida o'zlashtirilishi bo'yicha amalga oshirilgan tajribalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
- nomoddiy madaniy merosni tashuvchilar (nositel)dan ta'lim jarayonida foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- nomoddiy madaniy merosning mohiyatini tushungan holda uni tasniflay olish;
- nomoddiy madaniy merosning tegishli janrlarini va uni o'zlashtirishdagi an'anaviy uslublarni ta'lim tizimiga tatbiq etish;
- folklor musiqiy asarlarini o'zlashtirish uslublarini talabalarga singdirish;

7

- nomoddiy madaniy merosning ta'lim tizimida o'rganilishi borasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar**

**“Vokal san'atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros”** moduli hozirgi kunda ta'limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an'anaviy va zamonaviy dirijyorlik asarlaridan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Vokal san'atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi”, “Art marketing”, “Musiqiy janrlar va zamonaviy tendensiyalar” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosning o'rganilishini ta'minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	nazar iy	amali y	ko'ch ma
1	“Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi”ning BMTning “Barqaror taraqqiyot” dasturi ijrosini ta'minlashdagi o'rni.	2	2		
2	O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jarayonining bosqichlari. Nomoddiy madaniy merosning sohalari.	4	4		
3	“Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi”ni milliy darajada implementatsiya qilish.	2	2		
4	Ijrochilik san'ati va uning turlari.	4	4		
5	Xonandalik san'ati – ijrochilik san'atining tarkibiy qismi sifatida.	2		2	
6	Buyuk Ipak Yo'lining musiqa madaniyati rivojidadagi o'rni.	2		2	
7	Xalq musiqa ijodiyotini xonandalik san'ati vositasida targ'ib etish masalalari.	2		4	
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>12</b>	<b>8</b>	



## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining BMTning “Barqaror taraqqiyot” dasturi ijrosini ta’minlashdagi o‘rni. (2 soat)**

Nomoddiy madaniy merosning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli. An’anaviy davolash amaliyotlari. Suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar. Atrof-muhitning barqarorligini ta’minlashga oid nomoddiy madaniy meros. Barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash. Tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda nomoddiy madaniy merosdan foydalanish.

### **2-mavzu: O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jarayonining bosqichlari. Nomoddiy madaniy merosning sohalari. (4 soat)**

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati. Konvensiyani ratifikatsiya qilish. Milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlar. 2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi. Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar (Ro‘yxatlarni yuritish tartibi va tarixiy-madaniy ekspertiza to‘g‘risidagi nizomlar). Nomoddiy madaniy merosning sohalari. O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari. Ijrochilik san‘ati va uning turlari. Urf-odat, marosim va bayramlar. Tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar. An’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

### **3-mavzu: Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasini milliy darajada implementatsiya qilish. (2 soat)**

YUNESKO va uning Konvensiyalari. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati va bu borada amalga oshirilgan ishlar. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining maqsad va vazifalari. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining milliy darajada implementatsiyasini tashkil etuvchi asosiy hujjat. Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq xalqaro loyihalar.

### **4- mavzu: Ijrochilik san‘ati va uning turlari. (4 soat)**

Ijrochilik san‘ati – nomoddiy madaniy meros namoyon bo‘ladigan sohalardan biri sifatida. Xalq tomosha san‘ati (Dorbozlik, Ko‘pkari, Qo‘g‘irchoqbozlik, Kurash). Musiqa san‘ati. Cholg‘u ijrochiligi. Kasbiy musiqa (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona - Toshkent maqomlari). Maqom cholg‘u yo‘llari. Xalq musiqa ijodiyoti janrlari (Dostonchilik, Lapar, Yalla, O‘lan). Lokal janrlar (Katta ashula, Mavrigi, Suvora, Feruz, Xalfa). Raqs san‘ati (Farg‘ona - Toshkent raqslari, Xorazm raqsi lazgi, Buxoro raqsi, Surxon raqsi).

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Ma’ruzadan so‘ng rejalashtirilgan dastlabki to‘rt mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yo‘nalish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob tarzida yoki amaliy ijro yoki boshqa shaklda bajarilishi mumkin.

Nazariy ta’lim rejalashtirilmagan amaliy mashg‘ulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek orkestr yoki xor jamoalari bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **1-amaliy mashg‘ulot: Xonandalik san’ati – ijrochilik san’atining tarkibiy qismi sifatida. (2 soat)**

Xonandalik san’ati – ijrochilik san’atining tarkibiy qismi sifatida. Xalq og‘zaki ijodi va uning janrlari. Ijro san’ati. Sahnaviy ijro san’atining janrlari. Musiqa. Maqomlar. Xalq folklori.

### **2- amaliy mashg‘ulot: Buyuk Ipak Yo‘lining musiqa madaniyati rivojidadagi o‘rni. (2 soat)**

Buyuk Ipak Yo‘lining musiqa madaniyati rivojidadagi o‘rni. Tinglovchilar tomonidan uzoq tariximiz, Buyuk Ipak Yo‘lining O‘rta Osiyo san’ati va madaniyatini boyitishda roli va ahamiyati. Madaniyatlar o‘zaro aloqasi. Osiyo xalqlari musiqa san’atidagi o‘ziga xosliklar va umumiyliklar. Ijrochilik san’ati va xalq og‘zaki ijodiyotidagi transformatsiyalar va asl holdagi ko‘rinishlari.

### **3- amaliy mashg‘ulot: Xalq musiqa ijodiyotini xonandalik san’ati vositasida targ‘ib etish masalalari. (4 soat)**

Xalq musiqa ijodiyotini xonandalik san’ati vositasida targ‘ib etish masalalari. Avvaldan rejalashtirilgan holda tinglovchilar orasida nomoddiy madaniy merosning sohalari bo‘linadi va har bitta tinglovchi nomoddiy madaniy merosning tegishli sohasi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi. Nomoddiy madaniy merosning ro‘yxatlariga kiritilgan nomzodlar o‘rganiladi, yana qaysi nomzodlarni ro‘yxatga kiritish yoki qicharib tashlash, boshqa ro‘yxatga o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko'chma mashg'ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

**II. MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN  
INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qièslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma‘ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### 1. Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa èki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari èzilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
  - ishtirokchilarning munosabatlari individual èki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### 2. Namuna.

**Fikr: “Bastakorlik san’atida “Avangardizm” oqimi va uning zamonaviy musiqaga ta’siri”.**

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni èritilgan input-matnni tarqatma èki taqdimot ko‘rinishida tayèrlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini èrituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi èki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar èki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1 - m a t n	2 - m a t n	3 - m a t n
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr èki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq èritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **Venn diagrammasi metodi Metodning maqsadi:**

Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilaètgan tushuncha èki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (èki aksi) doiralar ichiga èzib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilaètgan muammo èhud tushunchalarning umumiy jihatlarini (èki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga èzadilar.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar èki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga èki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual èki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida èzma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi èki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?</b>	<b>Qo‘shimcha ma’lumot</b>
Kanon	Yunon. canon – me’èr, qoida	
Intonatsiya	Lot. intono – qattiq talaffuz etaman	
Basso ostinato	Ital. basso ostinato – tayanch bas.	
Geterofoniya	Yunon. heteros – boshqa, phone tovush, ovoz; bir ovozli kuyni birgalikda ijro qilganda, improvizatsiya tufayli vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan ohangdoshlarning paydo bo‘lishi	
Auftakt	Nem. auf-ustida, lot. Tactus – tegish; qo‘l bilan ishora qilmoq, birlamchi ogohlantiruvchi qo‘l ko‘tarish harakati	
Vokaliz	Fransuzcha vocalize, lot. Vocalis – unli tovush.	

*Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.*

*Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.*

### **“Brifing” metodi**

“Brifing”- (ingl. briefing-qisqa) biror-bir masala èki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiya.

#### **O‘tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jaraèni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu èki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. Talabalar èki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.



### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu: “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasi”ning BMTning “Barqaror taraqqiyot” dasturi ijrosini ta’minlashdagi o‘rni.  
(2 soat)**

**Reja:**

- 1.1. Nomoddiy madaniy merosning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli
- 1.2. An’anaviy davolash amaliyotlari
- 1.3. Suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar
- 1.4. Atrof-muhitning barqarorligi
- 1.5. Barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanish
- 1.6. Tinchlik va xavfsizlik

**Tayanch iboralar:** *BMT, YUNESKO, konvensiya, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, oziq-ovqat xavfsizligi, an’anaviy davolash amaliyotlari, urf-odat va amaliyotlar, atrof-muhit, iqtisodiy rivojlanish, bilim va ko‘nikmalar, hamjamiyat, merosni o‘zida saqlovchilar, nodavlat-nohukumat tashkilotlari.*

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Konvensiyasi “nomoddiy madaniy merosni madaniy turli-tumanlik negizi va barqaror taraqqiyot kafolati” sifatida tan oladi. 2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanishning kun tartibi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarning rejasi bo‘lib, u 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlari asosida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlardagi masalalarga yechim topishga qaratilgan. Bu maqsadlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, rivojlanish yo‘llari haqida ma’lumot beradi va uchta fundamental tamoyilga, ya’ni inson huquqlari, tenglik va barqarorlikka asoslanadi. Nomoddiy madaniy meros nafaqat ushbu uch yo‘nalish doirasida barqaror rivojlanishga samarali ko‘mak berishi, balki barqaror rivojlanishning zaminida yotuvchi tinchlik va xavfsizlikni ta’minlanishiga ham yordam berishi mumkin.

Nomoddiy madaniy merosning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi tan olinishi va to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun uning barqaror rivojlanishda tutgan o‘rnini qanday qilib tushunish lozim?

Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlari hamda tinchlik va xavfsizlik masalalari bo‘yicha chora-tadbirlari alohida

emas, balki bir biribilan chambarchas bog‘liqdir. Barcha yo‘nalishlar o‘rtasida o‘zaro ijobiy aloqa borligini hisobga olgan holda, bu kabi umumiy maqsadlarga erishish siyosatga nisbatan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Shu o‘rinda nomoddiy madaniy meros yuqorida aytib o‘tilgan uch yo‘nalish doirasida barqaror rivojlanishga samarali ko‘mak berishi mumkin. Shunday ekan, biz barchaga xohlayotgan kelajakka erishishda nomoddiy madaniy merosni himoya qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Barqaror oziq-ovqat xavfsizligi, sifatli tibbiy xizmat, xavfsiz ichimlik suvi hamda sanitariya ta‘minoti, barcha uchun sifatli ta‘lim, barchani qamrab oluvchi ijtimoiy muhofaza tizimi va gender tengligi mavjud bo‘lmasa barchani qamrab oluvchi ijtimoiy rivojlanishga erishib bo‘lmaydi. Ushbu maqsadlar negizida keng ishtirokka asoslangan boshqaruv hamda o‘zining qadriyat tizimini tanlash erkinligi bo‘lishi lozim. Jamiyatlar turli vaqtda va turli muhitda yuzaga keladigan ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy masalalarga javob topish uchun o‘zlarining nomoddiy madaniy merosini, xususan tabiatga oid bilimlarini, urf-odatlarini va ijtimoiy an‘analarini yaratgan va moslashtirib borgan. An‘anaviy davolash amaliyotlari, taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq urf-odatlar, suv resurslarini boshqarish bilan bog‘liq an‘analar, jamoat tadbirlari va bayramlar, bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazib berish tizimlari - bularning hammasi barchani qamrab oluvchi ijtimoiy rivojlanishga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

### **1.1.Nomoddiy madaniy meros oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda juda ham muhim hisoblanadi.**

Taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq urf-odatlar, qishloq ho‘jaligini yuritish, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik, oziq-ovqatni to‘plash va saqlashning mahalliy tizimlari oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda katta ko‘mak berishi mumkin. Hamjamiyatlar o‘zlarining qishloq hayoti va atrof muhitiga nisbatan mufassal yondashuvchi an‘anaviy bilimlarning katta hajmini to‘plagan. Ularning usullari o‘zlarining yerlari va tabiiy muhitlari haqidagi batafsil ma‘lumotlarga tayanadi, turli xil qishloq ho‘jaligi ekinlarini, o‘simlik va hayvonlarini qo‘llashga asoslanadi hamda nam, arktik, subtropik va yog‘ingarchiligi kam bo‘ladigan mintaqalarga moslashtirilgan. Hamjamiyatlar bu mintaqalarga hamda atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga mos keladigan taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq turli xil urf-odatlarini, oziq-ovqatni tayyorlash va saqlash tizimlarini yaratishgan. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab ko‘pchilik oilalar yerning hosildorligini oshirishga

ko'mak beradigan, oziq-ovqatni tanlashda turfaxillikni taklif qiladigan, to'laqonli oziqlanishni ta'minlaydigan hamda sog'lom turmush tarzini olib borishga yordam beradigan qishloq ho'jaligi tizimlariga bog'liq. Bu kabi tizimlarni to'xtovsiz mustahkamlab borish hamda ularning saqlanib qolinishini ta'minlash dunyodagi ko'pchilik hamjamiyatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda, sifatli ovqatlanishni tashkil qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### **1.2. An'anaviy davolash amaliyotlari farovonlikka erishishda hamda barcha uchun sifatli tibbiy xizmatlarni ta'minlashda ko'mak berishi mumkin.**

Dunyoning ko'pchilik hamjamiyatlari davolashga oid turfaxil bilim va amaliyotlarni yaratganlar. Bular samarali va arzon davolash usullarini taklif qiladi va ko'pincha mahalliy tabiiy resurslarni qo'llashga asoslanadi. Misol uchun, tabiblar qadim zamondan birinchi tibbiy yordam ko'rsatadigan juda ham muhim insonlar bo'lishgan. Ularning dorivor o'simliklarni qo'llash bilan bog'liq an'anaviy bilim va usullari bemorlarni davolash jarayonida olib borilgan kuzatuvlariga asoslanadi. Yana bir misol sifatida Tanzaniyaning Tanga tumanidagi tabiblarni, xususan doylar va ruhshunoslarni ko'rsatish mumkin. Ular ham jismoniy va psixologik xastaliklarni davolashda o'zlarining maxsus bilimlarni qo'llashadi. Umuman olganda, boshqa tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati bo'lmagan joylarda (shu jumladan, chekka qishloqlarda) bu kabi davolash amaliyotlari arzon hamda barcha uchun qulay bo'lishi mumkin.

Shuning uchun bu kabi davolash amaliyotlarini tan olish, ularga hurmat bilan qarash, yanada rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazib berish juda muhim hisoblanadi. Bunday choralar ayniqsa an'anaviy davolash amaliyoti hamjamiyat uchun eng qulay tibbiy xizmat turi sifatida qaralgan joylarda amalga oshirilishi lozim. Boshqa tibbiy xizmat turlari mavjud bo'lgan joylarda esa, ijtimoiy-madaniy hayotda chuqur ildiz otgan bunday an'anaviy bilimlar va amaliyotlar insonlarning tibbiy xizmat turini tanlash imkoniyatlarini ancha kengaytirishi mumkin.

### **1.3. Suv resurslarini boshqarishga oid an'anaviy urf-odat va amaliyotlar.**

Toza ichimlik suvini adolatli ta'minotiga hamda suv resurslaridan barqaror foydalanishga ko'mak berishi mumkin, shu jumladan qishloq ho'jaligi sohasida va turmushning boshqa jabhalarida. Asrlar davomida mahalliy hamjamiyatlar chuqur ildiz otgan an'analarga amal qilgan holda suv

resurslarini barqaror boshqarish hamda barchani toza suv ichimligi bilan ta'minlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirib keldi. Misol uchun, San Kristobal de las Kasas shaharchasidagi (CHyapas shtati, Meksika) suv resurslarini boshqarish tizimlari Mayya xalqlarining muqaddas qarashlariga va an'alariga asoslanadi. Ularning fikriga ko'ra, insonlar suv aylanishi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki insonlar o'zlarining tanasida bo'lgan suvi orqali uning to'xtovsiz yangilanishida ko'mak beradi. Shuning uchun suv qandaydir mahsulot sifatida emas, balki umumiy resurs sifatida qaraladi va suv ta'minotini boshqarish butun bir hamjamiyatning vazifasi hisoblanadi.

Ko'pchilik hamjamiyatlar uchun bu kabi tizimlar toza ichimlik suvi olishning yagona imkoniyatidir. Shu sababli ham bunday tizimlarni kelajak avlodlarga yetkazib berishni davom ettirish muhim. Boshqa joylarda ham an'anaviy suv resurslarini boshqarish tizimlari muhim hisoblanadi, chunki ular hamjamiyatlarning tashqi suv ta'minlovchilariga bo'lgan bog'liqligini kamaytiradi. Turfaxil suv resurlarini boshqarish tizimlarini hamda ularga oid qadriyatlarini tan olish va hurmat qilish, ularni kengaytirish va to'xtovsiz kelajak avlodga berib borish - bularning barchasi suv masalasiga oid muammolarga barqaror yechim ishlab chiqishda muhimdir.

**Nomoddiy madaniy merosta'tlim mazmunidagi hamda ta'lim usullariga oid jonli misollar taklifqilaoladi.** Hamjamiyatlar o'zlarining tabiiy va ijtimoiy muhitlariga oid bilimlarini, hayotiy ko'nikmalarini va malakalarini tartibga solish va kelajak avlodga yetkazib berish uchun doimo yechim topib kelganlar. Hozirgi kunda rasmiy ta'lim tizimlari mavjud bo'lgan joylarda ham bu kabi bilimlar faol ishlatib kelinadi, bilim va ko'nikmalarni berib borishning an'anaviy usullari ko'llaniladi. Bu bilimlar turli sohalarni va masalalarni o'zida mujassam etadi: kosmologiyadan va fizikadan tortib sog'liqni saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishgacha; insonning hayot davridan tortib mojarolarni va nizolarni hal qilish masalalarigacha; o'zlikni anglash va shaxsning jamiyatdagi o'rnidan tortib kollektiv xotira shakllanishi masalasigacha; arxitekturadan materialshunoslik sohasigacha. Shuning uchun barcha uchun sifatli ta'limni joriy qilishda bu kabi boy bilimlar manbasidan yosh avlodlar to'laqonli foydalana olishlari uchun imkoniyat ta'minlanishi kerak. Shuning uchun ta'limni joriy qilishda nomoddiy madaniy merosning boy manba ekanligini tan olish va uning ta'limga oid imkoniyatlari moslashtirish lozim. Buning uchun esa nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni tegishli sohadagi ta'lim dasturlariga integratsiya qilish hamda nomoddiy madaniy merosni yetkazib berishning an'anaviy usullari va shakllari imkoniyatlarini ta'lim tizimlari doirasida keng qo'llash kerak.

**Nomoddiy madaniy meros jamiyat ichidagi birdamlikni va integratsiyani mustahkamlashga ko‘makberishim mumkin.** Urf-odatlar, marosimlar va bayramlar hamjamiyatlar va guruhlarning hayotini tashkillashtirishda va tartibga solishda yordam beradi. Ular barchani qamrab olgan holda, insonlarning ijtimoiy turmushini mustahkamlashda asosiy rol o‘ynashi mumkin. Masalan, Frevo (Braziliyadagi musiqa, raqs va turli hunarlarni o‘z ichiga oladigan badiiy ifoda turi) jamiyatning barcha qatlamlari vakillarini karnaval doirasida birlashtiradi. Frevo Resifi shahri aholisining umumiy merosi hisoblanadi. U shahar aholisida (jinsidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar) o‘ziga hoslik va o‘tmish bilan bog‘liqlik hissini shakllantiradi, mavjud qadriyatlarni mustahkamlaydi. Turli qatlam vakillari Frevo musiqasi sadolari ostida birgalikda raqsgatashadi. Ko‘pchilik urf-odatlar (kichik uchrashuvlardan tortib keng ko‘lamli bayram tadbirlarigacha) insonlarda mansublik hissini shakllantirish orqali hamjamiyat ichidagi rishtalarni va birdamlikni mustahkamlashga ko‘mak beradi. Nomoddiy madaniy meros gender rollari va gender o‘zligini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, u gender tengligini ta’minlashda halqiluvchi ahamiyatga ega. Aynan nomoddiy madaniy meros orqali hamjamiyatlar genderga oid o‘zlarining qadriyatlarini, normalarini va qarashlarini berib boradi. U tufayli hamjamiyat a’zolarida gender o‘zligi shakllanadi. Bundan tashqari, hamjamiyat a’zolarining merosning ayrim ko‘rinishlaridagi ishtirokini ham gender normalari belgilab beradi. Misol uchun an’anaviy hunarmandchilikda gender rollariga asoslangan muayyan mehnat taqsimoti kuzatilsa, ijrochilik san’ati turlarida genderga oid qarashlar va rollar ochiq ifodalanishi mumkin. Nomoddiy madaniy meros atrof-muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga to‘xtovsiz moslashib borгани sari, gender rollarida xam o‘zgarishlar yuz beradi. Hamjamiyatlarda gender munosabatlari yuzasidan doimo muzokaralar olib boriladi. Buning natijasida nomoddiy madaniy meros bilan shug‘ullanish orqali gender kamsitilishiga barham berish uchun hamda gender tengligiga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Nomoddiy madaniy meros gender rollari haqida yagona qarashga ega bo‘lmagan ko‘pmillatli hamjamiyatlarda o‘zaro ishonchni va bag‘rikenglikni mustahkamlashi mumkin. Bundan tashqari u gender tengligiga erishishning eng maqbul yo‘li yuzasidan olib boriluvchi muloqotlar uchun o‘ziga xos zamin yaratishi mumkin.

#### **1.4. Atrof-muhitning barqarorligi**

Atrof-muhitning barqarorligi turg‘un iqlimni, tabiiy resurslarning barqaror boshqaruvini hamda bioturfaxillikni talab qiladi. Bular o‘z navbatida iqlim o‘zgarishi, xavfli tabiiy hodisalar, kosmik muhit va tabiiy resurslarga oid

cheklovlar haqidachuqur ilmiy tushuncha hosil qilishga, bilimlar almashinuvini tashkil qilishga bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi natijasida hamda tabiiy ofatlar sababli yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining ko‘lamini cheklashda yordamga muhtoj aholi qatlamlarini barqarorligini mustahkamlash o‘ta muhim hisoblanadi. Avlodan-avlodga to‘planib, boyitib borilgan hamda nomoddiy madaniy merosning ajralmas qismi bo‘lgan an’anaviy bilimlar, qadriyatlar va urf-odatlar qadim zamondan jamiyatlarning atrof-muhiti bilan o‘zaro aloqasida hamroh bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda nomoddiy madaniy merosning atrof-muhit barqarorligiga qo‘shayotgan hissasi ko‘pchilik sohalarda tan olinadi. Bularga bioturfaxillikni saqlash, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va tabiiy ofatlarga tayyorgarlik va ularning oqibatlarini bartaraf qilish sohalari kiradi. Tirik meros sifatida atrof-muhitga oid bilimlar, qadriyatlar va an’analar shakllanishi va tabiiy resurslardan barqarorroq foydalanishga moslashtirilishi mumkin. Buning natijasida esa hamjamiyatlarda iqlimning o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga (yoki tabiiy ofatlarga) yaxshiroq bardosh bera olish imkoniyati tug‘iladi.

**Nomoddiy madaniy meros bioturfaxillikni himoya qilishga yordam berishi mumkin.**

Mahalliy hamjamiyatlar bioturfaxillikni saqlashda muhim o‘rin egalaydilar. Masalan Keniyadagi Kikuyyu ayollari qishloq hujaligi ekinlarini o‘stirishda va o‘simliklar urug‘larini saqlashda muhim o‘rin tutadilar. An’anaga ko‘ra, ayollar loviyaning bir necha navini bir ekin maydonida o‘stiradilar va kasallik tarqalishi yoki iqlim o‘zgarishi ehtimolini hisobga olib urug‘larning katta zahiralari saqlab qo‘yadilar. Bugungi kunda ushbu zahiralalar mahalliy aholining urug‘ materiallari to‘g‘risida qimmatli bilimlarini o‘z ichiga olgan juda qadrli xazina hisoblanadi. Bu esa kishlok xujaligi resurslari kamayib ketayotgan bir paytda juda katta ahamiyatga ega. Bundan ko‘rinib turibdiki, boshqa mahalliy bilim sohiblari kabi fermerlar, chorvadorlar, baliqchilar va xalq tabiblari bioturfaxillikni saqlovchilari bo‘lishi mumkin.

**Nomoddiy madaniy meros atrof-muhitning barqarorligini saqlab qolishda yordamberishi mumkin.**

Dunyo miqyosida inson faoliyati natijasida tabiiy resurslarning borgan sari nobarqaror iste’moli sodir bo‘layotgan bir mahalda, ko‘pgina mahalliy hamjamiyatlar tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga yordam beradigan turmush tarzini yo‘lga qo‘ydilar va nomoddiy madaniy meros an’analarini yaratdilar. Masalan, Samo adagi yupqa to‘qilgan gilamchalar madaniy tadbirlar o‘tkazayotganda o‘ziga xos valyuta sifatida qo‘llaniladi; yoki marosimlar paytida ishlatiladi.

Vaqt o'tishi bilan atrof-muhit bilan bog'liq bilimlar (shu jumladan to'qimachilikda asosiy hom-ashyo sifatida qo'llanilib keladigan pandana daraxtining turli navlarini o'stirishga oid bilimlar) to'qimachilikning ajralmas qismi sifatida ko'riladigan bo'ldi. Bu kabi bilimlar Samoa aholisiga atrof-muhitni saqlab qolishda yordam beradi, chunki Samoaliklar o'zlarining farovonligi tabiat va atrof-muhitga juda ham bog'liq ekanligini tushunadilar. Shunisi e'tiborga loyiqki, o'simliklardan to'qib tayyorlangan bunday mahsulotlar tabiiy yo'l bilan parchalanadi va yo'q bo'lib ketadi. Shuningdek bunday mahsulotlarning hayot davomiyligi sezilarli darajada qisqaroq bo'lib, u ekish, hosilni terib olish, mahsulotni yaratish, undan foydalanish va uni osonlikcha yo'q qilishdan iborat. Bu esa butun dunyo bo'ylab ommaviy ko'llaniladigan va yo'q qilinishi qiyin bo'lgan plastmassa va boshqa ekologik jihatdan zararli hisoblangan mahsulotlardan ancha farq qiladi.

**Tabiat bilan bog'liq mahalliy bilim va urf-odatlar atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasida olib boriladigan tadqiqotlarga ko'mak berish mumkin.**

Masalan, baliqchilik bilan bog'liq an'anaviy bilim va ko'nikmalarni saqlab qolgan baliqchilar dengizdagi bioturfaxillikka oid muammolarni hal qilishiga yordam beradigan boy ma'lumotga ega. Ular baliqlarning tabiati, fe'l-atvori, migratsiyasi, yashash joyi hamda turli fasllarga moslashgan va baliqchilikda qo'llaniladigan uslublar to'g'risida batafsil bilimlarga ega. Amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bu kabi bilimlar dengizdagi bioturfaxillikni tiklash va saqlab qolish borasida olib boriladigan ilmiy izlanishlarga ko'mak berishi mumkin. Umuman olganda, hamjamiyatlar va tadqiqotchilar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro ilg'or tajribalar almashinuvi turli sohalarda atrof-muhit barqarorligiga erishishda yordam berishi mumkin, shu jumladan, o'rmonlarni saqlash va muhofaza qilish sohasida yoki qishloq xo'jaligida bioturfaxillikni saqlash va tabiat resurslarini boshqarish sohasida.

**Mahalliy miqyosda qiyinchiliklarni yengish bo'yicha strategiyalarning va bilimlarning mavjudligi tabiiy ofat va iqlimo'zgarishini oldini olishda muhim hisoblanadi.**

Qaltis va og'ir sharoitlarda hayot kechiruvchi mahalliy hamjamiyatlar iqlim o'zgarishining va tabiiy ofatlarning asoratlarini birinchilardan bo'lib his qiladilar. Ularning tabiat hamda iqlim bilan bog'liq bilim va urf-odatlari (jumladan ularning ekologiya haqidagi tushunchalari, bioturfahillik va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'nikmalari va qoidalari, tabiiy resurslarni boshqarish tizimlari, tabiiy ofatlar va ob-havo sharoitlarini oldindan aytib berish tizimlari) o'zlarining tabiiy muhitlarida xavf va tahdidlarni bartaraf etishga mo'ljallangan strategiyalarning o'ziga xos xazinasini hisoblanadi. Doimiy



ravishda ishlab chiqilgan va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirib borilgan bunday strategiyalar mahalliy hamjamiyatlarga tabiiy ofatlar bilan bog'liq xavfni kamaytirishga imkoniyat yaratadi, zarur bo'lganda esa qayta tiklanishga va iqlimdagi o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi.

### **1.5. Barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanish**

Barqaror rivojlanish ishlab chiqarishning va iste'mol qilishning barqaror modeliga asoslangan turg'un, adolatli va barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq. Barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanish nafaqat yordamga muhtoj shaxslarga, balki yashash uchun yetarli mablag'i bo'lmagan aholi qatlamlariga, shuningdek, iqtisodiy faoliyatda to'laqonli ishtirok eta olish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga qaratilgan. Bunday iqtisodiy rivojlanish samarali va munosib bandlikni ta'minlashni, qashshoqlik va tengsizlik darajasini qisqartirishni, resurslardan samarali foydalanadigan iqtisodiy rivojlanishni hamda ijtimoiy ta'minotni talab qiladi. Bu kabi o'zgarishlarni amalga oshirishda nomoddiy madaniy meros muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U turli xil ishlab chiqarish faoliyatlarini qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuch hisoblanadi va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga ko'mak beradi. O'zgarishlar ortidan u muhim innovatsiyalar manbaiga aylanishi mumkin hamda mahalliy va xalqaro miqyosda barchani qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanishga erishishda ko'maklashishi mumkin.

**Nomoddiy madaniy meros guruhlar va hamjamiyatlarning hayot faoliyatini qo'llab- quvvatlovchi muhim vosita hisoblanadi.**

Avloddan-avlodga saqlanib kelayotgan va rivojlanib borayotgan mahalliy bilim, ko'nikma va an'analar ko'p insonlarning tirikchiligi uchun kerakli mablag' topishga imkoniyat yaratadi. Masalan, Estoniyadagi oilaviy fermer xo'jaliklari qo'y boqib, ularning junlariga mahalliy an'analariga asosan va tabiatga hamohang tarzda ishlov beradilar. Bunday hayot tarzi ularga tirikchiligi uchun zarur bo'lgan mablag'ni topishga imkoniyat yaratadi hamda ularda o'ziga xoslik hissini shakllantiradi. Ular to'quvchilar uchun ip yigiradi, jun maxsulotlari va buyumlarini tayyorlaydi, shuningdek qo'y yog'idan sovun va shamlar ishlab chiqaradi. Bu kabi tirikchilik manbalari bilan ta'minlab beruvchi an'analar farovonlikka erishishda xal qiluvchi ahamiyatga ega va ular mahalliy miqyosda kambag'allikni oldini olishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

**Nomoddiy madaniy meros ko'pchilik insonlarni, shu jumladan aholining kambag'al vazaifqatlamlarini munosib mehnat sharoitlari bilan ta'minlashi va ularga daromad keltirishim mumkin.**

Misol uchun, an'anaviy hunarmandchilik ko'pincha iqtisodiy tizimdan tashqarida bo'lgan guruhlar, hamjamiyatlar va alohida shaxslar uchun moliyaviy daromad olishning asosiy manbai hisoblanadi. Hunarmandchilik nafaqat hunarmandlarning o'zlari yoki oilalari uchun, balki hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda kerakli xom-ashyoni yetkazib berish va sotish bilan shug'ullanuvchi insonlar uchun ham daromad keltiradi. Bu kabi faoliyat turlari munosib ish sharoitlari bilan ta'minlaydi: oila va hamjamiyat doirasida olib borilganligi uchun ular xavfsiz ish sharoitlarini yaratadi. va mansublik hissini shakllantiradi; bu kabi faoliyat turlari jamiyatning o'zligini aks etganligi sababli, mehnatning faxrli turi sifatida e'tirof etiladi. San'atning ijrochilik turlari, bayram tadbirlari va nomoddiy madaniy merosning boshqa ko'rinishlari ham hamjamiyat a'zolarini (ayniqsa yoshlar va ayollarni) iqtisodiy rivojlanish jarayoniga jalb qiladi.

**Tirik meros sifatida nomoddiy madaniy meros rivojlanishga yo'naltirilgan innovatsiyalarning asosiy manbaiga aylanishi mumkin.**

Hamjamiyatlar va guruhlar sodir bo'layotgan o'zgarishlar ketidan doimo yangiliklar kiritib boradi. Nomoddiy madaniy meros o'ziga xos strategik manba bo'lib, u milliy va global miqyosida haqiqiy o'zgarishlarga asoslangan taraqqiyotga erishishga imkoniyat yaratadi. Masalan, yangi turdagi materiallar (ba'zi xom-ashyolar yetarli bo'lmagan taqdirda yoki umuman mavjud bo'lmaganda) eski ehtiyojlarni qondirish uchun moslashtirilishi mumkin. Huddi shu singari eski bilim va ko'nikmalar zamonaviy muammolariga yechim topishda qo'llanilishi mumkin. Misol uchun davrlar osha sinalgan madaniy bilimlarni yetkazish tizimi yangi zamonaviy axborot va aloqa texnologiyalariga moslashtirilishi mumkin.

*Avloddan-avlodga saqlanib kelayotgan va rivojlanib borayotgan mahalliy bilim, ko'nikma va an'analarni ko'p insonlarning tirikchiligi uchun kerakli mablag' topishga imkoniyat yaratadi. Nomoddiy madaniy meros ko'pchilik insonlarni, shu jumladan aholining kambag'al va zaifqatlamlarini munosib mehnat sharoitlari bilan ta'minlashi va ularga daromad keltirishi mumkin.*

**Nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq sayyohlik faoliyatlari ham hamjamiyatlar uchun foyda keltirishi mumkin.**

Boy an'analarni, bayram tadbirlarini, ijrochilik san'ati turlarini, hunarmandchilik bilan bog'liq ko'nikmalarni hamda nomoddiy madaniy merosning boshqa sohalarini kashf qilish imkoniyati sayyohlarni milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda jalb qilish uchun yaxshi sabab bo'lishi mumkin. Sayyohlik faoliyati odob-ahloq qoidalari doirasida bo'lsa, merosga

va uni saqlovchilariga ma'suliyatli yondashsa, u daromad keltirishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishini rag'batlantirishi hamda hamjamiyatda g'urur hissini shakllantirish mumkin. Aslini olganda, sayyohlik faoliyati merosga hurmatsizlik bilan qarasa, u merosni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Misol uchun, faoliyatning haddan tashqari tijoratlashuvi butun hamjamiyat uchun merosning asl maqsadini o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun, sayyohlik bilan bog'liq faoliyatni olib borayotganda (xoh davlat bo'lsin, xoh jamoat yoki xususiy tashkilot bo'lsin) nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga, meros sohiblariga, ularning huquqlariga, istaklariga va intilishlariga hurmat ko'rsatish juda ham muhim. Meros sohiblari ularning merosi bilan bog'liq har qanday sayyohlik faoliyatida asosiy manfaatdor tomon bo'lishlari lozim. Bundan tashqari ular meroslarini boshqaruvida yetakchi o'rin egallashlari kerak. Odob-ahloq tamoyillarga asoslangan va nomoddiy madaniy merosning o'ziga xosligini e'tiborga oladigan sayyohlik, merosni har qanday salbiy ta'sirlardan asrashi hamda sayyohlar va sayyohlik bilan shug'ullanuvchi insonlarning hatti-harakatini nazorat qilishi lozim.

### **1.6. Tinchlik va xavfsizlik**

Tinchlik va xavfsizlik, hususan mojarolardan, kamsitishdan va zo'ravonlikning barcha turlaridan holi bo'lish barqaror rivojlanishning dastlabki shartlari hisoblanadi. Ushbu talablarni bajarish inson huquqlariga hurmat bilan qarashni, samarali adliya tizimlarini, ochiq siyosiy jarayonni, mojarolarni oldini olish va hal qilish bo'yicha tegishli tizimlarning mavjud bo'lishini talab qiladi. Shuningdek, tinchlik va xavfsizlik maxalliy axolining tabiiy resurslardan adolatli foydalanishini ta'minlash hamda unga xech kanday cheklov yoki kamsitishsiz yerdan foydalanish va egalik kilish huquqini berish bilan bog'liq.

Nomoddiy madaniy merosning turli ko'rinishlari va shakllari o'zida tinchlik g'oyalari mujassam etadi hamda muloqot va hamjihatlilikka ko'maklashadi. Merosni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarning o'zi ham tinchlik o'rnatishga hissa qo'shishi mumkin. Shunday ekan, nomoddiy madaniy meros va merosni muhofaza qilish sohasidagi bunday chora-tadbirlar davlatlarga, hamjamiyatlarga va barcha rivojlanish jarayoni ishtirokchilariga madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'z yo'llaridan borish imkonini beradi va kengqamrovli ishtirokka erishishga, tinch-totuv yashashga, nizolarni oldini olishga va hal qilishga yohud barqaror xavfsizlikni ta'minlashga va tinchlikni o'rnatishga imkoniyat yaratadi.

**Nomoddiy madaniy merosga oid ko'pchilik urf-odatlar negizida tinchlikni mustaxkamlash g'oyalari yotadi.**

1236 yilda Sundiata Keyt tomonidan ta'sis etilgan Manden xartiyasi (Mali imperiyasining konstitusiyasi) bunga yaqqol misol bo'la oladi. U inson huquqlariga oid dunyodagi birinchi xartiyalardan biri bo'lib, etnik va madaniy turfaxillik sharoitida hamjixatlik va tinchlik, inson hayotining daxlsizligi, qullikka olish maqsadida bosqinchiliklarga chek qo'yish, o'z fikrini erkin ifoda etish hamda erkin tadbirkorlik faoliyatini yuritish kabi kadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Xartiyada aytib o'tilgan so'zlar, shuningdek u bilan bog'lik (og'zaki tarzda avlodan-avlodga berib borilayotgan) marosimlar Malinke xalqi tomonidan hozirgi kungacha qadrlanib kelmoqda. Bu xartiyani ta'sis etgan tarixiy uchrashuvga bag'ishlangan xotira marosimlari har yili Malidagi Kangaba qishlog'ida nishonlanadi. Bu marosimlar mahalliy va milliy hukumat tomonidan, jumladan qabila boshqaruv organlari tomonidan tashkillashtiriladi. Xartiya xuquq manbai shuningdek muxabbat, tinchlik va birodarlik rishtalarini tarannum etuvchi o'ziga hos noma sifatida ham ko'riladi. Umuman olganda, butun dunyo bo'ylab nomoddiy madaniy merosning turli xil ko'rinishlari tinchlik kadriyatlarini mustahkamlash va muhofaza qilishga hizmat qiladi.

**Nomoddiy madaniy meros nizolarni oldini olishga yoki hal qilishga yordam berishi mumkin.**

Muloqot olib borish, nizolarni hal qilish va murosaga kelishning mahalliy an'analari dunyo jamiyatlarida muhim o'rin egallaydi. Aniq ijtimoiy va ekologik masalalarga javob berish, umumiy makondan foydalanish, tabiiy resurslarni boshqarilishini tartibga solish hamda insonlar tinch-totuv yashashlari uchun yaratilgan va asrlar davomida shakllangan bunday tizimlar o'zlarining hususiyatiga qo'ra norasmiy yoki puxta o'ylab chiqilgan bo'lishi mumkin. Masalan, Ispaniyaning yog'ingarchiligi kam bo'ladigan Mursiya va Valensiya mintaqalarida, fermerlar o'rtasida suv resurslarini taqsimlanishi va irrigatsiya tizimlarini boshqarilishiga oid masalalar yuzasida kelishmovchiliklari bo'lsa, ular kommunal sudlarga murojaat kiladilar. Mursiya oqsoqollari kengashining hamda Valensiya suv ishlari bo'yicha sudining a'zolari har payshanba kuni o'z hukmlarini e'lon qilish uchun yig'iladilar. Bu e'lon qilingan hukmlar adolatli va oqilona deb tan olinadi va boshqa fuqarolik sudidagi hukmlar kabi yuridik kuchga ega. Sud azolari fermerlardan iborat bulib, ular demokratik tarzda yeki kur'a tashlash orqali tayinlanadi. Ular ikki taraflama da'volarni ko'rib chiqishda o'zlarining dehqonchilik, irrigatsiya va mahalliy an'analar tug'risidagi bilimlariga tayanadi. Umuman olganda bu kabi nomoddiy madaniy meros an'analarning saqlanib qolishi hamjamiyatda tinchlik va havfsizlikni ta'minlashda muhim

ahamiyat kasb etadi, chunki ular barcha taraflarni jalb qilgan holda nizolarni oldini olishda va hal qilishda yordam beradi.

**Nomoddiy madaniy meros tinchlik va xavfsizlikni tiklashga yordam berishi mumkin.**

Masalan, tinchlik o'rnatish va yarashishga bag'ishlangan marosimlar negizida o'ziga hos ijtimoiy ta'sir yotadi va u ikki tomon o'rtasida (xoh alohida shaxslar bulsin, xoh oilalar yoki xamjamiyatlar) tinchlikni tiklashga yordam beradi. Tinchlik o'rnatishga bag'ishlangan marosimlar zo'ravonlikni ko'llamaslik istagini bildirish uchun yohud munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida ramziy tarzda qo'llanilishi mumkin. Bunday marosimlar insonlarning bir biri bilan yaqinlashuviga yordam beradi va mavjud kelishmovchiliklarga, raqobat kayfiyatiga, nafrat va zo'ravonlikka barham berish imkoniyatini yaratadi.

*Muloqot olib borish, nizolarni hal qilish va murosaga kelishning mahalliy an'analari dunyo jamiyatlarida muhim o'rin egallaydi. Ular aniq ijtimoiy va ekologik masalalarga javob berish, umumiy makondan foydalanish, tabiiy resurslarni boshqarilishini tartibga solish hamda insonlar tinch-totuv yashashlari uchun yaratilgan va asrlar davomida shakllangan.*

**Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish orqali mutahkam tinchlik va xavfsizlikni o'rnatish mumkin.**

Agar nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid chora-tadbirlar keng qamrovli bo'lsa, u holda ular hamjamiyatlarni, guruhlarini va alohida shaxslarni (jumladan mahalliy xalqlarni, migrantlarni, immigrantrlarni, kochoqlarni, turli jins va yoshdagi insonlarni, imkoniyatlari cheklangan insonlarni, shuningdek aholining marginal guruxlarini) birlashtirishga qodir samarali vositaga aylanishi mumkin. Demokratik boshqaruvga ko'magi tufayli hamda inson huquqlariga nisbatan hurmatli munosabatda bo'lganligi sabab nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid chora- tadbirlar tinchlik va havfsizlik omillarining yuzaga kelishida yordam beradi, bular qatoriga chuqur ildiz otgan umumiy qadriyatlar almashinuvi; kollektiv o'zlik hamda shaxsiy qadr-qimmat hissining mustahkamlanishi; ijodiy va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi kiradi. Mojarolardan so'ng merosni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ham ikki tomonni bir biri bilan yaqinlashtirishga yordam beradi. Bunga misol umumiy tarixiy xotirani tiklash loyixasi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, agar bunday chora-tadbirlar tirik meros doirasida amalga oshirilsa, u holda madaniyatlararo muloqot yuzaga kelishi va madaniy turfaxillikka nisbatan hurmat hissi shakllanishi mumkin va bu natijada tomonlarning yarashishiga olib kelishi

mumkin. Shu sababli ham, bunday muhofaza chora-tadbirlari jamiyatda xavfsizlikni va tinchlikni tiklashda samarali hisoblanadi.

*Yillar davomida to‘plangan bilim va an’analar tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish uchun qo‘llanilgan. Shunday ekan, nomoddiy madaniy meros bioturfaxillikni himoya qilishda va atrof-muhitni barqarorligini saqlashda yordam berishi mumkin.*

### *Nazorat savollari*

1. BMTning “Barqaror taraqqiyot” dasturining prinsiplari nechta?
2. “Barqaror taraqqiyot” dasturining birinchi prinsipi qaysi masalaga bag‘ishlangan?
3. BMTning mingyillik maqsadlari va “Barqaror taraqqiyot” dasturidagi eng so‘nggi masala qaysi muammoga bag‘ishlangan?
4. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi “Barqaror taraqqiyot” maqsadlaridan qay biriga xizmat qilishi mumkin (bitta meros namunasida aytib bering)?
5. Nomoddiy madaniy merosning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli nimada ko‘rinadi?
6. An’anaviy davolash amaliyotlari qanday qilib barqaror taraqqiyot uchun xizmat qilishi mumkin?
7. O‘zbek nomoddiy madaniy merosida suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlardan misollar keltira olasizmi?
8. Atrof-muhitning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan nomoddiy madaniy merosimiz mavjudmi?

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘.Toshmatov, N.Isakulova. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (monografiya). Toshkent, 2015 y.
2. Nomoddiy madaniy meros va barqaror rivojlanish. YUNESKO nashri
3. What is intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
4. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH

### **Internet resurslar:**

- <https://www.unesco-ichcap.org/publications/>  
<https://www.ich.uz>

## **2-mavzu: O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jarayonining bosqichlari. Nomoddiy madaniy merosning sohalari.**

**(4 soat)**

### **Reja:**

- 2.1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati.
- 2.2. Konvensiyani ratifikatsiya qilish.
- 2.3. Milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlar.
- 2.4. 2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi.
- 2.5. Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar (Ro‘yxatlarni yuritish tartibi va tarixiy-madaniy ekspertiza to‘g‘risidagi nizomlar).
- 2.6. Nomoddiy madaniy merosning sohalari. O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari.
- 2.7. Ijrochilik san‘ati va uning turlari.
- 2.8. Urf-odat, marosim va bayramlar.
- 2.9. Tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar.
- 2.10. An‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

**Tayanch iboralar:** *konvensiya, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, Operativ yo‘riqnoma, Bosh assambleya, Kotibiyat, Rerezentativ ro‘yxat, ratifikatsiya, tarixiy-madaniy ekspertiza, ansambllar, yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros sohalari, bilim va ko‘nikmalar, hamjamiyat, merosni o‘zida saqlovchilar, nodavlat-nohukumat tashkilotlari.*

### **2.1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati.**

Planetamizning turli qismlari turlicha iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda yashayotgan insonlar o‘zlari yashab turgan muhitining yutuq va kamchiliklarini doimo his qilib va unga nisbatan o‘z munosabatini bildirib kelgan. So‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining yanada jadallashuvi, globallashuv jarayonining tezlashishi yer yuzi xalqlari uchun juda katta imkoniyatlar yaratishi qatorida salbiy oqibatlariga ham olib kelayotganligini atrofimizga boqib o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu salbiy holat munosabati bilan insonlarni:

Bizni o‘rab turgan muhit nima uchun jadallik bilan yomon tomonga o‘zgarib bormoqda?

Shu ketishda insoniyatni ertaga nima kutadi?

Iqtisodiyotga, jamiyatga va tabiatga munosabatni o'zgartirish mumkinmikin?

Biz kelgusida qanday dunyo va jamiyatda yashashni hohlaymiz?

Dunyoni yaxshi tomonga qaysi yo'l bilan o'zgartirish mumkin?

Tabiat va jamiyatdagi salbiy holatlarni qanday qilib to'xtatish mumkin degan savollar qiynamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tarkibidagi fan, ta'lim va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tashkiloti ana shu muammolarni qay yo'l bilan hal qilish mumkinligi ustida qator yillardan buyon bosh qotirib keladi va buning oqibatida qabul qilingan "Barqaror taraqqiyot dasturi"da muammolarni hal etishning yechimlari o'z aksini topgan. Ushbu dasturga ko'ra yer yuzida barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ta'limning juda muhim o'rnini bor. Zero, ta'lim tizimiga singdirilgan har qanday g'oya bizning kelajagimiz va bo'lajak zamon egasi bo'lmish yoshlarimizning barchasiga yetib boradi va ular ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish imkoniyati juda keng. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida ta'limdan barqaror taraqqiyot yo'lida foydalanish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning aksariyati deyarli bir xil tizimga asoslanadi.

Ya'ni:

- ilm va fan vositasida malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- ushbu kadrlarni boshqaruv tizimiga yo'llash va ular orqali ilmiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga erishish;
- boshqaruv qarorlari natijasida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- oxir oqibat barqaror taraqqiyot muvozanatini yuzaga keltirish va uni saqlash.

Xo'sh, nomoddiy madaniy merosning barqaror taraqqiyotga nima aloqasi bor, degan savol tug'ilishi mumkin.

Bu savolga javob berish uchun "nomoddiy madaniy meros"ning o'zi nima ekanligini aniqlab olishimiz zarur.

"Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi. Hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan yaratilib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bu meros doimo atrof-muhitga, tabiatga va shu jamiyatning tarixiga bog'liq holda yaratiladi. Yana shuni aytib o'tish lozimki, nomoddiy madaniy meros deganda hozirgi kunda hayotda mavjud va yashab turgan tirik meros tushuniladi. Boshqacha aytganda, muqaddam mavjud bo'lgan va



hozirda amaliyotda qo‘llanilmaydigan meros tushunilmaydi. Yana bir narsa muhimki, inson huquqlari sohasida amaldagi xalqaro huquqiy aktlar bilan muvofiqlashtirilgan, turli hamjamiyatlar, guruhlar va shaxslar o‘rtasida o‘zaro hurmatni yo‘lga qo‘yish talablariga mos keladigan, barqaror taraqqiyot talablariga mos tushuvchi nomoddiy madaniy merosgina tan olinadi.

2003 yilda qabul qilingan Konvensiyaga ko‘ra nomoddiy madaniy meros quyidagi 5 ta sohada namoyon bo‘lishi mumkin:

1. O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari;
2. Ijrochilik san‘ati;
3. Jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari;
4. Tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar;
5. An‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

Yuqorida qayd etilganlardan shuni anglash mumkinki, hayotimizning asosiy qismi nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq ekan. YA‘ni, turmush tarzimizda har qadamda nomoddiy madaniy meros bilan duch kelamiz va biz uni deyarli his etmaymiz. Lekin, har bitta narsaning qadri u yo‘qotilganda chuqurroq anglanadi, deyilganidek o‘z nomoddiy madaniy merosimizni yo‘qotilmasdan oldin anglashimiz va uni muhofaza qilishimiz zarurligini hayot ko‘rsatib turibdi. Rivojlangan davlatlarda hatto bizning tasavvurimizga sig‘maydigan ayrim holatlar ularning tabiiy bir holatiga aylanib qolganligi buni isbotlaydi. Masalan, oilaning muqaddasligi masalasi ularda allaqachon unutilgan. Hozirda hatto bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada ota va onaning ismi-sharifini alohida ko‘rsatmaslik masalasi ham muhokama etilmoqda. Buning sababi - bitta oilada ikkita erkak, yoki boshqa oilada ikkita ayol turmush qurishi mumkin va ularning qay biri ota va qay biri ona ekanligini ko‘rsatish shart emas emish.

Har bitta xalqning nomoddiy madaniy merosi shu xalqning o‘zligini ifodalaydi va u albatta hurmat qilinishi kerak. Nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omil yo‘q va bu meros to‘laligicha barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

## **2.2. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasini ratifikatsiya qilish**

Jamiyatning rivojlanish sur'ati uning tashqi muhit, ya'ni boshqa jamiyatlar bilan aloqalarning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, iqtisodiy va ijtimoiy almashuvlarining samarasiga bog'liq. Hech bir jamiyat yopiq holda keskin o'sish sur'atlariga erishishi mumkin emas. Agar shunday bo'lganda Amazonka daryosi bo'yidagi o'rmonlarda topilayotgan ibtidoiy qabilalar boshqa ochiq jamiyatlardan ko'ra rivojlanib ketganligini kuzatish mumkin bo'lar edi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish, ular erishgan yutuqlarga suyangan holda rivojlanishning yangi yo'llarini hayotga tatbiq etishda o'zaro aloqalar juda katta ahamiyatga ega. Bu hodisa, boshqacha qilib aytganda globallashuv jarayoni, rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilish uchun xizmat qilsa-da, alohida olingan jamiyatlarning o'zligini namoyon qilish elementlaridan kechishi hisobiga bo'ladi. Chunki, rivojlangan jamiyat iqtisodiyoti bilan birga u yerdagi yashash tarzi, madaniyat va ma'naviyat ham boshqa jamiyatga kirib keladi. Ba'zan rivojlangan jamiyatning "ilg'or" madaniyati nisbatan kam rivojlangan jamiyatning "qoloq" madaniyatidan ko'ra past saviyada bo'lsa-da, yosh avlod tomonidan moda sifatida qabul qilinishi va bu orqali aslida o'ta insoniy bo'lgan madaniyatning ayrim elementlari butunlay yo'qotilishi mumkin.

Globalashuv jarayonidagi moddiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ma'naviy sohada yuz berayotgan yo'qotishlar ko'p vaqtdan buyon dunyo hamjamiyatidagi ilg'or kishilarni tashvishga solib kelayotgan bo'lsa-da, dunyo miqyosida bunday yo'qotishlarning oldini olish va tegishli choralar ko'rish masalasiga alohida e'tibor o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Misol uchun 1962 yilda Koreya Respublikasida maxsus madaniy dastur qabul qilinib, milliy ma'naviy va moddiy boyliklarni muhofaza qilish ishlari boshlandi. Boshqa davlatlarda ham turli yo'llar bilan o'z milliy madaniyatini saqlash choralari ko'rila boshlandi. Ma'naviy qashshoqlashuv, "standart madaniyat" yoyilishining oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta'lim va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan yangi bir jarayon boshlandi va bu jarayon har bir millat, xalq, jamiyatning o'zligini ifodalovchi, shu bilan bir qatorda boshqalarni kamsitish yoki tan olmaslik xususiyatlaridan holi bo'lgan ma'naviy boyliklarini asrash va kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilib oldi. Shunday qilib, turli xalqlarda turlicha nomlanadigan, aslida esa o'zlikni namoyon qilish shakllari, usullari bilan bog'liq bilim, tajriba va ko'nikmalar "nomoddiy madaniy meros" iborasi bilan ifodalana boshlandi.

Dunyo miqyosida nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKOning 1989 yildagi “An’anaviy madaniyat va folklorini muhofaza qilish” bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlandi. 1994 yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko‘maklashish maqsadida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi boshlandi.

O‘tgan asrning 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo‘yicha keskin, qat’iy choralar ko‘rish lozimligi aniqlandi va ushbu yo‘nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi. Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001 yilda bo‘lib o‘tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o‘tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003 yil 17 oktabrdagi 32-sessiyada “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasi qabul qilindi.

2005 yil mazkur Konvensiyaga qo‘shilish masalasi ilk bora kun tartibiga qo‘yildi va bu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarga Konvensiyaning mohiyatini o‘rganib chiqish va taklif kiritish vazifasi Oliy majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan muvoqiflashtirish ishlari boshlandi. O‘sha davrda Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga o‘rganish natijalarini umumlashtirish va mutaxassilarni jalb etgan holda tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirish yuklangan edi. Maxsus ishchi guruhi tuzilib, Konvensiya chuqur o‘rganildi va tegishli mutasaddi tashkilotlar va ekspertlarning fikriga ko‘ra uni ratifikatsiya qilish zarurligi taklif sifatida Oliy Majlisga taqdim etildi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati ishtirokida bo‘lgan qo‘shma majlisida (2007 yil dekabr) Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

### **2.3. Milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlar**

Ma’lumki, Xalqaro hujjatlar sirasiga kiruvchi Konvensiya majburiy hujjat hisoblanadi va unga qo‘shilgandan keyin Konvensiyadagi qoidalar milliy qonunchilik bilan zid kelmasligini ta’minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, Konvensiyaning talablari uni qabul qilgan mamlakat qonunlariga mosligi ta’minlanishi, zarur hollarda milliy qonunchilikka qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini talab qiladi.

Shu davrda O‘zbekistonda madaniy merosga bag‘ishlangan, 2001 yilda qabul qilinib, 2003 yilda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish to‘risida” Qonun mavjud edi. Muqaddam madaniy meros sifatida asosan moddiy

madaniy meros tushunilib kelingani bois, mazkur qonunda nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq bittagina abzats bor edi. Shuning uchun, nomoddiy madaniy meros bo‘yicha Konvensiyaning barcha talablarini ushbu Qonunga singdirish yoki yangi Qonun qabul qilish kerak bo‘ldi. Mutaxassislar va qonunchilarning taklifiga ko‘ra mavjud qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish tanlandi va bu borada Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamkorligida ish boshlandi. Salkam ikki yil davom etgan jarayonning natijasida **“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi 228-sonli Qonun** qabul qilindi va unda ilk bora madaniy meros moddiy va nomoddiy toifalarga ajratilishi belgilandi. Qonunga ko‘ra:

**madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

**moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

**nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Mazkur Qonun bilan moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini ro‘yxatga olish va ularni ekspertizadan o‘tkazish qoidalari quyidagicha belgilangan:

### **11-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastri va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxati**

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxati nomoddiy madaniy meros obyektlari to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan hisobga olish hujjatidan iborat bo‘ladi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros obyektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros obyektlarining tarmoqlari, yo‘nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros obyektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarni ko‘rsatish;

ma’lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros obyektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.

Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**12-modda. Madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish**

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritish maqsadga muvofiqligi to'g'risida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi olingan kundan e'tiboran mazkur obyektlar aniqlangan madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Arxeologiya yodgorliklari topilgan paytidan e'tiboran aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari jumlasiga kiritiladi.

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan yangi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektlari Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishi to'g'risidagi masala hal qilingungacha ushbu Qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi aniqlangan moddiy madaniy meros obyektining mulkdorini mazkur obyekt Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilganligi to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida xabardor qilishi shart.

**15-modda. Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi**

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi:

madaniy meros objekti Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslash;

moddiy madaniy meros obyektining toifasini belgilash;

moddiy madaniy meros obyektining toifasi o'zgartirilishini asoslash;

moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarish;

moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza tegralari loyihalarining shaharsozlik va loyihalash hujjatlariga, shuningdek mo'ljallanayotgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarning moddiy madaniy meros obyektlarini asrash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Shunga o'xshash bir qator o'zgarish va qo'shimchalar bilan to'ldirilgan yangi qonun 2009 yilda qabul qilindi.

#### **2.4. 2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi**

“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi 2010 – 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi tasdiqlanadi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochi sifatida belgilanib, Davlat dasturi monitoringini yuritish, muntazam ravishda har bir yil yakunida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etish, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida har olti yilda YUNESKOga taqdim etiladigan hisobotlarini tayyorlash vazifalari yuklatilgan.

2010 yil 7 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi”ning I bo'limi – “Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish”, II bo'limi – “Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish”, III bo'limi – “Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish”, IV bo'limi – “Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish”,

IV bo‘limi – “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari”, V bo‘limi – “Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo‘yicha olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot ishlari”, VI bo‘limi – “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog‘ini rivojlantirish”, VII bo‘limi – “Nomoddiy madaniy meros targ‘ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish”, VIII bo‘limi – “Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish” masalalariga bag‘ishlangan.

Davlat dasturining “Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish” deb nomlangan IV bo‘limi 13 ta banddan iborat bo‘lib, unda ta‘limning barcha bosqichlariga nomoddiy madaniy meros bilan bog‘liq tushunchalarni kiritish, ta‘lim jarayoniga ekspertlar, mutaxassislar, ayniqsa, nomoddiy madaniy merosni tashuvchilar, uni saqlovchilarni jalb etish alohida ta‘kidlangan.

### **2.5. Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar (Ro‘yxatlarni yuritish tartibi va tarixiy-madaniy ekspertiza to‘g‘risidagi nizomlar).**

2010 yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligiga “Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom va “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi qo‘yildi. Natijada Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi asosida nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish, ularning tarixiy-madaniy ekspertizasini tashkil etish mexanizmi yaratildi. Har ikki normativ-huquqiy hujjatga “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi 228-sonli qonunda ko‘zda tutilgan talablar asosida o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi 2009 yil 9 oktabrdagi O‘RQ-228-son Qonunini amalga tatbiq etish hamda Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010 yil 7 oktabrdagi 222-son qarori ijrosini ta‘minlash

maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom 2011 yil 23-fevraldagi 47-son Qarorining 1-ilovasi asosida tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida»gi 2009 yil 9 oktabrdagi O‘RQ-228-son Qonunini amalga tatbiq etish hamda Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2010 yil 7 oktabrdagi 222-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 2011 yil 23-fevraldagi 47-son Qarorining 2-ilovasi asosida tasdiqlandi.

## **2.6. Nomoddiy madaniy merosning sohalari. O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari**

Biz madaniy meros deganda aksariyat hollarda moddiy madaniy merosni ko‘z oldimizga keltirishga o‘rganganmiz. “Nomoddiy madaniy meros” tushunchasi o‘rnida an‘anaviy ravishda “xalq ijodiyoti”ni tushunib kelganmiz. “Xalq ijodiyoti” tushunchasi ostida esa raqs, musiqa, tomosha san‘ati, milliy hunarmandchilik va xalq og‘zaki ijodiyoti nazarda tutilgan. Konvensiyaga asosan “nomoddiy madaniy meros” tushunchasi “xalq ijodiyoti”ga qaraganda ko‘proq narsani qamrab oladi.

Unga asosan nomoddiy madaniy meros quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an‘analari va shakllari;
- ijro san‘ati;
- jamiyatning urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari;
- tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar;
- an‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.

O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki an‘ana va shakllari bizning tushunchamizdagi xalq og‘zaki ijodining o‘zidir. Xalq og‘zaki ijodida til muhim rol o‘ynaydi. Chunki til ushbu merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodining tur va janrlari juda keng. Uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so‘zlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda xalq merosining og‘zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi.



**Mif** (afsona, rivoyat, asotir) qadimgi odamlarning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, insonlar, hayvonlar va o‘simliklarning vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budalar va ilohlar to‘g‘risidagi etiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Qadimda xalqlarda bo‘lgani kabi, Markaziy Osiyo miflari mazmun va mohiyat jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

- olam yaratilishi va hayot paydo bo‘lishi ibtido haqidagi miflar;
- osmon jismlari va tabiat hodisalari haqida hikoya qiluvchi samoviy miflar;
- Gerakl, Gilgamesh, Hubbi, Alpomish kabi g‘ayrioddiy hislatga ega bo‘lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi antropogenik miflar;
- muayan e‘tiqodlar bilan bog‘liq (macalan, mo‘l hosil so‘rash, o‘simlik yoki olovga topinish) sig‘inish miflari;
- xalqlarning kelib chiqishi (masalan 92 ta o‘zbek urug‘larining paydo bo‘lishi) bilan bog‘liq etnogenetik miflar;
- taqvimiy miflar (masalan chilla, ayyom ajuz, ahman-dahman va hkz. haqida);
- olamning intihosi haqidagi esxatologik miflar.

Miflar “Avesto”, “Iliada”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Kalevala”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.

**Rivoyat** voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba‘zan uydirmalar vositasida, ba‘zan real tasvirlovchi folklor janridir. Hajmi qisqa, 2-3 epizoddan oshmaydi, an‘anaviy shaklga ega bo‘lmaydi. Odatda bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Mazmuniga ko‘ra rivoyatlar tarixiy hamda toponimik bo‘ladi. Tarixiy rivoyatda biror tarixiy shaxs yoki xalq qahramoni bilan bog‘liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal meyorlari tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar, xususan Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, Bobur, Mashrab va boshqa buyuk shaxslarning hayoti bilan bog‘liq voqea-hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda esa shahar, qishloq, qo‘rg‘on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelishi sabablari bilan voqealar hikoya qilinadi. Odatda xotimasida hikoyadan maqsad ta‘kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi. O‘zbek rivoyatlari bizgacha og‘zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan.

**Matal** - muayyan hayotiy hodisani aniq va to‘g‘ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matalda o‘xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so‘z

kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o‘z asl ma‘nosi bilan ko‘chma ma‘nosi o‘rtasida yaqinlik, mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi lozim. Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. (Masalan: “*Shamol bo‘lmasa daraxtning shohi qimillamas*”, “*Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit!*”).

**Maqol** bu xalq og‘zaki ijod janri bo‘lib, qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli xikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. U muayyan ritmga ega bo‘lib, avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, epik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujasamlashgan. Asrlar davomida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil. Turkiy xalqlari maqollaridan namunalar dastlab M.Qoshqariyning “Devonu lug‘ot-t-turk” asarlarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi.

**Masal** – didaktik adabiyot janridir. Bu ta‘limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she‘riy, ba‘zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, qushlar va hayvonlar orasidagi munosabatlar, tabiat hodisalari vositasida aks e‘ttiriladi. Mazmuni majoziy asosida qurilib, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy motivlikning ustunligi masalga hajviy ruh bag‘ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo‘lib, xotimasi maqol, hikmatli so‘z va iboralar tarzida bo‘ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqalarda qo‘llanilishi mumkin. O‘zbek adabiy ijodida uning namunalari “Kalila va Dimna”, “Zarb-ul-masal” va boshqa asarlar tarzida uchraydi. Masalchilik bilan Faxriddin Attor, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy kabi so‘z ustalari shug‘ullanganlar.

**Afsona** xalq og‘zaki ijodi (folklor) shakllaridan biridir. U xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi. Hattoki voqealar bo‘lib o‘tgan davr va makon ham ko‘rsatiladi. Afsonalar og‘izdan-og‘izga, eldan-elga o‘tib kelgan, ifoda usuli, bayon tarzi hisoblanadi.

Rivoyatdan farqli o‘laroq afsona zaminida mo‘jiza, sehr-jodu bo‘ladi. O‘zbek afsonalari koinot (Yer, Quyosh, Oy, yulduzlar va sayyoralar yaralishi), toponomika (masalan, Kavkaz tog‘lari, ba‘zi daryolar, dengizlar, shaharlar, qishloqlar va h.k), xalqlarning (masalan, turkiylarning) kelib chiqishi, hayvonot dunyosi, tabiat hodisalari, tarixiy shaxslar (Er Tunga, To‘maris va boshqalar), dinlar, payg‘ambarlar to‘g‘risida mavzularda qurilgan.

**Ertak** - xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan nasr shaklida yaratilgan. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida metal, Buxoro atrofida ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak deb ataladi. Hayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra ertakni 2 guruhga - xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklarga bo‘lish mumkin. Unda asosan, uch maqsadga asoslaniladi: birinchidan, ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatlarini ximoya qilishi, ikkinchidan, malika-yu parilarga oshiq bo‘lishi, bu yo‘lda dev va ajdarlarga qarshi kurashi, uchinchidan esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi.

Ertak janr obrazlari talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, tili va uslubiga ko‘ra ushbu janr asarlari shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrlil ertaklar, maishiy ertaklar va hajviy ertaklarga bo‘linadi.

**Tez aytish** o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir turi. O‘tmishda katta yoshdagi odamlar ham o‘tirishlarda, to‘ylarda tez aytishda musobaqalashganlar. Keyinchalik, asosan bolalar repertuariga aylangan, sababi tez aytish bolalarning fikrlash qobiliyatini, so‘z boyligini oshirishga va nutqning ravon bo‘lishiga xizmat qiladi.

## 2.7. Ijrochilik san‘ati va uning turlari

**Ijrochilik san‘ati** tarkibida nomoddiy madaniy merosimizning juda katta qismi o‘z ifodasini topadi. Sodda qilib aytilganda, xalq ijodining ijrochilik bilan bog‘liq sahnaviy janrlarning barchasi undan joy oladi. Bunda musiqa, raqs, xalq tomosha san‘atining barcha janrlari tushunilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda namoyish etishga (hoh u sahnada bo‘lsin, hoh maydonda, hoh kichik davrada) mo‘ljallangan janrlar ijrochilik san‘ati tarkibiga kiritiladi. Ijrochilik san‘atining barcha janrlarini qamrab olmagan holda misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

Musiqa yo‘nalishi bo‘yicha: “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari”, “Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari”, Dutor va surnay maqom yo‘llari, “Tanovor”, “Ushshoq”, “Feruz”, “Suvora”, “Lazgi”, “Mavrigi”, “Miskin” singari turkumlar, “Katta ashula”, allalar, o‘lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek, “baxshichilik”, “xalfachilik” va hududga xos boshqa yo‘nalishdagi manbalar.

Raqs yoʻnalishi boʻyicha: Fargʻona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos boʻlgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslari.

Tomosha sanʼati yoʻnalishi boʻyicha: dorbozlik, polvonlik, anʼanaviy sirk, koʻzboylogʻichlik, qoʻgʻirchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyaklik oʻyinlari, yogʻoch oyoq oʻyinlari, milliy xalq oʻyinlari va boshqalar.

## 2.8. Urf-odat, marosim va bayramlar

Urf-odat, marosim va bayramlar tarkibiga mehmondoʻstlik anʼanalari, axloq-odob bilan bogʻliq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bogʻliq marosimlar, beshik toʻyi, ism qoʻyish marosimi, sunnat toʻyi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda oʻtkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.

**Navroʻz** (fors – yangi kun) – shamsiya (quyosh) yil hisobidan yilning birinchi kuni, Oʻrta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy anʼanaviy bayrami. Bahorgi teng kunlikka (21 yoki 22 mart), yaʼni Quyoshning Hamal burjiga kirishiga toʻgʻri keladi. Navroʻz dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami hisoblanadi. Bayramda ommaviy xalq sayillari uyushtirilgan, yangi ungan koʻkatlardan tansiq taomlar pishirilgan, baʼzi ekinlarni ekish boshlangan. Dastlab navroʻz bayramini oʻtkazish oʻtroq dehqonlarda rasm boʻlgan, keyinchalik ular orqali yarim oʻtroq va koʻchmanchi turkiy xalqlarning xam urf-odatlariga aylangan. Asrlar oʻtishi bilan turli xalqlarda navroʻz bayramini oʻtkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan.

**Marosim** inson hayotida muhim hodisalar sodir boʻlganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni (masalan, tugʻilish, uylanish, oʻlim) qayd etadi, rasmiylashtiradi. Oʻzbek oilalarida yosh oilalarni tarbiyalash uchun oʻziga xos maʼnaviy “zina” sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tugʻilgandan, to ulgʻayib, yangi oila qurgungacha boʻlgan hayotiy muhim voqealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi (“Chaqaloq dunyoga kelishi”, “Ism berish”, “Chaqaloq chilla”, “Beshik toʻy”, “Soch toʻy”, “Tish toʻy”, Birinchi qadam”, “Sunnat toʻy”, “Muchal yosh”, “Nikoh toʻy” kabilar) vujudga kelgan.

**Sunnat toʻyining** tarixi eng qadimiy ibtidoiy jamiyatda balogʻat yoshini nishonlash, bolalarni oʻsmirlikka oʻtish marosimiga borib taqaladi. Oʻsha davrlardayoq bolani sunnat (xatna) qilish odati vujudga kelib, u bir tomondan, issiq iqlimda gigiyena (ozodagarchilik)ga rioya qilish vositasi boʻlgan, ikkinchidan, mardlik va jasurlik hisoblangan.

**Xatna** mahalliy odatlar bilan chatishib, to‘y-bayram darajasiga ko‘tarilgan. To‘y kuni bolaning ona tomonidan bo‘lmish buvisi turli sarpolar bilan bir qatorda maxsus bezatilgan toycha tortiq qiladi. Toychaga “to‘y qahramoni” mindirib, mahalla, qishloq ko‘chalari bo‘ylab uni karnay-surnay sadolari ostida sayr qildirishadi. Bu tantanali sayr to‘yxona eshigi oldida katta ommaviy raqsga tushish bilan kutib olinadi. To‘y kattalar mehmondorchilik qilish bilan yakunlanadi.

Chaqaloqning yaqinlari davrasida beshikka solish xalq tilida “**beshik to‘yi**” marosimi deb yuritilgan. Bu udum mamlakatimizning har bir hududida o‘ziga xos tarzda, turfa urf-odatlar bilan o‘tkaziladi. Ma’lumki, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan qudalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar uchun katta xursandchilik boshlanadi. Bu marosim odatda to‘ng‘ich farzand dunyoga kelganda katta tantana bilan qarshi olinadi. Odatda u ayrim joylarda kichik bir oilaviy marosim shaklida o‘tsa, boshqa joylarda esa mahalliy bayramga aylanib ketadi. Shuningdek, ba’zi joylarda bu marosim yaxlit bir shaklda tashkil topsa, boshqa yerlarda ikki tadbirdan iborat bo‘ladi. Masalan, Toshkentda farzand tug‘ilganiga 7-9 kun to‘lganda, avvaliga bolani beshikka solish marosimi o‘tkaziladi. Go‘dakning qirqi (40 kunlik) chiqqandan keyin esa, oila uchun qulay kunlarning birida alohida (ziyofat) beshik to‘yini uyushtirish odat tusiga kirgan. Marosim ota-ona va qudalarning o‘zaro kelishilgan kuni, maxsus tayyorgarlik ko‘rilgan holda o‘tkaziladi. Unda kelinning onasi o‘z nabirasi uchun yangi chiroyli beshik, xilma-xil kiyim-kechaklar, shuningdek, qizi va kuyovi, qudalari uchun sarpolar tayyorlaydi. To‘yga aytilgan qarindosh-urug‘lar ham chaqaloqqa atab sovg‘a keltirishadi. Bu tadbir Buxoroda quyidagi o‘ziga xos katta tantana bilan o‘tkazilgan: “Chaqaloqning ona tomonidan bobosi va buvisi unga boshdan-oyoq ust-bosh, yangi beshik va unga kerakli ashyolarni hozirlab, to‘y boshlangan kuni ana shu sovg‘alar jo‘natiladi. Sovg‘a jo‘natishda oldinda qo‘lida qayroq toshli, yog‘och bog‘lab olgan bolalar nog‘orachi, karnaychi va surnaychilarning nag‘malariga mos holda o‘ynab borishadi. Ularning ketidan sovg‘a-salomlarni ko‘targan ayollar, ularning ketidan esa, beshik ko‘targanlar boradilar. Uy egalari ularning yuzlariga un surtish bilan kutib oladilar. Bu bilan chaqaloqning umr yo‘li oq, o‘zi baxtli va farovon bo‘lishiga istak bildirishadi”. Kelinning onasi qarindosh-urug‘lari hamrohligida yasatilgan beshik va sarpolar bilan qudanikiga mehmonga borishadi. Bu marosim ayollar, bolalar va kayvoni ayol (to‘y-marosimlar ustasi, ko‘p biladigan ayol) boshchiligida o‘tkaziladi. Asosiy marosim kelinning onasi keltirgan beshikka chaqaloqni yotqizish uchun hozirlik ko‘rish bilan boshlanadi. To‘yga atab keltirilgan sovg‘alar namoyish

etiladi. Kayvoni ayol boshchiligida bolani cho‘miltirishadi. Chaqaloqni suvga solishdan oldin maxsus qumni uning tanasiga surtib chiqishadi. Sababi, badanidagi tuklar kamayib, chiqmasligi uchun qilinsa, undan keyin qatiq surkalib, uning terisi mayin va oqarishini ta‘minlaydi. Bola cho‘miltiriladigan tog‘oraga umri davomida boy-badavlat bo‘lsin deb tilla buyumlar va kumush tangalar tashlanadi (ma‘lumki, kumush suvni zararkunandalar – mikroblardan xoli qiladi). Go‘dakni cho‘miltirib bo‘lgach, buvisi olib kelgan yangi kiyimlar bilan beshikning oldiga olib kelinadi. Beshikni bosh tomoni qiblaga qaragan holda bolani belanadi va kayvoni ayol 4-6 qoshiqni beshik atrofida aylantirib oladi. Bu harakatda juft qoshiqlarning aylantirilishi bu beshik oiladagi kelgusi farzandlar uchun yashash, to‘qchilik ramzi bo‘lsin degan ma‘noda qilinadi. So‘ng beshikning yopinchiqlari yopilib, kayvoni ayol onaga juft patir yoki nonni tishlatadi. Bu bola to‘q bo‘lishi uchun onaning suti mo‘l bo‘lsin, risqi ulug‘ bola bo‘lsin degan fikrni anglatadi. Ona tishlagan nonni olib qo‘yiladi yoki bo‘lmasam o‘tirganlarga tarqatiladi. Kayvoni ayol xonaga isiriq tutatib, ona va beshik atrofida aylantiradi. Bu bilan uyning havosi tozalanib, bolani nazarnafaslardan ximoya qiladi. Ona bolani emizib uxlata boshlaydi, shu payt o‘tirganlar birgalikda chaqaloqqa alla aytishadi.

**Nikoh** - yangi oila yaratilishi maqsadida tashkil etiladigan marosim, udum va tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Nikoh – to‘y marosimi, undan oldingi va undan keyingi qismlarga bo‘linadi.

To‘ydan oldingi qism: qiz tanlash, sovchilikka borish, fotiha to‘yi singari bo‘laklarga bo‘linadi.

Qiz tanlash turli hududlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda ikki holat kuzatiladi: Yigitning o‘zi tanlashi. Ota-ona yoki qarindosh-urug‘ tomonidan tanlash.

Odatda yigitning ota-onasi yigitdan “ko‘z ostiga olib qo‘yganing bormi?” deb so‘raydi. Yigit biror qizni tanlaganini aytsa, bu xonadon yigit xonadoniga mos yoki mos emasligi muhokama qilinib, ma‘qul deb topilgan holda shu xonadonga sovchilikka boriladi.

Toshkent shahrida qiz tanlashda odatda yigitning ayol qarindoshlari turli joylardan qiz to‘g‘risida ma‘lumotlarni surishtirib, qaysi xonadonda ularga mos qiz borligini aniqlab, shu xonadonga kirishadi va surishtirish boshlanadi. Boshqa hududlarda esa oldindan mo‘ljallangan xonadonga borish odat tusiga kirgan.

Ikki tomon (qiz va yigit tomoni) bir-biriga ma‘qul bo‘lgandan keyin yigit va qizning uchrashuvi tashkil etilib, ularning roziligi olinadi. Keyingi paytda Toshkent shahrida qizning otasi yoki erkak qarindoshlaridan biri

yigit bilan uchrashib, suhbatlashishi ham rasm bo‘lgan. Hamma rozi bo‘lgandan keyin qizning uyiga sovchilikka (ba’zi hududlarda erkaklar, ba’zi hududlarda ayollar) boriladi va “non sindirish” yoki “oq o‘rash” marosimi o‘tkazilib, fотиha to‘yi belgilanadi. Marosim paytida ikkita nonni qo‘shib sindirish, qiz tomonga oq ro‘mol taqdim etish ikki tomonning rozilik alomati hisoblanadi. Sovchilar qiz xonadoniga kirib kelishida “qulchilikka keldik” degan ibora bilan kirishadi, bu – shu xonadondagi qizni kelin qilib olish ma’nosini bildiradi.

“**Fотиha to‘yi**” – qizning qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla va qarindoshlariga qizning unashtirilganligini ma’lum qilish maqsadida o‘tkaziladi va “bo‘xcha”, ya’ni qizga atalgan narsalar (kiyim-kechak va taqinchoqlar) qiz tomonga taqdim etiladi. Odatda, fотиha to‘yiga ketadigan xarajatlar yigit tomonidan qoplanadi. O‘zbekistonning turli joylarida bu marosim turlicha ko‘lamda o‘tkaziladi. Masalan, Samarqand shahrida bu tadbir juda katta miqyosda o‘tkazilib, olib kelingan buyumlar yoyib qo‘yiladi va kim qaysi buyumni sovg‘a qilganligi ham e’lon qilinadi. Fотиha to‘yi kuni nikoh to‘yining muddati va xarajatlar aniqlanadi. Yigit tomonidan “qalin puli” (Toshkenda “sut haqi deyiladi) beriladi. “Qalin puli” miqdori turli hududlarda turlicha bo‘lib, Xorazmda beriladigan qalin puli eng katta hisoblanadi. Boshqa hududlarda nisbatan kam to‘lanadi yoki qiz tomon olib kelishi lozim bo‘lgan biror buyum (masalan shkaf, jovon yoki boshqa mebel) yigit tomonidan sotib olinishi bilan ham belgilanishi mumkin.

**Nikoh to‘yi** o‘tadigan kuni rasmiy va shar’iy nikoh marosimi tashkil etiladi. Shar’iy nikoh – mulla tomonidan o‘qilib, diniy nuqtai-nazardan shu vaqtdan boshlab qiz va yigit er-xotin hisoblanishini bildiradi. Rasmiy nikoh – shu hududdagi tegishli rasmiy idorada yigit va qizni “er va xotin” deb qayd etish uchun tashkil etiladi. Nikoh qaydnomasini topshirish tantanali ravishda rasmiy idorada yoki nikoh to‘yi marosimi tarkibida o‘tadi.

Nikoh to‘yi xonadonlarning iqtisodiy imkoniyatlari va shu hududda qabul qilingan qoidalarga qarab juda katta yoki nisbatan kichikroq o‘tkazilishi mumkin. Nikoh to‘yiga yigit va qiz tomonidan mehmonlar taklif etiladi. To‘y marosimi tugagandan keyin qiz yigitning uyiga kuzatiladi. Unga qizning onasi va yaqin ayol qarindoshlari hamroh bo‘ladi.

To‘ydan keyingi qismda: **bet ochar (yuz ochdi), kuyov oshi, charlar, quda chaqiriq** o‘tkaziladi.

To‘yning ertasi kuni ertalab “bet ochar” yoki “yuz ochdi” deb nomlanadigan marosim o‘tkaziladi. Bu marosimda kelin boshiga yopilgan katta ro‘mol olib tashlanib, u shu xonadon egalari va qarindoshlariga “salom soladi” (egilib ta’zim qiladi). Kimga salom berishni kelinning yonida turgan

ayol belgilab, she'riy tarzda e'lon qilib turadi va salom berilgan qarindoshlar kelinga "ko'rmana" (o'zlarining sovg'asi)ni berib kelinning boshini silaydi, kelin tomonidan o'z navbatida kichik sovg'alar beriladi. Toshkent shahridagi to'ylarda kelin salom bevosita nikox to'yi kuni, to'yxonaning o'zida o'tkazilishi rasm bo'lgan.

Shu kuni yigitning o'rtoqlari biror choyxonaga yig'ilib "kuyov oshi" tashkil etiladi va yigitning kuyov bo'lganligining isboti sifatida osh pishirib yeyiladi.

To'ydan keyin tomonlar kelishib belgilagan muddatda "charlar" (qizning o'z ota-onasi xonadoniga tashrifi) marosimi o'tkaziladi. Bunda kelinning qaynonasi boshchiligidagi qarindoshlar kelinni olib quda tomonga borishadi. U yerda katta ziyofat beriladi va har ikki tomonning ayollari bir-birlari bilan tanishadilar.

Erkaklarning tanishuvi "**quda chaqiriq**" nomli marosimlarda amalga oshiriladi. Avval bir tomonga ikkinchi tomon erkaklari chaqirilib, keyin ikkinchi tomonga ham xuddi shunday chaqiriq uyushtirilib, ziyofat beriladi va ikki tomon erkaklari tanishib oladilar.

## 2.9. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar deganda biz an'anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o'rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sartaroshlik, an'anaviy tabobat, imoratsozlik, miroblik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, pazandachilik san'ati kabilarni tushunamiz<sup>1</sup>.

Ma'lumki qadim zamonlardan buyon Sharq xususan O'rta osiyo xalqlari hayotida suv va namgarchilikni qadrlash alohida o'rin tutgan. Chunki dehqonlar uchun xosildorlikni yaxshi bo'lishi, chorvadorlar uchun yaylovlarda o't-o'lanlarni o'sishi, ular hayotining to'kin sochin bo'lishini ta'minlagan albatta, bularning barchasi ob-havoning qanday kelishiga bog'liq bo'lgan. Bu esa asrlar davomida O'rta osiyo xalqlarida suv va namgarchilik bilan bog'liq turli urf-odat va marosimlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

---

<sup>1</sup> Ў.Тошматов, Н.Исакулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари (монография). Тошкент, 2015 й.



Suv va namgarchilik bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda yer, suv va xosildorlikning xudosi deb «Anaxita» talqin qilingan. Unda: «Anaxita doimo go‘zal baquvvat, xushqomat, kamarini baland bog‘lagan, oltin ziynatli ko‘p burmali mursak kiygan bir qiz sifatida ta‘riflanadi». Zardo‘shiylik davrida unga atalgan gimnlar, qasrlar va haykallar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, ayrim manbalarda ko‘rsatilishiga unga atab xatto odamlar ham qurbon qilingan. Ko‘pchilik manbalarda Anaxita Osmon suvlari ya‘ni bulut va yog‘ingarchiliklar xudosi deb talqin qilinsa, ayrim mualliflar uni yerdagi oqin suvlarining kulti bilan bog‘lashadi. O‘rta Osiyoda Anaxita kulti bilan birga er xubbi yoki Xubbi kulti ham mavjud bo‘lib, ushbu kult haqida mualliflar tomonidan ko‘plab afsona va rivoyatlar qayd etilgan. Ko‘pchilik olimlarning ushbu kult islomga mavjud bo‘lganligini qayd etadi. Bu haqda akademik Y.G‘ulomov quyidagilarni yozadi: «Tabiiyki islom dini yoyilgandan so‘ng ham xalq islomgacha bo‘lgan suv xudosi Xubbi haqidagi afsonani saqlab qoldi natijada u musulmon agiografik adabiyotiga kirib keldi». Yuqorida keltirilgan har ikkala kult haqida folklorshunos B.Sarimsoqov hamda U.Jumanazarovlar o‘z izlanishlarida qimmatli ma‘lumotlarni keltiradilar. Xubbi kultiga sig‘inish O‘rta Osiyoning deyarli barcha xududlarida, xususan Farg‘ona vodiysida ham uchraydi. Vodiyning So‘x tumani dehqonlari erta baxorda ariqlarga suv ochishdan oldin daryo bo‘yida turli jonliqlar so‘yib Er Xubbi kultiga atab qurbonliq qilishgan bu yerda er xubbini «yigit xubbi» deb atashgan. Daryo va soy bo‘ylarida qurbonliklar keltirish O‘rta Osiyoning boshqa xududlarida ham mavjud bo‘lgan. Yuqoridagilardan tashqari O‘rta Osiyo xalqlarida yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq turli urf-odat marosimlar ham mavjud bo‘lgan. Ushbu marosimlar turli joylarda turlicha shaklda va har-xil nomlar bilan qayd etiladi. Chunonchi bunday marosimlar Qashqadaryo viloyatida «**Suz xotin**», «**Chayla qozoq**», Surxondaryoda «**Bo‘z xotin**», «**Sust xotin**», Zarafshon voxasida «**Sus xotin**», Turkistonda «**Choy momo**», Buxoroda viloyati qishloqlarida «**Chayla xotin**», «**Ko‘sam-ko‘sam**», «**Sur xotin**», nomlari bilan atalib, ushbu marosimlardan maqsad, yomg‘ir chaqirish bo‘lgan. Ushbu marosimlar haqida M.Jo‘rayev izlanishlarida qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi. Yuqoridagi yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosimlar O‘rta Osiyoning ko‘plab xududlarida mavjud bo‘lsada, ayrim dehqonchilik xududlari, masalan Farg‘ona vodiysida kamroq uchraydi. Bu yerda yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq turli ko‘rinishdagi o‘ziga xos bo‘lgan udumlar mavjud bo‘lgan.

Masalan vodiyning So‘x tumanida yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosim mavjud bo‘lib uni maxalliy xalq «**tarishkunok**» deb atagan. Unga ko‘ra qurg‘oqchilik bo‘lib uzoq vaqt yog‘ingarchilik bo‘lmasa, qishloq erkaklari yarim yalang‘och xolda ko‘chaga chiqishgan va bir birini ustidan suv quyishgan hamda biror kishini ko‘proq qishloq imomini yoki mullani ariqqa tashlashgan. Shu kunlari qishloq erkaklari xoxlagan xonadoniga mexmonga kirishgan, xonadonlarda esa ularni faqat shu marosimda pishiriladigan «kashki chavari» deb nomlangan chalpak bilan mexmon qilishgan. Vodiyning Quva tumanida esa qurg‘oqchilik yillari qishloq axolisi Olloxdan yomg‘ir so‘rab xayri xudoyilar o‘tkazganlar. Ushbu xudoyilar odatdagi xudoyilardan shunisi bilan farq qilganki unda qatnashayotgan oqsoqollar soni yetti yoki o‘n yetti kishi bo‘lishi shart bo‘lgan.

Vodiyning tog‘oldi tumanlaridan bo‘lgan Farg‘ona tumanida esa, qurg‘oqchilik yillari dehqonlar turli xayri-xudoyilar o‘tkazish bilan birga, o‘z ekin maydonlari chetlariga qurbaqalarni tutib kelib osib qo‘yishgan. Dehqonlar qurbaqa yomg‘ir chaqiradi deb ishonishgan.

Hozirda ham «vodiya qurbaqani o‘ldirgan odamning to‘yida yomg‘ir yog‘adi»-degan tushuncha saqlanib qolgan. Qurbaqa obrazining yog‘ingarchilik bilan bog‘liqligi to‘g‘risida dunyo xalqlarining ko‘pchiligida turli talqinlar uchraydi. O‘rta Osiyoda ham qurbaqaning nargarchilik timsoli sifatida talqin qilinganligini L.I.Rempel tasdiqlab quyidagilarni yozadi «O‘rta Osiyo xalqlarining san‘atida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomg‘ir ifodasi, baxt va omad timsoli, bamisoli tumor sifatida foydalanilgan». Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq rasm rusumlar O‘rta Osiyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo‘lgan. Xususan turkmanlarda yomg‘ir chaqirishda «Burkut baba» obraziga sig‘inilib, unga yomg‘ir piri sifatida qaralgan va u haqda turli rivoyatlar to‘qilgan. O‘rta Osiyoning ayrim dehqonchilik xududlarida esa yomg‘ir chaqirishning g‘ayri oddiy usullari mavjud bo‘lgan. Masalan Tojikistonning Vaxan-Ishkashim kabi tumanlarida suvga o‘lgan odamning bosh chanog‘i qo‘yilsa yomg‘ir yog‘adi deb ishonilgan. Bizga ma‘lumki qadimda turkiy qavmlar orasida «Yada» toshi vositasida ham duo o‘qib yomg‘ir chaqirish udum bo‘lgan. «Yada» atamasi ko‘pchilik olimlarning e‘tiroficha Avestoda keltirilgan «yadu» (yoki «yatu») ya‘ni «sehr jodu» so‘zi bilan bog‘liqdir. «Yada» atamasi bilan bog‘liq tushunchalarni qadimiy sharq yozma manbalarida uchratish mumkin. jumladan, Xitoy sayyohi Si Yuy Vindzyan-lu «yada» toshi haqida ma‘lumot berib, ushbu toshni oq, qora, kulrang ko‘k, yashil va sariq ranglarda bo‘lishini ta‘kidlaydi. «Yada» toshi haqida ma‘lumotlarni biz X asrda yashagan arab geografi Ibn al-Faqihning «Kitob axbor al buldon»

(mamlakatlar haqida axborotlar kitobi) asarida, Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» nomli mashhur ishida hamda XV asrda yashab ijod qilgan tarixchi Rashiuddin asarlarida uchramiz. Abu Rayxon Beruniy ham o‘zining «Minerologiya» asarida «yada» toshi haqida ma‘lumot berib, ushbu tosh turkiy xalqlar orasida nafaqat yomg‘ir chaqiruvchi, balki g‘alaba va omad keltiruvchi tosh sifatida ham badrlanganligini yozgan edi. Uning ta‘kidlashicha, ushbu toshdan o‘sha davrning shox va sarkardalarining bilich, uzuk va boshqa buyumlarini ziynatlashda foydalanilgan. Ilohiy budratga ega bo‘lgan «yada» toshi haqidagi ma‘lumotlarni badimiy dostonlardan ham topish mumkin. Jumladan, qirg‘iz xalqining «Manas» eposida «yada» toshi haqida afsona mavjud bo‘lib ushbu asarda u «djay tash» deb atalgan. Bundan tashqari, «yada» toshi haqidagi ma‘lumotlar Oltoy xalqlarining «Anoss to‘plamlari» (Anoskiy sbornik) deb nom olgan folklor asarlarida «sata» nomi bilan atalib, u iloxiylashtirilgan. Oltoy xalqlari ushbu ilohiy toshning kuchi nihoyatda ulug‘vorligiga ishonganlar, hatto ular «sata» toshi quyosh nurini ham «sindiruvchi» kuchga ega deb bilganlar. S.YE.Malovning yozishicha, XIX asr oxirlarida sharqiy Turkistonda bir «yada»chilik bilan shug‘ullanuvchi mulla, ayni hosil yig‘im terimi davrida yomg‘ir chaqirganlikda ayblanib, qattiq jazolangan. Bundan tashqari S.YE.Malovning ta‘kidlashicha turkiy qavmlarda ushbu toshdan nafaqat yomg‘ir chaqirish, balki boshqa maqsadlarda ham foydalanilgan. «Yada» toshi haqida o‘zbek elshunos olim K.Shoniyozov hamda M.Jo‘rayevlar o‘z ishlarida ma‘lumotlar keltirib o‘tadilar. K.Shoniyozovning yada toshini qadimdan turkiy xalqlarning turmush tarzida muhim o‘rin tutganini va u haqda ilk o‘rta asr yozma manbalarida ham ko‘plab ma‘lumotlar uchrashini ta‘kidlaydi. M.Jo‘rayevning yozishicha, qadimda har bir turkiy qavmning o‘z yadachasi bo‘lgan va yomg‘ir chaqirish uchun yada toshiga qush yoki hayvon qoni surtilib afsun o‘qilgan.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, O‘rta Osiyoda suv va namgarchilik bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘libgina qolmay, balki O‘rta Osiyo xalqlarining ma‘naviy merosini ajralmas va bebaxo durdona sifatida boyitadi. Ushbu marosimlarni o‘rganish esa tariximizni yanada boyitishiga shubxa yo‘q.

**An’anaviy tabobat** zamonaviy meditsina paydo bo‘lgangacha davrda insonlarning organizmida paydo bo‘ladigan turli jismoniy va ruhiy kasalliklarga qarshi kurashish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Zamonaviy meditsina tatbiq etilgandan keyin ham O‘zbekiston aholisining juda ko‘p qismi an’anaviy tabobatga murojaat etib keladi.

An'anaviy tabobatning ayrim sirlari oddiy odamlar tomonidan ajdodlardan avlodlarga uzatilib, oila a'zolarini mustaqil davolashga xizmat qilgan bo'lsa, ayrim sirlari faqat shu soha bilan chuqur va muntazam shug'ullanib kelgan kishilargagina ma'lum bo'lgan. Masalan, og'iz bo'shlig'iga yara toshib ketishi (xalq tilida "og'iz uvilishi", zamonaviy meditsinada "stomatit" deyiladi)ni oilada doim bo'ladigan achchiq tosh bilan og'izni chayish orqali davolangan bo'lsa, suyak sinishini faqat "siniqchilar" davolaganlar.

Insonlardagi jismoniy kasalliklarning aksariyati dorivor o'tlar, qo'l bilan uqalash orqali davolangan holda, ruhi kasalliklarning aksariyati duo o'qish va ruhiy ta'sir o'tkazish orqali davolangan.

An'anaviy tabobatning hozirgi ahvoli har tomonlama o'rganilmagan. An'anaviy tabobat bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ta'biricha, zamonaviy meditsina kasallik natijasida organizmda paydo bo'lgan og'riq joyining o'zini davolaydi (masalan, qo'lga yara chiqsa yarani davolaydi), an'anaviy meditsina esa uning sababini topib kasallikning ildizini davolaydi va shu bilan kasallik qo'zg'alishining ham oldini oladi. An'anaviy tabobat sirlari asosan oila ichida (juda kam hollarda begonalarga) keyingi avlodga uzatiladi. An'anaviy tabobatning juda katta sirlari Abu Ali ibn Sino tomonidan "Tib qonunlari" risolasida yozib qoldirilgan.

An'anaviy tabobatda bir xil kasallikni turli yo'llar va vositalar bilan davolash amaliyoti ham uchraydi. Bunda tabib (an'anaviy tabobat bilan shug'ullanuvchilar shunday ataladi) o'zi o'rgangan uslubdan foydalanadi.

Aslida, an'anaviy tabobatda deyarli barcha kasalliklarga qarshi davo uslublari mavjud. Davolash jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etish tabibning mahorati va tajribasiga bog'liq. Masalan, Toshkentdagi Xonobod qishloq fuqarolar yig'ini "Yangi turmush" mahallasida yashovchi Karimshayx Usmonshayxov ismli tabib "spid" kasalligini ham davolagan, degan ma'lumotlar internet saytida e'lon qilingan.

## **2.10. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar**

An'anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar misolida zardo'zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, do'ppido'zlik, qo'g'irchoqsozlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi,

mayolika san'ati va hunarmandchilikning boshqa yo'nalish va turlariga oid tajriba, bilim va ko'nikmalarni kuzatishimiz mumkin bo'ladi<sup>2</sup>.

**Zardo'zlik-bezak** san'ati turi; amaliy san'atning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi. To'rtburchak chambarakka (korcho'pga) o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqalar matolarga zardo'zi usulida kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtaga ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi. Shakllarni yaratishda zardo'zi, zamindo'zi, guldo'zi, birishido'zi, pulakdo'zi kabi turli usullardan foydalanishadi. Turli choklarning mohirona ishlatilishi va ularning naqshlar bilan hamohangligi zardo'zlik mollariga joziba va go'zallik bahsh etadi, ularning badiiy qiymatini oshiradi va bu ustaning didi va mohirligi bilan bog'liqdir. Ushbu kasbda qo'llaniladigan o'simlik va handasa naqshlari orasida eng go'zallari deb davqur, darham, donacha, bodomiy, butador va boshqalar hisoblanadi.

**Kandakorlik** - amaliy san'at turi; o'ymakorlikning metall buyumlarni o'yib, chizib naqsh, tasvir ishlash soxasi. Buyumlarni bezashda kandakori (o'yib, kesib), qolipaki (qolip yordamida), simkori (simdan foydalanib), shuningdek, buyumlarning qismlari (qopqoq, dasta va b.) va ikki qavatli buyumlarni bezashda shabaka (panjarali qilib ishlash) usullari qo'llaniladi, an'anaviy o'simliksimon (islmiy) va xandasiy (girix) naqshlardan mujassamotlar yaratiladi. Naqsh yoki tasvir zamini po'lat qalam yoki asboblardan yordamida chuqur yoki sayoz o'yiladi, zamin sayoz o'yilganda rangli loklar bilan bo'yaladi, pardoatlanadi, chekma, o'yma, katak, parallel kesma chiziqlar bilan jilo beriladi. 1930-yillardan metal sirtiga kimyoviy moddalar ta'sir ettirib naqsh, tasvir yaratish usuli ham (ilk bor Toshkent badiiy o'quv i.ch. k-tida) qo'llanila boshladi. Toshkent kabi yirik shaharlarda kandakorlik markazlari bo'lgan.

XX asrning 20-yillaridan ustalar artellarga uyushtirildi. Kandakorlik sexlarida ijod qila boshlagan ustalar turli maktablarning an'analari, usullaridan foydalanib badiiy buyumlar (choydish, mis ko'za, mis lagan, satil oftoba, dashho'y, qumg'on va boshqalar tayyorlay boshladilar. 60-yillar boshlarida artellar tugatilib, mahalliy xizmat qo'mitalari kandakorlik buyumlarini ishlab chiqardilar.

**Do'ppido'zlik** - do'ppi Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston hududida) milliy libos elementiga aylangan.

<sup>2</sup> Ў.Тошматов, Н.Исакулова. Номоддий маданий меросни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари (монография). Тошкент, 2015 й.

Boshqa xalqlar do‘ppilaridan o‘zbek do‘ppilari o‘ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi.

Do‘ppi uch qismdan – tepa (aylana va to‘rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan, do‘ppi respublikamizning turli joylarida turlicha bezatiladi; qismlari birlashtirilgan turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Kashta tikib bezatilgan bo‘laklar kizakka astar yopishtirilib mayda nozik chokda qaviladi, qaviqlar orasiga paxta yoki qog‘ozdan pilta qo‘yiladi. So‘ng tayyor bo‘laklar bir-biriga ulanadi. Do‘ppido‘zlik bilan asosan ayollar shug‘ullanadi.

XX asrning 20- yillaridan hunarmand ustalar artellarga birlashtirildi, keyinchalik fabrikalarda mehnat qila boshladilar. Xonadonlardan tashqari do‘ppido‘zlik hozirda Buxorodagi “Zardo‘z” aksiyadorlik jamiyatida, Toshkentdagi “Sharq guli” fabrikasida, Chustdagi korxonalarda va boshqa joylarda yo‘lga qo‘yilgan.

**Kulolchilik** – hunarmandchilikning loydan (gildan) turli buyumlar (terrotika, sopol idish, qurilish materiallari va boshqalar) tayyorlaydigan turi. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo‘lgan tuproqlardan turli xil kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi.

Kulolchilik bilan insonlar neolit davrida shug‘ullana boshlaganlar. Hozirgi kunga kelib kulolchilikning turlari rivojlanib, ko‘payib bordi. Kulolchilikning shakli va tayyorlanish usullariga ko‘ra O‘zbekistonda quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg‘ona (asosiy markazlari – Rishton, G‘urumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari – Samarqand, Urgut, G‘ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari – Madir, Kattabog‘ qishloqlari), Toshkent. Har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o‘zigagina xos xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Mazkur maktablar R.Zuhurov (Denov), M.Turopov (G‘urumsaroy), I.Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G‘ijduvon), Namoz va No‘mon Obloqulovlar (Urgut), R.Matchonov (Xorazm), A.Rahimov (Toshkent) kabi ustalar ijodi bilan mashhur. Dekorativ-amaliy san‘atning ushbu turi har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda va targ‘ib etilmoqda, uning yanada rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilmoqda.

**O‘ymakorlik** – amaliy san‘atning qadimiy va keng tarqalgan turi; yog‘och, ganch, metall, tosh, suyak, terrakota va boshqalarni o‘yish, yo‘nish, kesish yo‘li bilan badiiy shakl yasash san‘ati. Buyumlar, turli asboblarni nafislashtirishda, binolarni bezashda, kichik shaklli haykaltaroshlik kompozitsiyalari yaratishda keng qo‘llaniladi. O‘ymakorlikning mustaqil

janri gliptika; foydalanadigan xom ashyosiga ko‘ra yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi, metall o‘ymakorligi (kandakorlik), suyak o‘ymakorligi kabi turlari bor.

O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston hududida o‘ymakorlik juda qadimdan rivojlangan. Ibtidoiy odamlar yog‘och, suyak, hayvon shoxlaridan o‘zlari uchun zarur qurollar yaratib, ularni “bezashgan”, turli ramziy chiziq va belgilar ishlashgan, toshlarga rasmlar chizishgan (qoyatosh rasmlari). O‘zbekistonning janubidagi Oqtom va Quyi Mozordan topilgan hayvon shoxi hamda suyak bo‘lagiga chizib ishlangan tasvirlar mil. av. 5-6-asrlarga oid yog‘och o‘ymakorligi namunalari saqlangan. Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom poydevorlari marmar, toshdan ishlanib o‘ymakorlik bilan bezatilgan yodgorlik namunasidir.

O‘rta Osiyoda o‘ymakorlik 3 yo‘nalishda mavjud bo‘lgan: naqsh o‘ymakorligi, mavzuli (odam va hayvon tasviri ishlangan) o‘ymakorlik hamda naqsh va mavzuli o‘ymakorlik uyg‘unligidagi murakkab kompozitsiyalar.

18-19-asrlarda o‘ymakorlikning o‘ziga xos maktablari rivojlandi, biri-biridan jozibador san’at namunalari yuzaga keldi. O‘ymakorlik uslubiy rang-baranglikka xizmat qildi. 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida Xiva (O. Polvonov, S. Bog‘bekov), Buxoro (Usta Shirin Murodov, A. Boltayev), Qo‘qon (Haydar Najmiddinov va uning o‘g‘li Q. Haydarov) va boshqa shaharlarda mohir, qo‘li gul ustalar yetishib chiqdi, ular Xudoyorxon o‘rdasi, Knyaz Romanov saroyi, Kalontarov uyi, Sitorai Mohi Xosa kabi me‘moriy yodgorliklarni mahorat bilan bezadi.

20-asrda o‘ymakorlik yangi mazmun va shakllar bilan boyidi, mintaqalardagi mahalliy xususiyatlar bir-biri bilan uyg‘unlashib ajoyib mujassamotlar yaratildi (Navoiy teatri, Muqimiy teatri, Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi va b.).

O‘zbekiston hududida asosan to‘rtta yog‘och o‘ymakorligi maktablari mavjud bo‘lib, ular o‘z uslublari va yo‘nalishlari bilan farqlanadi:

- Xiva yog‘och o‘ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Bog‘bekovlarning ijodiy faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu maktab o‘ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o‘yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o‘ynoqiligi, ya‘ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

- Samarqand yog‘och o‘ymakorligi maktabida esa o‘ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o‘simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko‘p ishlatilishi bilan hamda o‘yma yuzasining

ranglanishi ajralib turadi. Ijodkor ustalar Akduxofiz Jalilov, Asatillo, Nurilla Narzullayevlardir.

- Toshkent o‘ymakorligi maktabining yirik namoyondalaridan Sulaymon Xo‘jayev, Maqsud Qosimov va Ortiq Fayzullayevlardir. Toshkent maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o‘ymasining ko‘p qavatligi, o‘rtacha chuqurlikda o‘yilib, islmiy, geometrik, ramziy naqshlar ko‘proq ishlatiladi.

4. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi ham o‘ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalardan Haydar Najmiddinov va Qodirjon Haydarovlardir. Bu maktab o‘ymakorligining mahobatligi, yirikligi, o‘ymalarning chuqurligi va ko‘p qavatligi bilan farqlanib turadi.

**Kashtachilik** – kashta tikish kasbi, amaliy san’atning qadimgi sohalaridan biri. Arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadimdanligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda har bir xalqning madaniyati, san’ati, kasb-hunar turlari bilan birga ularning ta’sirida rivoj topganini ko‘rsatadi. Kashtaning paydo bo‘lishi teridan qilingan kiyimlarda bog‘lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq.

Kashta qo‘lda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, matoda (bo‘z, satin, chit, shoyi, baxmal va boshqa) va charm (etik, mahsi, pichoq, va boshqa) tikiladi. Kashta mujassamotida o‘simliksimon naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlari, keyinroq kishilarning qiyofalari, me’moriy obidalar ham o‘z ifodasini topgan. Kashta tikish turli choklardan matoga avvaldan andaza yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, ba’zan matoga iplari sug‘urilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda jun, ip, ipak, zig‘ir tolali tabiiy va sun‘iy (sintetik) tolalardan, metallardan (tilla, kumush) tayyorlangan iplardan foydalaniladi. Shuningdek, dur, nozik, piston, ba’zan qimmatbaho tosh va tangalar keng ishlatiladi. Mato, mo‘yna, charmlardan quroq tikishda kashtadan foydalaniladi.

Kashta buyumlar (palak, so‘zana, choyshab, gulko‘rpa, kirpech, dorpech, zardevor) kiyimlar (ko‘ylak, do‘ppi, nimcha, peshonaband, kamar) turmushda keng ishlatiladi. Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o‘zbek kashtado‘zlarining katta san’atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand kashtado‘zlik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko‘proq bosma chok bilan tikilgan.

**Quroq** - mayda bo‘laklardan ulab, to‘plab bezak yaratish; shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi



mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Quroqchilik amaliy san'atda keng tarqalgan bo'lib, ko'rpa, ko'rpacha, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlar qadimda shu usulda tayyorlanib, ajoyib san'at namunalari yaratilgan.

**Gilamchilik** – tabiiy (hayvon juni, o'simlik tolasi) va sun'iy toladan turli xildagi gilamlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog'i. Gilamchilik badiiy hunarmandlik sohasi sifatida turli davlatlarda o'ziga xos shaklda rivojlanib kelgan.

Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa Turkmanistonda keng rivojlangan. Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat talab qiladi. Patli gilamlarni to'qish ayniqsa murakkab. Qo'lda to'qilgan gilam pati, naqsh mujassamoti asos ipiga rangli iplardan tugib bandlar hosil qilib yaratiladi. Tugun uchi matoning yuz tomoniga chiqarib tekis qirqiladi. Har bir qatordan so'ng arqoq ip o'tkazib maxsus temir taroqda urib avvalgisiga mahkamlanadi. Tayyor gilam maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Gilamlar turli hajmlarda tayyorlanadi. O'rta Osiyo gilamlari uchun xos bo'lgan, naqshning aniqligi, go'zal bo'lishi va ranglarning uyg'unligi ularning badiiy qiymatini oshirgan.

Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to'qigan o'tov jihozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo'ladi. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs ("ayiq teri") gilami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

**Qo'g'irchoqsozlik** – xalq amaliy san'ati hamda san'atning boshqa turlari singari insonlarning tabiatni, yon atrofni, borliqni kuzatishlari, undan xayratlanishlari yoki qo'rqishlari, zavqlanishlari asosida tug'ilgan. Respublikamiz hududida olib borilgan qazishmalar vaqtida topilgan odamlarning yoki hayvonlarning, fantastik-xayoliy jonzotlarning loydan ishlangan kichkina haykalchalari bunga misol bo'lishi mumkin. O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar asosan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishgan va ularning san'ati shu turmush tarzi bilan bog'lik bo'lgan. Bir vaqtlar diniy xarakterdagi Ashshadarozi (Xorazm viloyati), Suv Xotin (Surxondaryo viloyati) totem yoki ma'buda Anaxita ko'rinishlari vaqt o'tishi bilan katta hajmdagi marosim qo'g'irchoqlariga aylangan. Halkimiz azaldan bolajon xalq bo'lgan. Bolalar uchun esa ovunchoq qo'g'irchoklar kerak bo'lgan. Qo'y, Qo'chqor, o'rdak, g'oz, xo'roz, baliq, chig'anoq shaklidagi xushtaklar ham ovunchoq ham didaktik o'yinchoq vazifasini bajargan. Osiyo xalqlarida arusaksoz, qo'g'irchoqsoz, kurjokchi kabi kasb egalari mahalliy xom ashyodan diniy, marosim yoki ovunchoq maqsadida uyinchoq-qo'g'irchoqlar yasashgan va ular Buyuk Ipak Yuli orqali kup

xalqlarga tarqalgan. Mahalliy xom ashyo deganda tuproq-loy, yog‘och, qamish, mato, jun, qamish, suyak kabi materiallar nazarda tutilmoqda. Afsuski, davrlar aro sinalgan eng mustahkam xom ashyo bu olovda pishirilgan loy -keramika sopol bo‘lib chiqdi. Chunki aynan sopol qo‘g‘irchoq-o‘yinchoqlargina biz kadimiy ajdodlarimizdan yetib kelgan xolos. Muzeylarda saqlanayotgan aravaga qo‘shilgan ot xaykalchasi, ajdarho ko‘rinishi haykalchasi shular jumlasidandir. Loy sopoldan ishlangan o‘yinchoqlar an‘anasini o‘tgan asrda Buxorolik Xamro buvi saqlab qolib, uz jiyanlariga o‘rgatib ketgan. Bugungi kunda ushbu an‘anani Kubaro aya davom ettirib kelmokda.

Mustaqillik tufayligina ushbu madaniyat, san‘atimizning bir ko‘rinishi milliy qadriyatimiz hisoblangan, yo‘qolib ketgan qo‘g‘irchoqsozlik san‘ati qayta tiklana boshlandi. Buxoroda, vodiya, Toshkentda loydan ishlangan qo‘g‘irchoqlarga e‘tibor berilgan bo‘lsa, boshqa mahalliy xom ashyolardan tayyorlangan maishiy xarakterdagi, sovg‘abop qo‘g‘irchoqlar Xorazm viloyatida Kuryazov Mansur rahbarligidagi bir guruh tashabbuskor ijodkorlar tomonidan tayyorlana boshlandi.

**Ganchkorlik** – badiiy hunarmandlik turi; amaliy san‘atning ganchda ishlash bilan bog‘liq sohasi. Binolarni bezatishda, me‘moriy detallar ishlashda, devor va shiftlarni suvashda, bezak shakllari hamda o‘yma naqsh va tasvirlar yaratishda keng qo‘llaniladi. Ganchkorlikda bezak ikki usulda bajariladi: o‘ymakori usulida bino devori ganch suvoq qilinib, bezatiladigan qismiga naqsh ishlanadi. Qolipaki usulida tayyor bezak ganch taxtalarida bezatiladigan sirtga o‘rnatiladi. Qolipaki usuli bezakni birdaniga ko‘p miqdorda tayyorlash imkonini beradi. Hozir korxonalarda qoliplar yordamida ko‘p nusxada tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston hududida ganchning mo‘lligi hamda unda ishlashning qulayligi ganchkorlikni qadimdan maxsus kasb sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Soha mahobatli binolar qurilishi, umuman me‘morlik, amaliy va tasviriy san‘at rivoji bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Qadimdan tosh, g‘isht, sopol, yog‘och bilan bir qatorda ganchdan ham keng foydalanilgan; o‘yma naqsh va tasvir ishlashga qulayligi esa ganch o‘ymakorligini rivojlantirgan.

#### *Nazorat savollari*

1. *NMM Konvensiyasi O‘zbekistonda qachon ratifikatsiya qilingan?*
2. *O‘zbekiston qachondan NMM Konvensiyasining ishtirokchisiga aylandi?*

3. *O'zbekistonda NMM muhofazasi bilan bog'liq Davlat dasturi qachon qabul qilingan?*
4. *Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar qachon tasdiqlangan?*
5. *Qonunchilikka NMM bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar qachon kiritilgan?*
6. *O'zbekistonda NMMning nechta ro'yxati yuritilishi belgilangan?*
7. *Ro'yxatlar kim tomonidan tasdiqlanadi?*
8. *Ro'yxatlarni yuritish tartibi qaysi hujjatda belgilangan?*
9. *Tarixiy-madaniy ekspertiza kim tomonidan o'tkaziladi?*
10. *Davlat dasturi nechta banddan iborat?*

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Madaniyat sohasiga oid meyoriy hujjatlar to'plami. O'z.R.Madaniyat va sport ishlari vazirligi, 2010 y.
2. List of Intangible Cultural Heritage in Need of Urgent Safeguarding. UNESCO, 2009.
3. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, 2014, Paris.
4. O'.Toshmatov, N.Isakulova. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (monografiya). Toshkent, 2015 y.
5. Osnovniye teksti Mejdunarodnoy konvensii ob oxrane nematerialnogo kulturnogo naslediY. YUNESKO, 2014 g.

### **3-mavzu: Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasini milliy darajada implementatsiya qilish. (2 soat)**

#### **Reja:**

- 3.1. YUNESKO va uning Konvensiyalari.
- 3.2. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati va bu borada amalga oshirilgan ishlar.
- 3.3. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining maqsad va vazifalari.
- 3.4. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining milliy darajada implementatsiyasini tashkil etuvchi asosiy hujjat.
- 3.5. Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq xalqaro loyihalar.

**Tayanch iboralar:** *BMT, YUNESKO, ishtirokchi davlat, Operativ yo‘riqnoma, Bosh assambleya, Hukumatlararo qo‘mita, Kotibiyat, Rerezentativ ro‘yxat, ratifikatsiya, nomoddiy madaniy meros sohalari, bilim va ko‘nikmalar, hamjamiyat, merosni o‘zida saqlovchilar, nodavlat-nohukumat tashkilotlari, Milliy dastur.*

#### **3.1. YUNESKO va uning Konvensiyalari**

YUNESKO (BMTning fan, ta‘lim va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti) 1946 yilda tashkil etilgan hukumatlararo xalqaro tashkilotdir. Hozirgi kunda u 195 ishtirokchi-davlatlarni birlashtirgan. Tashkilotning asosiy vazifasi tinchlikni saqlash, barqaror taraqqiyot, va madaniyatlararo dialogni tashkil etish, shuningdek, qashshoqlikka va turli tengsizliklarga qarshi kurashish ishlariga ta‘lim, fan, madaniyat va kommunikatsiyani safarbar etishdan iboratdir.

Konvensiya odatda, milliy va xalqaro miqyosda umumiy maqsadlarni amalga oshirish yo‘lidagi huquqiy hujjat bo‘lib, ushbu maqsadlarni amalga oshirish standartlari va uslublarini ham aks ettiradi. Ko‘ptomonlama konvensiyalar esa turli nuqtai-nazarlarni muvofiqlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lganligi sababli ularning qabul qilinishi uchun ko‘plab yillar talab etiladi.

YUNESKOning madaniyat va meros sohalorida (mualliflik huquqlarini ham hisobga olgan holda) yettita konvensiyasi mavjud bo‘lib, ular (a) moddiy, nomoddiy va tabiiy meros; (b) hozirgi kunda madaniy turfa xillikning namoyon bo‘lishi yo‘nalishlarida qabul qilingan:

- Madaniy o‘zlikni ifodalash turfa xilligi shakllarini muhofaza qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida Konvensiya (2005).

- Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida Konvensiya (2003 y.)<sup>3</sup>.
- Suv osti madaniy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida Konvensiya (2001 y.).
- Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida Konvensiya (1972 y.).
- Madaniy boyliklarning noqonuniy olib kirilishi, olib chiqilishini ta’qiqlash va mulk huquqlarining o‘tkazilishiga qaratilgan tadbirlar to‘g‘risida Konvensiya (1970 y.).
- Qurolli to‘qnashuvlar chog‘ida madaniy boyliklarni himoya qilish to‘g‘risida Konvensiya (1954 y.).
- Jahon mualliflik huquqlari to‘g‘risida Konvensiya (1952, 1971 yy.).

YUNESKOning madaniyat va meros bo‘yicha uch konvensiyasi madaniy turfa xillikni saqlashga munosib hissa qo‘shadigan hujjatlaridir va ular ma’lum ma’noda bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega.

1972 yilda qabul qilingan Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida Konvensiyasi (Jahon merosi Konvensiyasi nomi bilan ham yuritiladi)ning asosiy maqsadi buyuk va universal qimmatga ega bo‘lgan merosning muhofazasiga qaratilgan. Bu Konvensiyani YUNESKOning 194 a’zosidan 189 tasi ratifikatsiya qilgan bo‘lib, Butunjahon meros ro‘yxati mavjudligi sababli u YUNESKO konvensiyalarining eng taniqlisidir. 2003 yilda qabul qilingan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida Konvensiya (Nomoddiy meros Konvensiyasi deb ham yuritiladi) jahondagi hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarning nomoddiy madaniy merosini asrashga qaratilgan. 2020 yil aprel holatiga ko‘ra ushbu Konvensiyaning a’zolari ro‘yxatida 169 ta davlat mavjud. Bu Konvensiya Butunjahon merosi Konvensiyasidan farq qiladi, lekin uning yaratilishiga mazkur Konvensiyaning ta’siri seziladi.

Madaniy o‘zlikni ifodalash turfa xilligi shakllarini muhofaza qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida Konvensiya (2005 y.) ijodiy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash, kengaytirish orqali madaniy turfa xillikni rag‘batlantirishga qaratilgan. 2020 yil aprel holatiga ko‘ra ushbu Konvensiya a’zolarining ro‘yxati 141 ta davlatni tashkil etadi.

---

<sup>3</sup> Конвенциядаги «safeguarding» термини «saqlash» маъносини билдирсада, уни ўзбек тилида “муҳофаза қилиш” термини тўлароқ ифодалайди

### **3.2. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning zarurati va bu borada amalga oshirilgan ishlar.**

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish zarurati va buning uchun zarur mexanizmlarni yaratish to'g'risida munozaralar 1970 yillardan boshlanib, Boliviya tomonidan kiritilgan edi. 1989 yilda YUNESKO Folklorni saqlash bo'yicha Tavsiyalarni qabul qildi va Sharqiy Osiyo davlatlari tashabbusi bilan 1993 yilda Insoniyatning tirik durdonalari Dasturi boshlandi, buning natijasida 1998 yildan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e'lon qilish" ishlari boshlandi.

«Insoniyatning tirik durdonalari» va «Durdonalar» bo'yicha tavsiyalar va dasturlarda ekspertlar tomonidan kiritilgan va Jahon merosi Konvensiyasida qo'llanilgan butunjahon ahamiyatiga ega bo'lish prinsipi qat'iy tanqidga uchradi va Nomoddiy madaniy merosning muhofazasida hamjamiyatlar ishtirokini ta'minlash va iyerarxiyadan qochish masalasi ko'tarildi. Bunday yangi yondashuv Nomoddiy madaniy merosning buyukligi va ularni yetkazuvchilarning mahorat darajasiga emas, Nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarning avloddan-avlodga o'tkazilishini asosiy vazifa sifatida e'tirof etadi. 1990-yillarning oxirida yangi standartlashtiruvchi hujjat yaratish g'oyasi YUNESKOga a'zo davlatlar, ayniqsa Sharqiy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari tomonidan faol ilgari surildi. 2001 yilda YUNESKO tomonidan Kotibiyatga hukumatlararo uchrashuvni tashkil etish va bunda "xalqaro konvensiyaning dastlabki varianti" matni bo'yicha kelishuvga erishish bo'yicha topshiriq berildi. Keyinroq, 2002 yilning sentabridan 2003 yilning iyunigacha muddatda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Konvensiya tayyorlandi. U 2003 yilning oktabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasida qabul qilindi; tez orada uni ratifikatsiya qilish ishlari boshlandi, ishtirokchi-davlatlarning soni 30 taga yetgandan uch oy o'tganidan keyin, ya'ni 2006 yil 20 iyunidan u kuchga kirdi. Konvensiya taajjublanarli holda tez ratifikatsiya qilindi va 2012 yilning aprel oyi holatiga ko'ra uni YUNESKOga a'zo 193 davlatning 142 tasi (uchdan ikki qismidan ortig'i) ratifikatsiya qilib bo'lgan edi.

### **3.3. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining maqsad va vazifalari.**

Nomoddiy madaniy meros aksariyat hollarda moddiy meros hisoblangan joy, bino, predmetlar, xom ashyo, kiyimlar, asboblardan iborat.

bog‘liq, va o‘z navbatida moddiy meros ham uni yaratish bilan bog‘liq nomoddiy meros va amaliyot bilan bog‘liq bo‘ladi. Moddiy va nomoddiy merosning bundan qorishuvini inkor etmagan holda YUNESKOga a‘zo davlatlar tomonidan alohida Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha konvensiya yaratish taklifi ma‘qullandi. Buning asosiy sababini Jahon merosi konvensiyasiga kiritiladigan qo‘shimcha va o‘zgarishlar bilan Nomoddiy madaniy merosni muhofazasiga oid barcha tadbirlarni qamrab olish imkoniyatining chegaralanganligidan axtarish lozim. Shuningdek, moddiy meros bilan nomoddiy merosning hamjamiyatlar ishtirokidagi muhofazasi bir-biridan tubdan farq qiladi.

O‘z navbatida moddiy meros muhofazasida an’anaviy ravishda o‘tmish bilan bog‘liq predmetlar va binolarni saqlash masalasi asosiy o‘rin tutsa, nomoddiy merosda - tirik va hozirda mavjud bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni muhofaza qilish, namoyon etish va keyingi avlodga yetkazish masalalari muhim hisoblanadi.

Konvensiyaning rasmiy ravishda tan olingan olti (ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz) tillaridagi tarjimalari mavjud. Ko‘plab mamlakatlarda uning boshqa tillarga tarjimalari yaratilgan.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya 9 ta bo‘lim 40 ta modddan iborat bo‘lib, biz quyida undagi bizning faoliyatimizga taalluqli bo‘lgan bo‘lim va moddalariga to‘xtalamiz, chunki, uni milliy darajada implementatsiyasini tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalar 2010 yil 7 oktabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat dasturida qamrab olingan. Shuning uchun mazkur Davlat dasturining bandlari qay darjada Konvensiya talablarini aks ettirishi va uning amalga oshirilishi implementatsiyaning darjasini belgilab beradi.

Konvensiyani qabul qilish zarurati ifodalangan bandlarda “globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar jarayoni hamjamiyatlar o‘rtasida o‘zaro muloqot o‘rnatish uchun qulay zamin yaratish” maqsadi, “murosasizlikning kelib chiqishi, degradatsiyalanishning jiddiy tahdid manbai bo‘lishi”, shuningdek, “nomoddiy madaniy merosni saqlash bo‘yicha mablag‘larning yetishmasligi oqibatida uning yo‘qolib ketish va buzilib ketish xavfi” mavjudligi ta’kidlanadi. Shu munosabat bilan “insoniyatning nomoddiy madaniy merosni muhofaza etish yo‘lidagi umumiy intilishlarini, say-harakatlarini va bu boradagi umumiy xavotir” ham e’tirof etiladi.

Keyingi bandlarda nomoddiy madaniy meros aslida insonlarning ijodkorlik faoliyati natijasida yaratilishi ta’kidlanadi va “hamjamiyatlar, xususan tub aholiga mansub hamjamiyatlar va ayrim hollarda alohida

shaxslarning nomoddiy madaniy merosni barpo etishda, muhofaza qilishda, saqlashda va qayta bunyod etishda, va shu tariqa madaniy turli-tumanlikni boyitishda va insoniyatning ijodkorlik qobiliyatini oshirishda muhim rol o‘ynashi” aytiladi. Ushbu merosni saqlash bo‘yicha yangi tartib va qoidalarni joriy etish maqsadida “madaniy va tabiiy merosni saqlash bo‘yicha xalqaro shartnomalarni, amaldagi tavsiya va rezolyusiyalarni nomoddiy madaniy meros sohasidagi yangi qoidalar bilan boyitish va samarali to‘ldirish” muhimligi hisobga olinadi. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va targ‘ib etishdan tashqari uning o‘ta muhim o‘rni - “yosh avlodlar tomonidan chuqur his etilishi kerakligi” alohida ta’kidlanadi. Bu yerda yana “nomoddiy madaniy merosning kishilar o‘rtasida o‘zaro yaqinlashuvi, muloqot, o‘zaro tushunish” dagi bebaho roli e’tirof etiladi.

Konvensiyaning maqsadlari sifatida quyidagilar qayd etilgan:

nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish;

tegishli hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarga mansub nomoddiy madaniy merosni hurmat qilish;

nomoddiy madaniy merosning muhimligiga va mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda uning umum tomonidan tan olinishiga e’tiborni jalb qilish; xalqaro hamkorlik va yordam ko‘rsatish.

Konvensiyaning 2-moddasida matnda uchraydigan asosiy tushunchalarga ta’rif berilgan bo‘lib, biz oldingi mavzuda alohida to‘xtalغان “nomoddiy madaniy meros” tushunchasiga alohida to‘xtalغان va merosning yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu moddada (keyinchalik matndagi qaytariqlarni qisqartirish maqsadida) “muhofaza” so‘zi doimiy ravishda juda keng, ya’ni - “nomoddiy madaniy meros hayotiyligini ta’minlash, shu bilan birga, uni identifikatsiyalash, hujjatlashtirish, tadqiq qilish, saqlash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ‘ib qilish choralari, asosan rasmiy va norasmiy ta’lim yordamida amalga oshirish, hamda bunday merosning turli jihatlarini qayta barpo etish” ma’nolarida qo‘llanilishi yozilgan.

Konvensiyaning ikkinchi bo‘limi Konvensiya organlariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra uning eng oliy organi – Bosh assambleya bo‘lib, har ikki yilda bir marotaba o‘z yig‘ilishlarini o‘tkazadi. Bundan tashqari ishtirokchi-davlatlar tomonidan tavsiya etiladigan nomzodlardan tashkil topgan – Hukumatlararo qo‘mita va doimiy faoliyat olib boruvchi – Kotibiyat ham tashkil etiladi. Bu bo‘limda mazkur organlarning vakolatlari, ish uslubi, saylanish muddatlari va ularning faoliyati bilan bog‘liq tashkiliy masalalar yoritiladi.



### **3.4. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasining milliy darajada implementatsiyasini tashkil etuvchi asosiy hujjat**

“Nomoddiy madaniy merosni milliy darajada muhofaza qilish” mavzusidagi uchinchi bo‘limda ishtirokchi-davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va unga yuklanadigan majburiyatlar qayd etilgan. Shu munosabat bilan mazkur bo‘limning moddalariga alohida to‘xtalamiz va batafsil tushuntirishlar berishga harakat qilamiz. Talablar bilan bir qatorda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlar va rejalashtirilgan vazifalarni ham tahlil etamiz.

**Har bir ishtirokchi-davlat o‘z hududida joylashgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rishi lozim.** Bu borada mamlakatimizda qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligi, maxsus dastur ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotganligini e’tirof etish lozim.

**Nomoddiy madaniy meros hayotiyligini ta’minlash, shu bilan birga, uni identifikatsiyalash, hujjatlashtirish, tadqiq qilish, saqlash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ‘ib qilish choralarni, asosan rasmiy va norasmiy ta’lim yordamida amalga oshirish, hamda bunday merosning turli jihatlarini qayta barpo etish doirasida o‘z hududida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy merosning turli xil unsurlarini hamjamiyatlar, guruhlar va tegishli nohukumat tashkilotlar ishtirokida identifikatsiyalashi va aniqlashi lozim.** Davlat dasturining tegishli bandlarida bu bandda belgilangan vazifalarning hammasi nazarda tutilgan. Xususan, 7-bandda “O‘zbekistonning qadimiy folklor va an’anaviy ijrochiligi saqlanib qolgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kompleks folklor ekspeditsiyalari uyushtirish” rejalashtirilgan bo‘lib, 55 va 56-bandlarda ushbu ekspeditsiyalarga madaniyatshunoslar, san’atshunoslar, folklorshunos, etnograf va ekspertlarning, shuningdek, oliy ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning jalb etilishi va ushbu tadbirlarning moliyalashtirilishi masalalari kiritilgan. Bundan tashqari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston va Xitoyda yashovchi o‘zbeklar folklorini yozib olishni tashkil etish (8-band) ham ko‘zda tutilgan.

Ishtirokchi-davlatlar tomonidan yuritilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatlar bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

**Har bir ishtirokchi-davlat .... o‘z hududida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy meros obyektlarining bir yoki bir nechta ro‘yxatini tuzadi. Bu ro‘yxat muntazam ravishda yangilab turilishi lozim.** Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 fevraldagi 47-sonli qarori bilan “Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlangan va shu asosda mamlakatimizda 4 xil ro‘yxat yuritilmoqda.

1. Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro‘yxatiga tavsiya etilayotgan obyektlar ro‘yxati.

2. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro‘yxati.

3. Nomoddiy madaniy meros obyektlarining milliy ro‘yxati.

4. Nomoddiy madaniy meros obyektlarining mahalliy ro‘yxati.

**Har bir ishtirokchi-davlat Qo‘mitaga muntazam ravishda o‘z hisobotini berib borar ekan, ushbu ro‘yxatlar to‘g‘risida ham tegishli ma’lumotnomalarni taqdim etishi lozim.** Ushbu band talablariga ko‘ra har bir ishtirokchi-davlat har 6 yilda bir marotaba YUNESKOga o‘z hisobotini taqdim etishi lozim. Davlat dasturining 20-bandida “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro Konvensiya talablarining bajarilishi borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida 2014 va 2020 yillarda hisobotlarni tayyorlash va belgilangan tartibda YUNESKO tashkilotiga taqdim etish” vazifasi belgilab qo‘yilgan.

13-moddada muhofaza qilishning boshqa choralari ham belgilangan. Unda – **“Nomoddiy madaniy merosning jamiyatdagi rolini oshirish va ushbu merosni muhofaza qilishni rejalashtirish dasturiga kiritishga yo‘naltirilgan umumiy siyosatni ishlab chiqadi va amalga oshiradi”** deyilgan. Davlatimiz siyosatida xalqimizning ma’naviy boyligini asrash, urfodat va marosimlarimiz vositasida yoshlarni tarbiyalash keng o‘rin egallagan. Yangi Qonun qabul qilinishi, Davlat dasturining ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, bu borada huquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqilishi buni isbotlaydi.

Navbatdagi bandlarda ham qator vazifalar qo‘yilgan. Biz quyida ushbu vazifalarni Davlat dasturida ko‘zda tutilgan bandlar bilan solishtirishda davom etamiz.

**O‘z hududida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga ixtisoslashgan bir yoki bir nechta vakolatdor tashkilotni aniqlaydi yoki tashkil etadi.** 2009 yil oktabrda qabul qilingan Qonun, Davlat dasturi, Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 fevraldagi 47-son qaroriga muvofiq ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilot va muassasalar aniqlangan.

**Nomoddiy madaniy merosni, xususan, xavf ostida bo'lgan nomoddiy madaniy merosni samarali muhofaza qilish maqsadida ilmiy, texnikaviy, san'atshunoslik sohasidagi tadqiqotlarga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot metodologiyalarini ishlab chiqishga yaqindan ko'maklashadi.** Davlat dasturining 5-bandida nomoddiy madaniy merosning barcha yo'nalishlari bo'yicha grantlar ajratilishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, 31-bandda musiqa, madaniyat va san'at ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarning nomoddiy madaniy meros borasidagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va ushbu yo'nalisdagi eng yaxshi tadqiqotlar tanlovlarini e'lon qilish, g'oliblarni rag'batlantirish, eng sara ishlarni ilmiy to'plam shaklida chop etish vazifasi qo'yilgan.

**Nomoddiy madaniy merosni boshqarish sohasida kadrlar tayyorlovchi muassasalarni tashkil etish yoki mustahkamlashga ko'maklashish.** Davlat dasturining 13 ta bandi (21-33 bandlar) soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda maktab ta'limidan boshlab, o'rta-maxsus va oliy ta'limda, shuningdek undan keyigi ta'lim bosqichlarida ham mazkur vazifalarni bajarish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

**Nomoddiy madaniy merosdan foydalanish imkoniyatini oshirish.** Davlat dasturining "Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish" masalalariga bag'ishlangan bo'limining 6 ta bandi (49-54 bandlar) va dasturning qator boshqa bandlarida mamlakatimiz aholisi va xorijlik mehmonlarning nomoddiy madaniy merosdan bahramand bo'lishini yanada yaxshilash masalalari yoritilgan.

**Nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish bilan shug'ullanuvchi muassasalarni barpo etish va ulardan foydalanishni yengillashtirish.** Hozirda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi qoshida maxsus Hujjatlashtirish bo'limi tashkil etilgan. Ushbu bo'lim byudjet mablag'lari va YUNESKO tomonidan ajratilgan 18 ming AQSH dollari evaziga zamonaviy audio, video, foto uskunalari, shuningdek, tipografiya anjomlari bilan ta'minlangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo'limi ham tegishli zamonaviy anjomlar bilan boyitildi. Fanlar akademiyasi tasarrufidagi San'atshunoslik institutida maxsus Hujjatlashtirish bo'limi tashkil etilishi rejalashtirilgan. Nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish maqsadida maxsus veb-sayt ([WWW.nmm.uz](http://WWW.nmm.uz)) ishlab turibdi.

Ta'lim, jamoatchilikning xabardorligini oshirib borish va salohiyatni mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan 14-moddada belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha quyidagilarni keltirish mumkin.

**Ta'lim dasturlari orqali jamoatchilikning, xususan, yoshlarning nomoddiy madaniy meros to'g'risidagi bilimlarini oshirish.** Davlat dasturining 21- bandida nomoddiy madaniy merosni o'rganish masalalarini oliy ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tegishli fanlar o'quv dasturlariga kiritish, qo'llanmalar tayyorlash va chop etish rejalashtirilgan.

**Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish sohasida, xususan, boshqaruv va ilmiy tadqiqot masalalari bilan bog'liq imkoniyatlarni oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.** Davlat dasturining birinchi bo'limi to'laligicha nomoddiy madaniy merosning boshqaruvi, ikkinchi bo'limi esa nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

**Bilimlarni tarqatishning norasmiy usullaridan foydalanish.** Dasturning 25-bandida nomoddiy madaniy merosni saqlovchi va yetkazuvchilarni o'quv dasturlarini takomillashtirish ishlariga va bevosita o'quv jarayoniga jalb etish, ularga shart-sharoitlar yaratish, 32-bandida nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish, 36-bandida nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ'iboti masalalariga bag'ishlangan maxsus "Meros" ilmiy-ommabop jurnalini tashkil etish masalalari qamrab olingan.

**Nomoddiy madaniy merosga xavf solayotgan tahdidlar, shuningdek, mazkur Konvensiyaning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar haqida jamoatchilikni xabardor qilib turish.** Dasturning 6-bo'limi nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlariga yo'naltirilgan bo'lib, uning 40-45 bandlarida ushbu masalalar to'liq qamrab olingan.

Konvensiyaning 15-moddasida hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarning ishtiroki masalasi xususida shunday vazifa qo'yilgan:

**Har bir ishtirokchi-davlat nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish doirasida shunday merosni bunyod etish, muhofaza qilish va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarning imkon qadar keng ishtirokini ta'minlashga harakat qiladi hamda ularning bunday merosni boshqarishga jalb qilinishlari va faol ishtirok etishlari uchun ko'maklashadi.** Ushbu vazifalar to'laligicha Davlat dasturida ko'zda tutilgan. Xususan, 7-bo'lim nomoddiy madaniy

merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish masalalarini qamrab olib, unga ko'ra nomoddiy madaniy meros masalari bilan shug'ullanuvchi nodavlat tashkilotlari va muassasalarining uyushmasini tashkil etish, ular tomonidan o'tkaziladigan nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq tanlov, ko'rik, festival, ko'rgazmalarning yillik rejalari ishlab chiqilishi, muvofiqlashtirilishi va e'lon qilinishini ta'minlash, mahallalarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va targ'ib etish borasidagi ishlarni rejalashtirish va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda amalga oshirish mo'ljallangan.

Konvensiyaning IV bo'limi nomoddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu bo'limning 16 va 17 moddalariga asosan ikkita xalqaro ro'yxat - Insoniyatning nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxati va Kechiktirib bo'lmas muhofazaga muhtoj nomoddiy madaniy meros ro'yxati yuritilishi belgilab qo'yilgan. Representativ ro'yxatga O'zbekistondan 8 ta (Boysun madaniy muhiti, Shashmaqom, Katta ashula, Navro'z, Askiya, Palov madaniyati va an'analari, Xorazm raqsi lazgi, Miniatyura san'ati) obyekt kiritilgan. Shuningdek, Ilg'or tajribalar reyeyestriga 2017 yilda "Marg'ilon hunarmandchilik markazining atlas va adras matolarini to'qishda an'anaviy uslublarni saqlab qolish tajribasi" kiritildi va bu nomzod ushbu ro'yxatda Markaziy Osiyodan yagona nomzod bo'lib qolmoqda. Har ikki ro'yxatga va reyeyestrga nomzodnomalarni tayyorlash ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda.

57 bandedan iborat Davlat dasturida 10 yil davomida nomoddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanishning eng asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Davlat dasturining "Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish" masalalariga bag'ishlangan bo'limida 2011 yildan boshlab har ikki yilda nomoddiy madaniy meros muammolariga bag'ishlangan xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarini o'tkazish ko'zda tutilgan.

Ushbu bo'limda Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi zimmasiga nomoddiy madaniy merosning barcha yo'nalishlari bo'yicha grantlar ajratilishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish vazifasi yuklangan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi zimmasiga esa:

nomoddiy madaniy meros tarixining mohiyatini ochib beruvchi qadimiy qo‘lyozmalar, fono yozuvlarni sinchiklab o‘rganish va ularni turli tillarda bosma ko‘rinishda va zamonaviy disklarda chop etishni yo‘lga qo‘yish;

O‘zbekistonda Navro‘zning tiklanish tarixi va mustaqillik yillarida uning ham mazmunan, ham shaklan boyishi jaryonini tadqiq etish va targ‘ib qilish;

“O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 tomligini asar matni, notasi va izohlari bilan nashrga tayyorlash;

nomoddiy madaniy meros masalalari bilan shug‘ullanuvchi maxsus bo‘linma faoliyatini tashkil etish vazifalari yuklangan. Hozirda ushbu tashkilot zimmasiga yuklangan eng katta vazifalardan biri – 100 tomlikni nashrga tayyorlash ishlari boshlab yuborilgan. Fanlar akademiyasining Alisher Navoyi nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida xalq ijodiyotini barcha janrlaridan eng yuksak namunalari kiritiladigan to‘plamlar nashrga tayyorlanmoqda.

O‘z navbatida Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga ushbu bo‘limda:

Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kompleks folklor ekspeditsiyalari uyushtirish;

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston va Xitoyda yashovchi o‘zbeklar folklorini yozib olishni tashkil etish;

“Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” singari dostonlarni fundamental ilmiy tadqiq etish ishlarini yanada kuchaytirish;

o‘zbek an‘anaviy musiqasiga oid ma‘lumotlarni jamlash va yaxlit holda chop etilishini tashkil etish vazifalari yuklangan. “O‘zbek an‘anaviy musiqasi” ko‘p tomlik antologiyasi nashrga tayyorlash, unda “Shashmaqom”, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent maqomlari, dutor va surnay maqom yo‘llari, “Feruz” va “Ushshoq” kabi turkumlarning zamonaviy ijrochilar talqinida yozib olinishi va ta‘lim dasturlarida keng foydalanish uchun SD, DVD, multimedia ko‘rinishlarida tayyorlash ishlari ham rejalashtirilgan. Hozirda Farg‘ona-Toshkent maqomlarini to‘liq yozib olish va ularni tizimga solish ishlariga sohaning yetuk mutaxassislari jalb etilgan, YUNESKOning Qoraqalpoq an‘anaviy musiqasini hujjatlashtirish loyihasi asosida 100 dan ortiq sozanda va xonandalarning 300 dan ortiq qo‘shiq va

kuylari yozib olindi. Ularning ilk namunalari Fransiyada audiodisk shaklida chiqarilgan.

Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni xujjatlashtirish masalalari (III bo'lim) to'laligicha Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga yuklangan. Unga ko'ra nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish, arxivlashtirish, ma'lumotlar bazasini tashkil qilish andozalari ishlab chiqilib, mamlakatimizda joriy etilgan 4 xil ro'yxatga obyektlar kiritilmoqda va muntazam ravishda ular to'g'risidagi ma'lumotlar yangilanmoqda.

Davlat dasturining eng katta bo'limi – “Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish” deb nomlanadi.

Bu bo'limdagi 13 ta bandeda qo'yilgan asosiy vazifalar:

- nomoddiy madaniy meros masalalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish;
- yoshlarimizning nomoddiy madaniy meros namunalaridan bahramand bo'lishiga erishish;
- yosh avlodni xalqimizning bebaho merosimiz namunalari asosida tarbiyalash;
- nomoddiy madaniy meros sohasida kadrlar tayyorlash;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlariga qaratilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'rta maktabdan boshlab to oliy ta'limning barcha bosqichlarigacha, shuningdek, maktabdan tashqari ta'limda nomoddiy madaniy meros masalalarining yoritilishiga erishish, yoshlarni nomoddiy madaniy merosni to'plash va hujjatlashtirish ishlariga jalb etish, ular ishtirokida turli ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalarni tashkil etish, yoshlarning ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish ishlarini tashkil etish lozim bo'ladi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari bayon etilgan bo'limdagi vazifalar asosan O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Milliy axborot agentligi, “O'zbekkino” milliy agentligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi zimmasiga yuklangan bo'lib:

maqollar, matallar, afsona va rivoyatlar, hikoyatlar to'plamlarini nashr etish;

milliy qadriyat va an'analarni tarannum etuvchi sahna asarlari yaratilishini ta'minlash;

maxsus “Meros” ilmiy-ommabop jurnali faoliyatini yo'lga qo'yish;

bosma nashrlar, video va audio mahsulotlar, shuningdek, hunarmandchilik mollari tayyorlanishini jonlantirish va sotuvga chiqarish; xalq sayillari va festivallarni o‘tkazish masalalari qamrab olinadi.

“Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo‘yicha olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot ishlari” deb nomlangan VI bo‘limda 6 ta band bo‘lib, ushbu bo‘limdagi ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarining asosiy ijrochilari etib O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi belgilangan. Ularning zimmasiga nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va ulardan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ilg‘or tajribalarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etish. Bunda davlat va nodavlat tashkilotlari va muassasalarining faoliyati, yangi tashabbuslar, nomoddiy madaniy merosning ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlashdagi o‘rni, ko‘rsatuv va eshittirishlarda ekspert va mutaxassislarning ishtiroki masalalariga adlohida e‘tibor qaratilishi belgilangan. Shu bilan bir qatorda ushbu masalalarning bosma axborot vositalarida ham keng yoritilishiga e‘tibor qaratish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga esa O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda har yili nomoddiy madaniy merosning targ‘iboti bilan bog‘liq festivallar o‘tkazilishini tashkil etish, Respublika “Mahalla” jamg‘armasi bilan hamkorlikda mahalla, tuman, viloyat va respublika bosqichlariga ega bo‘lgan “Nomoddiy madaniy meros targ‘ibotchisi va faoli” tanlovlarini o‘tkazish topshirilgan. “O‘zbekkino” milliy agentligi o‘z zimmasiga har yili xalqimiz tarixi, madaniyati, vatanparvarlik va xalq qahramonlarining jasorati, milliy qadriyat va an‘analarni tarannum etishga bag‘ishlangan kamida 2 ta badiiy, 4 ta multiplikatsion va 5 ta hujjatli film tasvirga tushirish va namoyishinitashkil etish vazifasini olgan.

Davlat dasturining asosiy ijrochisi sifatida Madaniyat va sport ishlari vazirligi belgilangan bo‘lsa-da, undagi vazifalarning to‘liq bajarilishi uchun ko‘plab davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilot va muassasalarining hamjihatlikdagi harakatlari talab etiladi. Shuning uchun Davlat dasturining bitta bo‘limi davlat va nodavlat tashkilot va muassasalarining hamkorlik tarmog‘ini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Bu bo‘limda birinchi navbatda nomoddiy madaniy meros bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tashkilot va muassasalarining uyushmasini tashkil etish, davlat va nodavlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan o‘tkaziladigan nomoddiy madaniy



meros bilan bog'liq tanlov, ko'rik, festival, ko'rgazmalarni muvofiqlashtirish va kuchlarni birlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu bo'limda qo'yilgan vazifalar ijrosida Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi, "Hunarmand" uyushmasi, Xalqaro "Oltin meros" jamg'armasi, Respublika "Mahalla" jamg'armasi yetakchilik qilishi zarur bo'ladi.

Mamlakatimizdagi mavjud nomoddiy madaniy meros namunalarini targ'ib etishda turistik tashkilotlarning o'rni juda katta. Chunki, ularning xizmatidan foydalanadigan mamlakatimiz aholisi va xorijiy mehmonlarga ana shu ma'naviy merosimizni bor bo'y-basti bilan namoyish etish imkoniyati mavjud. Shunday imkoniyatlarni yanada kengaytirish masalalari Davlat dasturining "Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish" bo'limida o'z aksini topgan. Tabiiyki, bu bo'limning asosiy ijrochisi sifatida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi belgilangan. Bu bo'limga kiritilgan tadbirlar:

turistik dasturlarni "Shashmaqom", "Katta ashula", "O'lan", "Dostonchilik", "Baxshichilik", "Lapar", "Tanavor", masxarabozlik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, "Ko'pkari", turli xalq o'yinlari, o'zbek raqslari singari qator nomoddiy madaniy meros namunalari bilan boyitish;

Boysun, Nurota, Chust, Karmana, Sherobod kabi maskanlarni turistik dasturlarga kiritish;

milliy hunarmandchilik mollari, musiqa cholg'ulari, an'anaviy milliy kiyimlarni turistik guruhlar orasida keng targ'ib etish;

o'quvchi-talabalar orasida nomoddiy madaniy meros namunalarining keng targ'ib etilishini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan.

Turistik tashkilotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, keyingi paytda O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijlik turistlar milliy urf-odat va marosimlar, yurtimiz tabiati, xalqimiz turmush tarziga ko'proq qiziqish bildirishmoqda. Turistik tashkilotlar, o'z navbatida, xalqimizning bunday nomoddiy madaniy merosini targ'ib etuvchi kishilar, guruhlar, jamoalar, hududlar bilan tanishtirishga katta qiziqish bildirmoqda. Bu imkoniyatdan samarali foydalanish orqali nomoddiy madaniy merosimizni saqlovchi, targ'ib etuvchilarni moddiy manfaatdor qilish mumkin. Buning uchun joylardagi turistik tashkilotlari va nomoddiy madaniy meros yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot, muassasalar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish talab etiladi.

Moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish masalalari qamrab olingan so'nggi VII bo'limda maxsus folklor ekspeditsiyalari faoliyatini

moliyalashtirish, nomoddiy madaniy meros namunalarini to‘plashga jalb etiladigan talaba va o‘quvchilarni moddiy rag‘batlantirish masalalari bilan bir qatorda ushbu maqsadlar uchun homiyilar va madaniyat sohasida hamkorlik qilishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar mablag‘larini jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Hozirda tegishli mutasaddi tashkilotlarning yillik rejalari asosida folklor ekspeditsiyalari uchun mablag‘ ajratilishi yo‘lga qo‘yilgan. Nomoddiy madaniy meros yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba va o‘quvchilarni nomoddiy madaniy meros bo‘yicha materiallar to‘plash va targ‘ibot ishlariga jalb etish masalasining moliyalashtirilishi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Buning uchun tegishli ta‘lim muassasalari o‘zlarining navbatdagi yillik xarajatlar smetasiga ushbu maqsadlar uchun talab etiladigan mablag‘larni kiritishi va uni asoslab berishi zarur bo‘ladi.

### **3.5. Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq xalqaro loyihalar**

Xalqaro hamkorlik va yordam masalalari qamrab olingan V bo‘limda hamkorlikni tashkil etish yo‘llari va usullari, xalqaro yordam olish uchun shart-sharoitlari ochib beriladi. O‘zbekistondan Rerezentativ ro‘yxatga kiritilgan “Boysun madaniy muhiti” va “Shashmaqom” nomzodnomalarida hujjatlashtirish ishlarini tashkil etish uchun xalqaro yordam olingan va ushbu mablag‘lar tegishli yo‘nalishlarda sarf etilgan. Shuningdek, YUNESKOning 2-toifali institutlari: Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarining axborot ta‘minoti yo‘nalishi bo‘yicha nomoddiy madaniy meros markazi - ICHCAP (Koreya Respublikasi), Madaniy meros masalalari bo‘yicha Markaziy Osiyo markazi - IICAS (Samarqand), shuningdek Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarining kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha nomoddiy madaniy meros markazi (Yaponiya) bilan doimiy aloqalar o‘rnatilgan.

2010 yilda “Alpomish” dostonining o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlari “Markaziy Osiyo-Koreya ertakchilik san’ati” Qo‘mitasi tomonidan tashkil etilayotgan raqamli arxivga joylashtirish uchun taqdim etildi. 2011 yil ushbu arxivga kiritilgan asarlar bo‘yicha ssenariylar tanlovi e‘lon qilindi, 2012, 2013, 2014 va 2015 yillarda ham ssenariylar tanlovi e‘lon qilinib, har ikki tanlovda g‘olib deb topilgan asarlarni sahnalashtirish ishlari davom ettirildi. Keyingi yillarda bolalar uchun hikoya va ertaklarni nashr qilish ishlari ushbu Qo‘mita tomonidan olib borilib, o‘zbekistonlik 4 nafar bolalar yozuvchilarining asarlari o‘zbek, koreys, ingliz tillarida chop etildi, ularning

ikkitasi sahnalashtirilib, Koreya va Markaziy Osiyo davlatlarida namoyish ham etildi.

Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarining axborot ta'minoti yo'nalishi bo'yicha nomoddiy madaniy meros markazi - ICHCAP (Koreya Respublikasi) Markaziy Osiyoda eng faol ish olib borayotgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Ushbu Markaz doimiy ravishda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xamkorlikni yo'lga qo'yishi natijasida nomoddiy madaniy meros muhofazasi brasida ko'plab ishlar amalga oshirilganining guvohimiz.

Ushbu Markaz tashabbusi va mablag'lari evaziga "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro'yxati" broshyurasi o'zbek va ingliz tillarida, "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" atlas alohida kitob shaklida o'zbek va ingliz tillarida chop etildi. Shuningdek 2012 yilda Farg'ona vodiysiga uyushtirilgan ekspeditsiya natijalari 10 audio va videodisklar to'plami ko'rinishida chop etilib, 200 komplekti O'zbekistonga tekin taqdim etildi. 2015-2020 yillar mobaynida ushbu Markaz mablag'lari evaziga "Osiyo mamlakatlari nomoddiy madaniy merosining video kutubxonasi"ni yaratish loyihasi doirasida O'zbekistondagi 10 ta nomoddiy madaniy meros haqida 10 ta hujjatli film suratga olinib, ushbu videokutubxonaga joylandi. Shuningdek, 2019 va 2020 yillarda nomoddiy madaniy merosni saqlashda ayollarning ishtiroki bilan bog'liq yana 4 ta hujjatli film suratga olindi.

Konvensiyaning keyingi bndlari - **Nomoddiy madaniy meros jamg'armasi; Hisobotlar; O'tkinchi qoidalar; Yakuniy qoidalar** deb nomlanib, ularda jamg'arma mablag'larining shakllanishi, majburiy va ixtiyoriy to'lovlar, hisobotlarni taqdim etish shartlari va muddatlari, muqaddam e'lon qilingan "Insoniyatning og'zaki durdonalari" ro'yxatiga kiritilgan obyektlarning (O'zbekistonda 2001 yili "Boysun madaniy muhiti", 2003 yili "Shashmaqom" kiritilgan) yangi "Reprezentativ ro'yxat"ga o'tkazilishi, shuningdek Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi va boshqa kerakli ma'lumotlar berilgan.

Yuqorida qayd etilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda ratifikatsiya qilingan Xalqaro Konvensiya talablarini bajarish masalasi Davlat dasturida to'laligicha ko'zda tutilgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Dunyo miqyosida nomoddiy madaniy meros muhofazasiga doir harakatlar qachondan boshlandi?

1. Nomoddiy madaniy meros sohasidagi turdosh uch konvensiyalarning qanday o'xshash va farqli jihatlari bor?
2. Nomoddiy madaniy meros Konvensiyasining asosiy mazmuni haqida so'zlab bering.
3. Konvensiyada nomoddiy madaniy meros muhofazasi qanday ko'rinishlarda tashkil etiladi?
4. Davlat dasturining nechta bandi bor?
5. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish ishlari qaysi bo'limda aks etgan va ushbu bo'lim necha banddan iborat?
6. Qaysi xalqaro tashkilot Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan eng ko'p loyixani amalga oshirgan?

#### **4-mavzu: Ijrochilik san'ati va uning turlari. (4 soat)**

##### **Reja:**

- 4.1 Ijrochilik san'ati – nomoddiy madaniy meros namoyon bo'ladigan sohalardan biri sifatida
- 4.2 Xalq tomosha san'ati
- 4.3 Musiqa san'ati. Cholg'u ijrochiligi
- 4.4 Kasbiy musiqa
- 4.5 Maqom cholg'u yo'llari
- 4.6 Xalq musiqa ijodiyoti janrlari
- 4.7 Lokal janrlar
- 4.8 Raqs san'ati

**Tayanch iboralar:** *Ijrochilik san'ati, xalq tomosha san'ati, musiqa, xonandalik, sozandalik, qo'shiq, raqs san'ati, raqs maktablari, mahalliy uslublar, lokal janrlar, kasbiy musiqa, Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona Toshkent maqom yo'llari, Maqom cholg'u yo'llari.*

#### **4.1. Ijrochilik san'ati – nomoddiy madaniy meros namoyon bo'ladigan sohalardan biri sifatida**

Nomoddiy madaniy merosning sohasalaridan biri bo'lgan ijro san'ati muqaddam xalq ijodiyotining tarkibiy qismi sifatida o'rganib kelingan. Hozirda nomoddiy madaniy meros tarkibida o'rganiladigan ijro san'ati o'z ichiga qator janr va uslublarni oladi. O'zbek ijro san'atini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- musiqa san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar;
- raqs san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar;

xalq tomosha san'ati bilan bog'liq uslub va janrlar.

O'z navbatida biz sanab o'tgan yo'nalishlar ham turli kichik yo'nalish va janrlarga bo'linib ketadi. Misol uchun musiqa san'ati tarkibiga cholg'u musiqasi va u bilan bog'liq uslub va janrlar, qo'shiq (keng ma'noda musiqa va so'z) ijrochiligi bilan bog'liq uslub va janrlar. Agar yanada chuqurroq kirib boriladigan bo'lsa, har bitta musiqa cholg'usida ijro etiladigan kuylar va qo'shiq musiqasi, shuningdek, mazkur cholg'uni o'zlashtirish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, shu bilan birga keng ma'nodagi qo'shiq ijrochiligining tabaqalanishi natijasida namoyon bo'ladigan alla, yalla, lapar, terma, mumtoz qo'shiq, xalfa qo'shiqlari, yoki hududlarga xos bo'lgan turkumlar — mavrigi, doston qo'shiqlari, tanovarlar, suvoralar, gulyoru shahnozlar umumiy nom bilan musiqa san'ati bilan bog'liq uslub va janrlarni tashkil qilishini kuzatish mumkin.

Raqs san'ati tarkibidagi meros hududiy uslublar orqali o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston hududida shakllangan — Qoraqalpoq, Xorazm, Buxoro, Farg'ona-Toshkent va Surxon raqs maktablarida ustozlardan shogirdlarga og'zaki shaklda va amaliy tarzda uzatiladigan bilim va tajribalar ham nomoddiy madaniy meros hisoblanadi.

Xalq tomosha san'atining hozirda amaliyotda saqlanib qolingani janrlari — dorva dorosti tomoshasi, qo'g'irchoqbozlik, kurash, uloq, masxarabozlik va boshqalar nomoddiy madaniy merosimizning namunalari sifatida yosh avlodga uzatilib kelinayotgani va ularni muhofaza qilish ishlariga davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani ularning jamiyat rivoji va barqaror taraqqiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

#### 4.2. Xalq tomosha san'ati

**Dorbozlik** — balandda tortilgan arqon ustida tomosha ko'rsatish san'ati. Dor dastlab (jang paytida yo'lda uchraydigan chuqurliklardan jangchilarning arqon ustida o'tishini mashq qildirish maqsadida) past qurilgan, davr o'tishi bilan dor tomosha san'atiga aylangan va tobora balandroq qurilib, ko'rsatiladigan dor o'yinlari ham murakkablashib borgan. Dor o'yinlarining asosiy sharti gavda muvoza- natini saqlash olishdir.

Hozirda o'zbek dorbozlari ikki xil dor da tomosha ko'rsatishadi:

1. Sim dor (yer sathidan taxminan 3–3,5 metr balandlikda quriladi).
2. Baland dor (yer sathidan 12–14 metr balandlikda quriladi).

Baland dorda dorbozlar 12–14 metr balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida qo'lda langar cho'pni ushlagan holda va langar cho'psiz turli o'yinlar ko'rsatishadi. Bunday o'yinlarga: yugurish (oldinga, orqaga), sakrash, oyoqlarga pichoq yoki patnis bog'lab, shuningdek, ko'zni bog'lab, boshga xalta yoki qozon kiyib yurish, o'mbaloq oshish, dorbozlardan birini yelkaga mindirgan holda yurish, yakkava qo'shchig'iri qidao'ynash kabi turli tuman mashqlarni misol qilish

mumkin. Dor o‘yinlari dor osti tomoshalari bilan birga olib boriladi. Dor osti tomoshalariga polvonlik o‘yinlari, qiziqchilik, simdor, yog‘och oyoq, nayrangbozlik, besuya- kbozlik, muallaqchilik, o‘rgatilgan ayiq, ilon, maymun, ot, echki o‘yinlari kirgan.

Dorbozlik san‘atini rivojlantirish va targ‘ib qilish maqsadida dorbozlik guruhleri barcha soliqlardan ozod qilingan va muntazam ravishda dorbozlarning ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilib kelinmoqda. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonda 40 dan ortiq oilaviy dorbozlik guruhleri faoliyat ko‘rsatmoqda. Dorbozlar asosan oilaviy tarkibdan iborat bo‘lib, yilning iliq va issiq davrida (mart-noyabr) O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarda ko‘chib yurgan holda o‘z tomoshalarini ko‘rsatib yuradi. Tomosha ochiq joyda tashkil etilganligi bois tomoshabinlarga patta (bilet) sotish va ularning kirib-chiqishini nazorat qilish imkoni yo‘q. Shu sababli, dorbozlar va dor ostida tomosha ko‘rsatuvchilarining har chiqishidan keyin tomoshabinlarga murojaat qilib, baholi qudrat moddiy yordam ko‘rsatishlari so‘raladi va tomoshabinlar o‘zlari ixtiyoriy ravishda moddiy ko‘mak berishadi.

Dor guruhleri faoliyatini rejalashtirish, ularning bir-biriga xalaqit bermagan holda joylarda tomoshasi tashkil etish, shuningdek dor o‘yinlarida milliy an‘alarni saqlab qolish maqsadida 2011 yildan boshlab jamoatchilik asosida “O‘zbekiston dorbozlar uyushmasi” faoliyat ko‘rsatib, uni Vodillik (Farg‘ona viloyati) Tursunali polvon Mamajonov boshqarib kelmoqda.

**Ko‘pkari** — bu chavandozlar bahsi. Ota-bobolarimiz farzandlarining qo‘lini halolash, bo‘y yetgan qizlarini uzatish, er yetgan o‘g‘illarini uylantirish to‘ylarida xalqqa osh berib, to‘y so‘nggida ko‘pkari bahsi tomoshalarini tashkil etishgan. Ko‘pkarini boshqacha nom bilan “uloq” ham deyiladi.

Ko‘pkari asosan yakka bahs. Musobaqa shartiga ko‘ra o‘rtaga tashlangan uloq tanasini chavandoz o‘z oyog‘i ostiga bostirib maydonni gir aylantirgancha, belgilangan manzilga birinchi bo‘lib keltirib tashlashi talab etiladi. Biroq ko‘pkarida chavandozlar o‘rtaga qo‘yilgan sovrin — qimmatbaho buyum (soat, gilam, qo‘y, mol, muayyan miqdordagi pul) larni bo‘lib olish uchun jamoa bo‘lib harakat qilishlari ham mumkin. O‘rtaga tashlangan uloqni olishga abjir, baquvvat, uchqur otli chavandoz yigit tanlanadi va u uloqni olgach boshqa chavandozlar uni qurshab, to hakamlar oldigacha raqiblardan himoya qilib boradi.

Ayrim chavandozlar keksayganlarida, uloqqa o‘zlari turli sabablarga ko‘ra tusha olmasliklari tufayli ko‘pkari shartlariga tayyorlangan «aqli», «tajribali» otlarini yosh chavandozlarga foydalanishga beradilar. Bu o‘rinda chavandoz bilan ot egasi mukofotni bo‘lib oladi.

Bu qadimiy o'yin necha ming yillardan buyon O'rta Osiyo, umuman, Sharq xalqlarini o'zaro do'stlik iplari bilan bog'lab, yosh avlodni jismoniy sog'lom, abjir va chaqqon, mardlik va shiddatkorlik ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Ko'pkarida chopadigan otni qanday boqish, tarbiyalash, sovutish, «aqlidrokli» qilish yo'llarini chavandozlar avloddan-avlodga yetkazib, bilim tajribalarini uzatib kelmoqda.

Ko'pkari aslida tinchlik, xotirjamlik o'yini bo'lib, onalar, bobolar, bolalar suyanishi, ishonishi mumkin bo'lgan haqiqiy erkaklarni tarbiyalab yetishtirishda beqiyos katta rol o'ynagan. Hozirda Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarining bir qator tumanlarida ko'pkari o'yinlari tashkil etilmoqda. O'zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg'iz xalqlarining eng yaxshi chavandozlari bir-birlarining xususiy va jamoa to'ylarida mehmon bo'lib, katta ko'pkari, uloq musobaqalarida ishtirok etmoqdalar.

**Kurash** insonni kuchli, epcil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Kurashish san'atiko'pxalqlarda qadimzamonlardan buyon ma'lum bo'lgan. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Xitoyning qadimgi «Tan-shu» qo'lyozmasida Farg'ona vodiysida to'ylar, sayillar Kurash musobaqalarisiz o'tmasligi yozilgan. Qadimgi Baqtriya (O'zbekistonning janubi) hududidan topilgan jez davriga oid sopol idishda biri ikkinchisini chalayotgan ikki polvon tasvirlangan.

O'zbek xalq yakka kurashining belbog'li kurash deb nomlangan turi ham bor. Unga ham taalluqli ko'plab arxeologik topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar mavjud. Bundan 5 ming yil ilgari davrga mansub qadimgi Mesopotamiya hududida haykalchada belbog'li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Kurash musobaqalarikattasayil-larda, bayramlarda va oilaviy tantalarda ham tashkil etiladi. Hozirgacha ham Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida to'y marosimlarida ham kurash musobaqalari an'anaviy qoidalar asosida o'tkazib turiladi. An'anaviy qoidalarga ko'ra kurash tushadigan birinchi polvon o'rta chiqqandan keyin talabgor o'zi davrga chiqib kelishi kerak. Bunda, kurashchilarning yoshi yoki vazniga e'tibor berilmaydi. G'olib chiqqan kurashchi bilan kurashish uchun esa yana talabgor chiqib kelaveradi va hammani yutgan kurashchi oxirida g'olib bo'ladi.

1991 yilda kurashchilar sulolasi vakili, bir necha Kurash turlari bo'yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o'zbekcha Kurashning xalqaro andozalarga moslangan qoidalarini ishlab chiqdi. 1992 yilda O'zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001 yilda O'zbekistonda belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi.

Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g'irrom» jazolari

beriladi. Kurashuvchi «halol» baho- sini olsa (yoki raqibi «g'irrom» bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor «dakki» deya jazolanishi) ham g'alabani anglatadi.

«Chala» baholari hisobga olib borilib, baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi. Kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo'ladi, jazolar soni teng bo'lsa oxirgi jazo olgan mag'lub hisoblanadi. Agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo'lsa, g'olib hakamlarning ko'pchilik ovozigga ko'ra e'lon qilinadi. O'zbekistonda at-Termiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan va boshqa ko'plab xalqaro musobaqalar muntazam o'tkaziladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 22 ta olimpiada o'rinbosarlari maktabi, 37 ta bolalar-o'smirlar sport maktabi va 206 ta Kurash maktabida sportning bu turi bo'yicha o'quvchilarga tahsil beriladi.

**O'zbek qo'g'irchoqbozlik san'ati** qadimiy tarixga ega bo'lib, ajdodlarimizning o'tmishdagi urf-odatlar va marosimlari bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar uning vujudga kelishi inson o'zini tabiathodisalaridan oldida o'z jizozib turli ma'budlarga sig'inishi, totem sanalagan hayvonlar qiyofasini aks ettiruvchi niqoblarni kiyib raqsga tushishi, dunyodan o'tgan ajdodlarni teatr lash tirilgan holda yodga olish marosimi zahirida bo'lgani to'g'risidagi fikrni ilgari suradilar. Bunda marhumning eng yaqin kishisi niqob taqib, xuddi o'sha marhumga o'xshab gapirgan, harakat qilgan. Keyinchalik, bu marosim qo'g'irchoqbozlar qo'liga o'tib, qo'g'irchoq teatri shakllangan. Qo'g'irchoq teatri barcha madaniyatlarga xos va har bir xalqning ruhini ifoda etuvchi qahramonlarga ega.

O'zbek qo'g'irchoqbozligi xalqimizning qadimiy og'zaki teatri sifatida shakllangan an'anaviy san'atdir. Surxondaryo tomonlarda marosimiy "Suvxotun", Xorazmda "Ashshadaroz", "Masxaraboz", "Polvon" nomli qo'g'irchoq o'yinlari namoyish etilgan bo'lib, Buxoroda hozir ham an'anaviy qo'g'irchoqbozlik san'ati saqlab qolingan. Qo'g'irchoq qadimiy turkiy so'z sifatida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "Oxshanchik, oxshog'u, kuzurchik, qoborchuq" shakllarida qo'llangan bo'lsa, sug'diyalarda "zocha va zochak" shaklida, A. Navoiy davri adabiyotlarida esa "lo'bat, lo'batak" shakllarida ifoda etilgan.

O'tgan asr boshlarida qo'g'irchoq tomoshalarining turli janrlari shakllangan va ular "Chodir jamol", "Chodir xayol", "Fonus xayol yoki soya" kabi go'zal nomlar bilan atalgan.

Aytish joizki, hozir ham "qo'lqop" qo'g'irchoqlar, ipli qo'g'irchoq yoki marionetkalar, nur va soyadan foydalanish, qo'g'irchoqboz va qo'g'irchoqning birgalikdagi tomoshalarida namoyon bo'lgan o'zbek qo'g'irchoq teatrining an'analari davom etib kelmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda bir nechta professional va 20 ga yaqin havaskor xalq



qo‘g‘irchoq teatrlari, shuningdek “Ashshadarozi” nomli milliy qo‘g‘irchoqsozlik studiyasi va boshqa jamoalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

### 4.3. Musiqa san‘ati. Cholg‘u ijrochiligi

O‘zbek milliy musiqa cholg‘ulari — uzoq yillar davomida takomillashgan xalq cholg‘ularidir. Ularning birortasi ham faqat o‘zbek xalqining o‘zigagina xos bo‘lmasdan, ba‘zan xuddi shunday nomda o‘zgarishsiz, ba‘zan boshqa nomda va biroz boshqacharoq ko‘rinishda boshqa xalqlarda ham uchraydi. O‘zbekiston hududiy jihatdan Markaziy Osiyoning markazida, shuningdek Buyuk Ipak Yo‘lining 3 ta tarmog‘i kesishgan chorrahada joylashganligi bu yerda juda ko‘plab madaniy almashuvlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham milliy musiqa cholg‘ularining juda ko‘plab turlari bu yerga boshqa joylardan kelib qo‘nim topgan, xuddi shuningdek buyerdagi ko‘plab musiqacholg‘ulari boshqa hududlarga tarqalgan.

O‘zbek musiqa cholg‘ulari asosan uch guruhga bo‘linadi — urma-zarbli cholg‘ular, damli (puflab chalinadigan) cholg‘ular va torli cholg‘ular.

Urma-zarbli cholg‘ular qatoriga doira, nog‘ora, safoil, qayroq, qoshiq, chindovul, tarelkalar kiradi. Ba‘zi hollarda patnis, piyola kabi maishiy anjomlardan ham foydalaniladi.

Damli cholg‘ularning tilli, naypachoqli, mundahtukli turlari ham uchraydi. Quvurga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo jo‘natish orqali tovush hosil qilinadigan qamish nay, g‘ajir nay, nay cholg‘ulari; til yordamida tovush hosil qilinadigan sibizg‘a, qo‘shnay, bulaman cholg‘ulari; naypachoq yordamida tovush hosil qilinadigan surnay; mundahtuk yordamida tovush hosil qilinadigan karnay; sun‘iy havo siqish moslamasi yordamida tovush hosil qilinadigan sopol nay kabi cholg‘ular milliy damli cholg‘ular guruhini tashkil etadi.

Torli cholg‘ular — ochiq tordan foydalaniladigan (chang, qonun) va torning ma‘lum bo‘lagini bosish orqali tovush balandligi o‘zgartiriladigan (ruboblar, dutor, tanbur, g‘ijjak va boshqa) cholg‘ularga bo‘linishi mumkin. Ammo torli cholg‘ularda tovush hosil qilinishi sharoitiga ko‘ra boshqacha tasniflanishi ham mumkin. Bunda ijro uslublariga ko‘ra urma jarangli torli (chang), tirnama cholg‘ular (dutor, do‘mbira), mizrobli cholg‘ular (qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, qonun), kamonli cholg‘ular (qo‘biz, g‘ijjak, sato)ni sanab o‘tish mumkin.

**Unison ijrochiligi** an‘anaviy o‘zbek musiqa madaniyatiga xos bo‘lib doimiy ravishda jo‘navozlikda qo‘llanib kelingan va qo‘llanilmoqda. Kamer cholg‘u ansambllari undagi ishtirok etadigan cholg‘u turlariga ko‘ra 3 turga bo‘linadi:

- bir xil cholg‘ulardan tashkil topgan ansambl;
- turdosh cholg‘ular ansambli;
- aralash ansambl.

O'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligida turli xil cholg'ularni o'z ichiga olgan aralash ansambllar juda keng tarqalgan bo'lib xilma-xil tarkibdagi ko'rinishlarda uchraydi.

Har tomonlama mukammal aralash unison ansambl tashkil etish uchun jamoa tarkibiga turlicha tovush hosil qilish uslubi va turlicha tovush tembriga ega bo'lgan cholg'ular kiritiladi. Bunda, puflabchalinaladigan cholg'ulardan nay (yoki qo'shnay), mezboli cholg'ular guruhidan qashqar rubobi, tanbur va afg'on rubobi (yoki ud), chertma torli cholg'ulardan an'anaviy dutor, urma zarbli cholg'ulardan doira, urma jarangli torli cholg'ulardan chang (yoki tirnama cholg'ulardan qonun), kamonli cholg'ulardan g'ijjak ishtirokidagi ansambl milliy ruhdagi musiqani har tomonlama ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kichik ansambl uchun nay, qonun, g'ijjak, ud va doiradan tashkil topgan tarkib ko'proq qo'llaniladi. Eng kichik ansambl sifatida tanbur bilan dutorning jo'rnavorligi eng mukammal hisoblanadi. O'zbek milliy cholg'ularining turlari ko'pligi va tembr jihatidan rang-barangligini hisobga olgan holda juda xilma-xil tarkibdagi ansambllarni tashkil qilish imkoniyatini beradi. Bunda eng asosiy e'tibor cholg'ular tovushining bir-biriga qo'shilishi va o'zaro bir-birini to'ldirishiga qaratiladi.

Kamer cholg'u ansambllari an'anaviy musiqalar (cholg'u kuylari, shuningdek ashula, qo'shiq va raqslarga jo'rbolish) ijrosida keng qo'llaniladi. Odatda ansambl ijrosini doira cholg'usidagi ijrochiboshqarib boradi. Kamer ansambl cholg'uchilarining sahnada qanday tartibda o'tirishi ham oldindan belgilangan. Tomoshabinlarga yuzlangan tarkibning o'ng tomonidan doira, o'rtada chang va nay, chap tomonda esa dutor va tanbur joy olgan bo'ladi. Boshqa cholg'ular esa ularning orasiga joylashadi.

#### 4.4. Kasbiy musiqa

**Shashmaqom** 2003 yilda YUNESKOning "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga kiritilgan. 2008 yilda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" YUNESKO konvensiyasiga O'zbekiston qo'shilganidan so'ng "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Rezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi.

Shashmaqom o'z ijrochilik an'analari va qat'iy tizimga ega bo'lgan kuy va ashulalar majmuidir. U milliy professional (kasbiy) musiqa ijrochiligining eng yuksak namunalariidan biri sifatida asrab-avaylab kelinmoqda. Hozirda Shashmaqom tarkibiga kirgan kuy va ashulalar professional maqom ansambllarida, havaskorlik maqom ansambllari, ashula va raqs ansambllarida ham o'rganilib ijro etib kelinadi. Boshlang'ich musiqiy ta'lim (bolalar musiqa va san'at maktablari) dan boshlab to oliy musiqiy ta'lim tizimigacha Shashmaqomni o'rganish masalalari kiritilgan. Mamlakatimizda Shashmaqomning bolalar jamoalarida ham o'rganilishi bo'yicha namunalari misollar bor. Xususan, Marg'ilon shahridagi bolalar

musiqa va san'at maktablarida tashkil etilgan va Qo'qon shahridagi bolalar musiqa va san'at maktabida tashkil etilgan "Qaro ko'zim", Qashqadaryoning Shahrizabz shahar Madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan "Baxtli bolalik" bolalar maqom ansambllari qator yillardan buyon Shashmaqomni o'rganib, targ'ib etish bilan shug'ullanib kelmoqda. Shashmaqom targ'ibotiga bag'ishlangan professional ijrochilarning Yunus Rajabiy nomidagi tanlovi, Madaniyat vazirligi tomonidan muntazam ravishda har ikki yilda o'tkaziladigan "Katta ashula ijrochilari va maqom jamoalarining Respublika ko'rik-tanlovi" ham ko'plab iqtidoregalari va namunalijamoalarni kashf etib kelmoqda. Madaniyat vazirligining Badiiy jamoalar birlashmasi tarkibida Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli faoliyat ko'rsatadi. Buxoro va Samarqand shaharlaridagi "Shashmaqom" xalq ansambllari, Farg'ona viloyatining Farg'ona va Marg'ilon shaharlari, Uchko'prik va Buvayda tumanlaridagi xalq maqom ansambllari ham ko'plab maqom ijrochilarining yetishib chiqishiga munosib hissa qo'shmoqda. Shashmaqom fors tilida olti maqom ma'nosini anglatadi. Uning tarkibiga quyidagi maqomlar kiradi:

1. Buzruk
2. Rost
3. Navo
4. Dugoh
5. Segoh
6. Iroq

Shashmaqom bunday ko'rinishda XVIII asr o'rtalarida Buxoroda shakllanganligi uchun Buxoro shashmaqomi ham deyiladi. Shashmaqom tarkibiga kirgan maqomlar - ning har birima'lumparda, tovush qatori va usuli bilan boshlanadi. Har bir maqom alohida cholg'u va ashula yo'llariga ega bo'lib, bu yo'llarning o'zi bir nechta lab musiqiy asarlarni birlashtiradi.

Maqomlar avloddan-avlodga an'anaviy og'zaki tarzda o'tkazilib, bunda "ustoz-shogird" uslubidan foydalanilgan. Shogirdlar o'z ustozlari ijrosini juda uzoq vaqt o'zlashtirib, ma'lum imtihon topshirgandan keyin mustaqil ijro etishlariga ruxsat berilgan. Maqomlarning zamonaviy nota matni birinchi bo'lib taniqli kompozitor va etnograf V. A. Uspenskiy tomonidan buxorolik maqom ustozlari hofiz Ota Jalol Nosirov vasozanda Ota G'iyos Abdug'anilar ijrolari asosida yaratilgan. Mahalliy mutaxasslardan esa birinchi bo'lib bu ishga akademik Yunus Rajabiy qo'lurdi va Shashmaqomni to'liq notaga tushirib ikki marta nashr ettirdi.

Maqomlarning cholg'u kuylar bo'limi - «Mushkilot» deb yuritiladi.

Maqomlarning ashula bo'limlari «Nasr» deb ataladi. Nasr — arabcha «ko'mak», «zafar» ma'nolarini anglatadi. Maqom ashulalari qo'shiq ijrochiligi san'atining murakkab namunalarini bo'lganligi bois ularni kuylash uchun yuqori malaka va mahorat talab etiladi. Ashula ijrochiligida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab va boshqa shoirlarning g'azallarini yod olish va

ushbu gʻazallarning maʼnosini “chaqish” ham talab etilar edi. Shu bilan bir qatorda tanbur va dutorda amaliy ijro etish, doira usullarini ham yoddan bilish talab etilgan. Shuning uchun ham maqom ashulalari ijrochilari «hofiz» deb ham atashadi. “Hofiz” — arab tilida «saqlovchi», «yoddan biluvchi» maʼnolarini anglatadi.

**Xorazm maqomlari** — Oʻzbekistonda tarqalgan lokal maqom turkumi turi. Xorazm maqomlari turkumi XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Shashmaqom va Xorazm musiqiy anʼanalari negizida shakllanib, keng rivojlangan (amaliyotda ushbu turkum “Olti yarim maqom” yoki “Xorazm Shashmaqomi” deb nomlangan).

Turkum tarkibi Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlaridan iborat boʻlib, har bir maqom oʻz navbatida Shashmaqom gaoʻxshashikki boʻlimdan tashkil topgan: cholgʻu boʻlimi — Chertim yoʻli yoki Mansur; ashula boʻlimi — Aytim yoʻli yoki Manzum deb ataladi. Xorazm maqomlari turkumi 200 yaqin cholgʻu va ashula yoʻllari qamrab olgan. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xoʻja, Feruz, Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Harrot va boshqalar maqomlarga yangi cholgʻu qismlar bastalab, ularni shaklan va mazmunan boyitdilar.

Xorazm maqomlari XIX asrning oxirgi choragida Xiva xoni boʻlmish Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz-shoir va bastakor) tashabbusi bilan “Tanbur chizigʻi” da toʻla (tanbur va dutor maqom turkumlari) yozib olingan va ijrochilik amaliyotida, “ustoz-shogird” maktablarida XX asrning 40-chi yillarigacha qoʻllanib kelingan. XX asrdan boshlab Xorazm maqomlari musiqasi zamonaviy nota tizimida yozib olindi (YE. Romanovskaya, M. Yusupov), ilmiy oʻrganildi, yangi musiqa taʼlimi tizimi (Xorazm viloyatidagi musiqa maktablari, Urganch sanʼat kolleji, Urganch davlat universiteti va Oʻzbekiston konservatoriyasi) da oʻzlashtirilmoqda.

Xorazm maqomlari namoyandalari va saqlovchilari — Xudoybergan Muhrkan, Matpano Xudoyberganov, Matyoqub va Matyusuf Xarrot, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, R. Jumaniyozov, I. Ibrohimov, K. Otaniyozov, O. Xudoyshekurov, R. Qurbonov, F. Davletov, R. Boltayev va boshqalar hisoblanadi. Xorazm maqomlari Urganch shahrida tashkil etilgan “Xorazm maqom markazi”, Urganch, Xiva, Xonqa tumanlaridagi havaskor maqom ansambllari tomonidan targʻib etilmoqda. Yosh ijrochilar maqom anʼanalarini K. Otaniyozov va H. Boltayevlar nomidagi (Xorazm) hamda O. Xudoyshekurov nomidagi (Qoraqalpoq Respublikasi) tanlovlarda namoyish etmoqdalar.

**Fargʻona-Toshkent maqomlari** — Oʻzbekistonda maqomchilik sanʼatining Fargʻona vodiysida XIX–XX asrlarda keng tarqalgan ashula va cholgʻu maqom yoʻllari boʻlib, Fargʻona vodiysi mumtoz musiqa merosida yetakchi oʻrinlarni egallaydi. Shashmaqom shoʻba (saraxbor, savt, qashqarcha, soqiy- noma, ufar)lari negizida va mahalliy ijrochilik anʼanalari bilan sugʻorilgan. Fargʻona-Toshkent maqom cholgʻu

turkumlari: “Mushkiloti Dugoh I–III”, “Ajam taronalari I–III”; “Chorgoh I–V”, Miskin I–VII”; ashula turkumlari: “Nasrulloiy I–III”; “Chorgoh I–V”, “Bayot I–V”, “Bayot Sheroziy I–V”, “Shahnoz-Gulyor I–V”; “Dugoh-Husayniy I–V”.

Cholg‘u yo‘llari yakkasoz yoki cholg‘u ansambli ijrosida, ashula yo‘llari esa xonanda va cholg‘u ansambli jo‘rnavorligida talqin etiladi. Farg‘ona-Toshkent maqom turkumlaridan tashqari alohida maqom cholg‘u va maqom ashula yo‘llari yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg‘ona vodiysiga xos ashula (Toshkent Irog‘i, Ko‘cha bog‘i), katta ashula (Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi Chorgoh) va cholg‘u yo‘llari (CHO‘li Iroq), “Samarqand yoki Hoji Abdulaziz Ushshog‘i”, “Toshkent yoki Mulla To‘ychi Ushshog‘i”, “Xo‘jand yoki Sodirxon Ushshog‘i” va boshqalar yuzagakelgan.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari xalq hayoti bilan bog‘liq turli vaziyat va sharoitlar (to‘y marosimi, dorbozlar o‘yini, sayil va bayramlar) da ham ijro etilgan. Maqomlar an’anaviy “ustoz-shogird” maktablari, yangi musiqa ta’limi tizimi (san’at kollejlari va konservatoriya hamda musiqa maktablari) orqali o‘zlashtirilmoqda. Farg‘ona-Toshkent maqomlarini targ‘ib etishda A. Abdura-sulov, T. Toshmuhamedov, S. Bobosharifov, Yunus Rajabiy, A. Umrzoqov, J. Sultonov, M. Uzoqov, R. Mamadaliyev, aka-uka Shoumarovlar, aka-uka Shojalilovlar, O. Hotamov, O. Alimaxsumov, O. Imomxo‘jayev, X. Nosirova, S. Qobulova, T. Qodirov, K. Raximov, O. Otaxonov, T. Alimatov, A. Ismoilov, M. Tojiboyev, M. Yo‘ldoshev, M. Yo‘lchiyeva va boshqalar maqom yo‘llarini yanada boyitish, yoshlar orasida targ‘ib etishda katta hissa qo‘shganlar. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari Xalqarova Respublika miqyosidagi yosh maqom ijrochilari va maqom ansambllari tanlovlari dasturidan o‘rin olgan.

#### 4.5. Maqom cholg‘u yo‘llari

**Dutor (forscha — ikki tor) — torli chertim musiqa cholg‘usi**, Markaziy Osiyo xalq (o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq) lari madaniyatida keng tarqalgan. Xorazmda dutor maqom turkumlari XIX–XX asrlarda keng tarqalgan bo‘lib, “Xorazm tanbur chizig‘i” da oltita dutor maqomi — Zihiy Nazzora-Urganjiy, Miskin, Rahoviy, Iroqiy, Oxyor, Choki Giribonlar va ularning turkum (2 tadan to 7 tagacha) qismlari yozib olingan. Har bir maqom turkumi o‘ziga xos kuyi, shakli, usullari, kuy rivoji va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Namoyandalari — T. Alimatov, F. Sodiqov, Q. Madraimov, N. Boltayev, Madraim Sheroziy, A. Hamidov, M. Ziyoyeva va boshqalar.

**Surnay — puflama-damli musiqa cholg‘usi**, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari madaniyatida keng tarqalgan (surnay, karnay, zurna va h.k.). O‘zbekistonda surnay, metar nomlari bilan hamma hududlarda uchraydi. Surnayning ikki turi tarqalgan — Farg‘ona–Toshkent (menzurasi kengroq, tovushi mayin va nolali) va Xorazm (menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq).

Farg‘ona vodiysida surnay maqom cholg‘u yo‘llari ommalashgan bo‘lib, to‘y marosimlari va xalq shodiyonalarida — Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh,

Iroq, Uz zol, Dugoh Husayniy, Chorgoh va boshqalar ijro etilgan. Bu asarlarning ijodkorlari o'zbek bastakorlari va yetuk surnaychi-sozandalari bo'lishgan. Surnay maqom cholg'u yo'llari alohida asar va turkum sifatida ijro qilingan — bular “Surnay Navosi”, “Surnay Dugohi”, “Navo — Navosavti — Navo charxi 1–2” va hokazo. Surnayni targ'ib etishda Toshkent, Xorazm va Farg'ona vodiysi sozandalarning xizmatlari katta (Rustam mehtar, Ashurali mehtar, Xamroqul bulaman, A. Umrzoqov, Xudoy-bergan Qurbon o'g'li, A. Azimov, Q. Bobojonov, Y. Tojiyev, A. Yusupov, A. Xojiboyev, M. Matyoqubov va boshqalar).

Dutor va surnay yoshlar orasida keng tarqalgan cholg'ular bo'lib, Respublika miqyosida tanlovlar muntazam ravishda o'tkazilmoqda. Dutor va surnay oliy, o'rta maxsus musiqiy ta'lim muassasalari hamda musiqa maktablari o'quv jarayoniga kiritilgan.

#### 4.6. Xalq musiqa ijodiyoti janrlari

**Dostonchilik san'ati** — xalqog'zaki poetik ijodidagi qadimiy epikan'ana, nomoddiy madaniy merosning eng yorqin namunalaridan biri. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa cholg'usisiz, keyinchalik ma'lum bir musiqa (do'mbira, qo'biz va hokazo) ijrosida marosimlarda kuylanadigan asarlar yaratilgan.

Dostonchilikning qadimiy namunalari ibtidoiy davrlarda turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz-shogirdlik an'analari vujudga kela boshladi. Natijada XV–XVI asrlarga kelib ko'pgina dostonchilik maktablari paydo bo'ldi, XIX asrga kelib yanada taraqqiy etdi. Bugungi kunga qadar Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Qoraqalpoq kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, kabi boshqa markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra birbiridan ajralib turadi. Har bir maktab yoki baxshining nomi va faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, Qo'rg'on dostonchiligi Ergash Jumanbulbul, Bulung'ur dostonchiligi Fozil Yo'ldosh o'g'li, Narpay dostonchiligi Islom Nazar o'g'li, Shahrisabz dostonchiligi Abdulla Nurali o'g'lining faoliyati bilan bog'liq.

Dostonchilik rivojlangan hududlarda (masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim tumanlarida) qat'iy tartibga rioya qilinadi: doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtiriladi, to'y-hasham, katta yig'inlar baxshilarsiz o'tmaydi. Baxshi do'mbira jo'rligida «Kunlarim»,

«Do'mbiram» termalarini aytib, tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi va so'ngra dostonni boshlaydi.

O'zbekiston hududida doston ijrochiligining uch xil uslubi mavjud:

1. Surxondaryo-Qashqadaryo (yopiq ovozda, do'mbira cholg'usi jo'rligida

kuylash) ijrochilik uslubi;

2. Xorazm (ochiq ovozda dutor (tor), doira va bo'laman cholg'ulari jo'rligida kuylash) ijrochilik uslubi

3. Qoraqalpoq ijrochilik uslubi. O'z navbatida 2 uslubga — baxshichilik (ochiq ovozda faqat ishqiy dostonlarni dutor jo'rligida kuylash) va jirovchilik (yopiq ovozda faqat qahramonlik dostonlarini qo'biz cholg'usi jo'rligida kuylash) bo'linadi.

**Lapar.** Xalq ijodiyotining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan lapar ijrochiligi san'ati o'zining boy tarixiga ega. Lapar qo'shiqlari taniqli san'atkorlar tomonidan bayramlar, xalq sayillari va nikoh to'ylarida, kechqurun qizning uyida o'tkaziladigan "Qiz oqshomi", "Qizlar bazmi", "Lapar kechasi" deb ataluvchi bazmlarda ijro etiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytadilar, bir-birlariga muhabbat izhoretib, ahdupaymon qilishgan, sovg'alar berishgan.

Dastlabki davrlarda erkak va ayol ijrochi ishtirok etgan qadimiy laparlar o'ziga xos musobaqa jarayoni ko'rinishida bo'lgan va bunday ko'rinishdagi mustaqil janrlar hozirgacha turli xalqlarda saqlanib qolgan.

Barcha janrlarda bo'lganidek, laparlarda ham o'zgarish ro'y berib, sekin asta undagi ikki jinsning ishtiroki yo'qoldi va faqat ayol ijrochi tomonidan raqsga tushib ijro etiladigan ko'rinishga kelib qoldi. Bundan tashqari, undagi improvizatsiya uslubi o'z o'rnini ijrochilar tomonidan oldindan tayyorlangan xalq termalariga bo'shatib bergan bo'lsa, keyinchalik laparlar maxsus bastakorlar va shoirlar tomonidan yaratiladigan musiqiy janrga aylandi.

Keyingi taraqqiyot jarayonida yakka (ayol) ijrochi tomonidan namoyish etiladigan yangi ko'rinishdagi laparlar yirik san'atkorlar repertuariga o'tib, qaytadan sayqal topib, el orasida ijro etila boshladi. Bunday laparlar Tamaraxonim, Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Mehri Abdullayeva, Rahima Mazohidova, Klara Jalilova, Tursunoy Mamedova, Gulshod Otaboyeva kabi ko'plab yirik san'atkorlar repertuaridan mustahkam joy oldi. Shutariqa laparlarning ikki xil ko'rinishi paydo bo'ldi.

Lapar ijrochiligini saqlab qolish va kelgusi avlodga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan har ikki yilda "Lapar va o'lan ijrochilarining Respublika ko'rik-tanlovi" o'tkazilmoqda. Oliy va o'rta maxsus madaniyat va san'at ta'lim muassasalari fan dasturlariga laparlarni o'rganish kiritilgan, maxsus o'quv qo'llanmalar chop etilib, iqtidorli lapar ijrochilarining ijodi ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilinmoqda.

**Yalla** — raqs bilan ijro etiladigan sho'x qo'shiqjanri bo'lib, odatda ishqiy-lirik mazmunga ega bo'ladi. U yakkanavoz (xonanda yoki yallachi) tomonidan cholg'u ansambli jo'rligida ijro etiladi.

Yallalar ikki turgabo'linadi:

mumtoz yallalar xalq yo‘lidagi yalla- larga nisbatan keng diapazonli rivojlangan kuyi, jozibali va o‘ynoqi xarak- teri bilan farq qiladi;

xalq yallalari esa tor diapazonli bo‘lib, uning she’riy matnidagi har bir bandi va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan aytilib kelingan.

O‘ynoqi xarakteridagi kuy hammani raqsga chorlaydi (yalla xalq tilida — bu “o‘ynab kuylash qo‘shig‘i” ma’nosini bildiradi), jumladan, “Yallama yorim”, “Ho-ho yalla”, “Qizgina” kabi xalq yalla- lari.

Mumtoz yallalar she’riyat va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy topgan. Har bir yallada she’rlar soni kuy va hajmiga mutanosib bo‘lib, asarning kuy tuzilishi, rivoji va shaklini ta’minlaydi. Kuylari jozibali xarakterda bo‘lib, asosan ufori usulida ohanglar takroriga asoslangan, o‘ziga xos raqs bop o‘lchovli ritm-usulida aytiladi.

Yallada ijro etiladigan raqslar musiqiy omillar vositasida yana ham yorqin tus olgan, uning jonli va raqs bop usuli o‘ziga xoslikni ta’minlaydi. Yallalarning ta’sirchanligi-hamma vositalarning (kuy, so‘z, raqs harakati) bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xush kayfiyat bilan ijro etilishidadir.

Mumtoz yallalar yakkanavoz tarzida cholg‘u ansambli jo‘rligida aytiladi. O‘zbek ijrochilik san’atida Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov kabi xonan- dalar repertuarlarida yallalar salmoqli o‘rin olib, keng omma orasida targ‘ib etilgan, jumladan, “Qalam qoshli- ging” (yoki “Jonon bo‘laman”), “Mustahzod” (M. Xarratov ijodi), “Dog‘man”, “Sura- ting”, “Parvo etib ket”, “Yakka bu Farg‘o- nada”, “Ko‘zlarig” (M. Mirzayev ijodi) va boshqalar.

Namanganda yalla turkum (Katta yalla va kichik yalla) lari mavjud bo‘lib, yallachi ayollar tomonidan doira jo‘rligida to‘y marosimlari va bazmlarda ijro etiladi. Ijrochilik amaliyotida ashula va yalla turkumlari ham mavjud, jumladan, “Yor istab” va “Mustahzod”, “Farg‘ona ruboyisi” va boshqalar. Hozirgi kunda yallalar estrada yo‘nalishida ham ijro etilmoqda.

**O‘lan.** Xalq qo‘shiqlari kechinma va tuyg‘ularining samimiyligi, obrazlarning tabiiyligi, jonliligi, so‘z va kuy mutanosibli, mantiqiy izchilligi, ixcham shakllari bilan kishini maftun etadi. Xalq qo‘shiqchiligining O‘zbekistonda saqlanib qolgan eng qadimiy ijro uslubi — o‘lan hisoblanadi. Uning ijrosidagi badihago‘ylik, kuy yo‘lining o‘ta soddaligi, ijro jarayo- nida qo‘shiqning matniga asosiy e’tibor- ning qaratilishi buni isbotlaydi. Qardosh qirg‘iz, qozoq xalqlarida “Aytis” ko‘rinishida saqlanib qolgan va ommalashgan qo‘shiq janrining ildizlari ham o‘larga borib taqaladi. Aytis o‘landan farqli ravishdazamongamoslashgan, ya’nimusiqa cholg‘usi jo‘rligida va sahnalarda ijro etilsa, o‘lan musiqa cholg‘usi ishtirokisiz, ijrochi o‘zi tanlagan ohangda ijro etiladi. O‘lan odatda ikki jins — yigit va qiz (erkak va ayol)



tomonidan navbatma-navbat ijro etilib, yigitlar bir tomonda, qizlar boshqa tomonda turib o'z vakillarini hayqiriqlar bilan qo'llab turishi asosida ijro etiladi. O'lanlarda qochiriq, sevgi harorati, yoshlik sho'xliklari g'oyat samimiy, ko'tarinki ruhda tarannum etiladi. Davralarda o'lan ayta bilish o'ziga xos salohiyat, ijrochilik mahoratini talab etadi. O'lan qo'shiqlari yoshlarni badiiy-estetik didli, kamtarin, ochiq ko'ngilli, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrda ijod qiluvchilar hozirda Toshkent viloyatining Ohangaron vohasi, Jizzax viloyatining Zomin va Forish tumanlari, shuningdek, Navoiy viloyatining tog'li Nurota tumanlarida ko'proq saqlangan.

O'lan ijrochiligini targ'ib etish maqsadida an'anaviy ravishda "Lapar va o'lan ijrochilarining Respublika tanlovi" o'tkazib kelinmoqda. Bunday tadbirlar natijasida Andijon, Namangan, Samarqand viloyatlarida ham o'lan ijrochilar paydo bo'lganligini kuzatish mumkin.

#### 4.7. Lokal janrlar

**Katta ashula** yoki patnis ashula — Farg'ona vodiysiga xos yirik ashula yo'li hamda o'ziga xos ijro uslubi va usuli. Ikki yoki undan ortiq (beshtagacha) yetukxonanda tomonidancholg'ujorligisiz galma-gal aytiladi. Uning asosiy xususiyatlari badihago'ylik, hamnafaslik, yuqori pardalarda, keng nafasda ijro etilishi, erkin uslubda kuylanishi, so'z va kuy mutanosibligi, professionallikdir. Baland pardalarda ijro etilishi, katta avjlar mavjudligi, so'zlarning tinglovchilarga ravon yetib borishi va ta'sirchanligi katta ashulaga xos. Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga ehtiyot bo'lishni, she'rning ma'nosini tinglovchilarga to'la yetkazishni talab qiladi.

Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, ayolg'u qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy o'qilish uslublari, aytim ijrochilik madaniyatining yuksalishi zaminida o'rta asrlarda vujudga kelgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihat tomuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvufiy yo'nalishdagi she'rlar ham kuylanadi. A. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g'azallari katta ashula janrida alohida o'rin olgan. XX asrdan boshlab zamonaviy o'zbek shoir (Sobir Abdulla, Charxiy, Chustiy, Akmal Po'lat, Habibiy va b.)larning she'rlari va xalq she'riyati ham qo'llaniladi. Mavzui jihatidan katta ashula ishqiy-lirik, falsafiy, diniy va zamonaviylarga bo'linadi. Katta ashulada so'z kuy bilan bir usulda "nafas" oladi. Shu bois she'r va kuy bir-biriga shu qadar uyg'unlashib, bir-biriga singib ketganki, o'zini alohida eshitganda she'rni ham tinglayotgandek bo'lasiz. Bu ashulalar baland pardalarda ijro etilishi, ko'tarinki mavzudagi she'rlarni qo'llanishi hamda katta yig'inlarda, sayillarda, to'y-tomosh va ochiq havoda aytilishi tufayli ular "katta ashula" deb ataladi.

Katta ashula xalq orasida "ashulai kalon", "katta yalla", "haqqoniy ashula" nomlari bilan yuritilgan. Uning ikkinchi nomi patnis yoki patnusaki ashula

hamda likobcha ashula deb atalgan. Ashulani hofizlar qo‘llariga patnis yoki likobcha ushlab, harakatlartinishadi (ovozlarni tinglovchiga yo‘naltirish, o‘zlari eshitish hamda uni silkitish orqali ovoz bezagiga yordam berish holda). Katta ashulaning rivojlanish jarayonida uning janrlar tarkibi shakllandi: an’anaviy — ikki hofiz tomonidan aytilishi (Bir kelsun, Oh kim, Ey, dilbari jonon); “yovvoyi maqom” — maqom sho‘balari erkin uslubda jo‘rsiz talqin etilishi (Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi Chorgoh, Patnusaki Segoh); “yovvoyi ashula” — ommabop ashula yo‘llari erkin uslubda kuylanishi (Yovvoyi tanovar, Yovvoyi munojot); “yakkaxonlik” yoki ashula-cholg‘u yo‘li — yakka ijroda cholg‘u ansambli (ikkinchi xonanda vazifasi) jo‘rligida (J. Sultonov tomonidan ijod etilgan “Oh kim”, “Gulizorim qani”, “Yolg‘iz”, “Topmadim”); cholg‘u yo‘li — yakkasoz nay, surnay, tanbur, g‘ijjak uchun (Yovvoyi Chorgoh). XX asrdan erkak xonandalardan tashqari ayollar ham katta ashulani ijro etishgan (Xalima Nosirova, Fotima Boruhova, Zaynab Polvonova).

Katta ashulaning ijrochilik madaniyati yuksalishida uning o‘ziga xos ijrochilik maktablarishakllandi — Qo‘qon (Erkaqori Karimov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Hamroqul qori, Meliqo‘zi Yusupov, Turdiali Ergashev, Rasulqori Mamadaliyev), Marg‘ilon (Mamadbuva Sattarov, Boltaboy Rajabov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Turdiali Sharipov rahbarligidagi “Chorgoh” guruhi), Andijon (Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Saidnabi Saidnazarov, Jo‘raxon va Ergashvoy Yusupovlar, Xurshid Hasanov), Namangan (Mallaboy Hamidov, Abdulla G‘oziyev, Ibrohim Isoqov), Toshkent (Akbar qori va Eshmat Haydarovlar, Ochilxon Otaxonov, Orif Alimaxsumov, Mahmud Tojiboyev, Munojot Yo‘lchiyeva, Beknazar Do‘stmurodov, Abdunabi Ibrohimov, Soibjon Niyozov, Dilnura Qodirqulova, Nodira Pirmatova). Katta ashula nafaqat an’anaviy “ustoz-shogird” maktab (Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon) lari, balki zamonaviy musiqa ta‘limi tizimi (akademik litsey, san‘at kollejlari va konservatoriya) orqali o‘zlashtirilmoqda.

Katta ashula an‘analarini saqlashda ilmiy tadqiqotlar, nashr (kitob va to‘plam) lar, audio va video yozuvlar, filmlar, teleko‘rsatuvlar, tanlovlar, ayniqsa, yoshlar orasida ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda.

Katta ashula ijrochilari VII-chi Xalqaro Musiqa Kongressi (Moskva, 1971), IV-chi Osiyo Musiqali Minbari (Filippini, 1976), Yevropa folklor festivali (1985), AQSH musiqa folklor festivali (1987), “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali (Samarqand, 1997–2017), “Asrlar sadosi” An’anaviy madaniyat festivali (O‘zbekiston, 2008–2013) kabi yirik anjumanlarda, Navro‘z va Mustaqillik umumxalq bayramlarida o‘z ijrochilik mahoratlarini namoyish etmoqdalar. 1984-yildan boshlab Respublika miqyosida muntazam ravishda katta ashula ijrochilari tanlovlari o‘tkazilmoqda (2013 yili Toshkent viloyatda bo‘lib o‘tdi). Katta ashulani muhofaza qilish, saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha tarjiba loyihasi YUNESKOning

ASSU (Yaponiya) markazi tomonidan Oltin medali bilan taqdirlandi. Katta ashula 2009 yilda YUNESKOning “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” Rerezentativ ro‘yxatiga kiritildi.

**Mavrigi.** Qadimiy eroncha, aniqrog‘i, zardushtiylar zamoniga xos libosdagi o‘n chog‘li erkak o‘tirgan holda doira bilan xalq taronalarini kuylashadi. Parda ortidan kuyga mos ravishda kichik qadamlar bilan chiqib kelayotgan raqqosa ko‘rinadi. U o‘z harakatlari bilan oshiq va ma‘shuqa o‘rtasidagi ishq muhabbatni vasfetgan bo‘ladi.

Asosan, sof fors-tojik va o‘zbek tillarida kuylangan qo‘shiq-larga faqat childirma jo‘r bo‘lib turadi. “Shahd” deb nomlanadigan debochada avval tomoshabin tayyorlanadi. “Taraqqiy” deb nomlangan ikkinchi bosqichda ritm jonlanadi va bu tomoshabindazavq-shavquyg‘otadi. Uchinchi qismesa “Pirovard” deb nomlanadi. Bu bosqichda tomoshabinning ruhiy holati o‘zgaradi, ya‘ni sahnada ko‘rayotganlari bilan rohatlanadi. “Mavrigi”da boshqalarning qo‘shiqchilik uslubidan farqli holat muhim. Agar holat bo‘lmasa, ijrochi o‘z kechinmalarini tinglovchiga yetkazib bera olmaydi.

“Mavrigi” nomi O‘zbekistonning Buxoro mintaqasida 16-asrlarda paydo bo‘lgan. O‘sha davrda Eron shohi Nodirshoh Buxoroga kirib kelganida lashkarining asosiy qismini tashkil etgan marvlik askarlari Buxoroda qolishni ixtiyor qilgan.

Ammo Buxoro amiri ularning shahar ichkarisida yashashlariga izn bermagach, ular Buxoro darvozasi tashqarisida qolib yashay boshlaganlar.

Vaqt o‘tishi bilan ular buxoroliklar orasida o‘z san‘atibilantani lgan. Ular Marv shahridan bo‘lganlari uchun ham hozirgacha saqlanib qolgan bu san‘at uslubiga “marvigi” deya nom berilgan ekan.

Butun sharq san‘atining yig‘indisi sifatida Buxorodagina mavjud bo‘lgan mavrigi uslubi buxoroliklarning say-harakatlari tufayli bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Va faqat doira yordamida erkaklar tomonidan kuylanadigan kuy-qo‘shiq-lar majmuiga mavrigi deyiladi. U insonning ruhini ko‘taradi va o‘sha orqali tomoshabinga, tinglovchigata s‘iretadi.

Mavrigi uslubi oldindan ham buxoroliklar orasida bo‘lgan va asosan to‘y-tomoshalarda kuylangan.

Kelibchiqishi Erongaborib taqalsa-da, ammo asosan Buxoro uslubiga moslanib kuylanadigan taronalar shiru shakar, ya‘ni ikki tilda o‘zbek va tojik tillarida bo‘lgani bu ikki xalqning bir-biriga azaldan qon-qardosh aka-uka ekanidan darak. Mavrigi bu bir necha xalq madaniyatining sintezidir.

Mavrigi Buxoro viloyatidagi “Mavrigi” folklor-etnografik guruhi, “Nozanin” va “Mohi sitora” folklor ansambllari tomonidan tiklanib, targ‘ib etilmoqda. Mavrigi ijrochiligi-gining yetuk namoyandalari — Tuhfaxon Pinhasova, Olima Hasanova, Orif Atoyev, Haydar Shodiyev, Murod bobo Hasanov,

Ra'no Musayeva, Bog'dagul Turayeva, Gulchehra Mamedova, Matlab Rajabova va uning farzandlari — Mashrab, Mashkura va Murod Qodirovlar hisoblanadilar.

**Suvora** (forscha “suvoriy” — otlıq) — Xorazm hududida keng tarqalgan yirik ashula yo'li bo'lib u Xorazm maqomlari tarkibiga kiritilgan. Suvora o'tmishda tasavvuf oqimining musiqa san'atidagi ko'rinishidir.

Suvoralar, qadimda diniy so'zlar bilan aytilib, ijrochilarni “go'yanda” (aytimchi) deganlar. Suvora so'zi “suvoriy” so'zidan chiqqanligi bejiz emas, chunki Suvoralarning ritm, doira usullari o'tning oyoq tovushi holatini eslatadi. Shuning uchun ham musiqa ijodiyotida o't bilan bog'liq asarlar juda ko'p uchraydi.

Suvoralarning bizgacha beshta asosiy yo'li va yigirmaga yaqin Savti suvora va Ufori suvorolari yetib kelgan. Suvoraning ashula yo'li oddiy 2/4 o'lchovidagi doira usulida mumtoz shoirlarning she'rlari asosida ijro etiladi. Eng qadimiy — Ona suvora Ogahiy va Mashrab so'zlari bilan aytiladi. Suvora ashula yo'llari orasida Chapandozi suvora, Yak parda suvora, Kajhang suvora, Qo'sh parda suvora, Besh parda suvora kabi asarlar keng tarqalgan. Savti suvora 12 qismli va unda ko'p qismli bo'lishi mumkin, undan keyin Ufori savti suvora va Gul ufor savti suvoralar ham ijrochilik amaliyoti bo'lgan.

Ijrochilik amaliyotida mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan Suvoralar mavjud — Suvorai Komil (Komiljon Otaniyozov ijodi), Qorchmoniy suvora (Hojixon Boltayev), Indamas suvora (Quvondiq Iskandarov), Go'jayi suvora (Ozod Ibrohimov), Nim parda suvora (Rahmatjon Qurbonov) va boshqalar. Suvoralar ijrochilari orasida Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Madraim Sheroziylar alohida o'rin tutgan. Jumladan, Hojixon Boltayev repertuarida 50 dan ortiq suvora maqom ashula yo'llari, ashula turkumlari, ashula yo'llari o'rin olgan. Suvora ashula yo'llari asosida Xorazmda xonandalarning ijodiy musibaqalari “Diyralashma” o'tkaziladi (bir kuy asosida turli mavzuidagi she'rlar ijro etilishi lozim). Suvoralar asosida zamonaviy estrada qo'shiqlari ham yaratilmoqda (Og'abek Sobirov, O'lmas Olloberganov va boshqalar).

**Feruz** (noyob tosh ma'nosida) — Xorazmda keng tarqalgan va mashhur ashula yo'llari. Besh qismli ashula yo'li turkumi: Feruz 1, Feruz 2, Feruz 3, Feruz 4 va Feruz 5. Xorazm maqomlari turkumining “Navo” va “Segoh” maqom sho'balari asosida yuzaga kelgan. Lekin ular maqomlar doirasidan tashqari tursa ham, salohiyati aslo kam emas. Feruzlar o'zining kuyi, tik avjlari va ularning ijrosidagi qochirimlari bilan Xorazm slubini belgilovchi ashula yo'llari hisoblanadi. XIX asrning boshida Muhammad Rahimxon I (1807–1826) davrida yuzaga kelgan va Xorazm mumtoz ashulalari orasida “Feruz” deb nom olgan.

Ayniqsa, Feruz 1 va Feruz 2 ashulalari o'z davrida xalq og'ziga tushib, ziyofatlarining ko'rkiga aylanib kelgan. Shu bois xalq orasida birini “tillo uzuk” deb, ikkinchi- sini

unga “gavhar qoshdek” yarashib kelibdi deyishgan. Keyinchalik savt va ufar shakllari negizida yangi Feruzlar yuzaga kelib, ashula turkumi sifatida ommalashgan. Manbalarga ko‘ra kuylari va she‘rlari muallifi taniqli shoir va bastakor Feruz bo‘lgan. “Feruz” taxallusi Xiva hukmroni bo‘lmish Muhammad Rahimxon II Soniyga (1864–1910) tegishli.

Muhammad Rahimxon Soniy musiqiy ilmga g‘oyat havasli bo‘lib, musiqiy ishlarni oldingi zamonlardan ko‘ra yanada yuksak darajada rivojlanishiga da‘vat etdi. Buning natijasida Xorazmda mislsiz musiqiy qayta uyg‘onish yuzaga keldiki, muhtasham maqom an‘analari- ning rivoji davlat ahamiyatidarakasiga ko‘tarildi. Uningtashabbusibilan Xorazm tanburvadutorma qomlari maxsus “tanbur chizig‘i” orqali yozib olindi va amaliyotda qo‘llanib kelindi. U yaratgan cholg‘ukuyllari Xorazm maqomlarining Chertim yo‘llari tarkibi (Muhammasi Feruz, Musaddasi Feruz va b.)ga kirgan. Feruz turkumining ijrosi har bir xonandadan ovoz mahoratini talab etadi.

Feruz ashula turkumi to‘liq ravishda Hojixon Boltayev repertuaridan o‘rin olgan. Feruz 1–2 ko‘pgina xonandalar tomonidan talqin etilgan, hozirgacha katta ovoz diapazoniga egabo‘lgan professional va havaskor xonandalar tomonidan sevib ijro etiladi.

**Xalfa** — Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol. Xalfalar faoliyat ko‘rsatish sharoitiga ko‘ra ikki yo‘nalishga bo‘linadi: to‘y va bazmlarda qo‘shiqlar ijro etuvchi “sozi xalfa” hamda “kitobiy xalfa”. Ularning ikkalasi ham “ichkari”da ayollarga xizmat qilgan.

“Sozi xalfa”lar san‘atida jo‘rnavorlik va yakka ijrochilik mavjud. Ansambllar uch kishidan tarkib topadi: xalfa (garmon chaladi va qo‘shiq aytadi), doirachi (qo‘shiqlarga jo‘r bo‘ladi, ba‘zan raqs tushadi) va o‘yinchi (raqs tushadi va lapar aytadi). Xalfa repertuarlaridan asosan, (To‘y muborak), “Yor-yor”, “Oshiq” turkumidagi (“Tohir va Zuhra”, “Oshiq Alband”, “Asli va Karam”, “Xurliqo va Hamro”) dostonlardan parchalar, Maxtumquli va boshqa shoirlarning she‘rlari asosida nasihat va raqsbop qo‘shiqlar o‘rin olgan. Ijodkor xalfalar zamonning muhim masalalariga bag‘ishlangan asarlar yaratib, ularga o‘zlari kuy bastalaganlar. Masalan, Xonim Suvchi Sayidahmad qizi (1858–1926)ning “Bevafozolim”, Bibijonim Qosim Devon qizining “Ayrildim”, Ojiza (Onabibi Otajonova, 1889–1961)ning 30 dan ortiq qo‘shiqlari Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoyberganova va boshqa xalfalar tomonidan kuylanmoqda.

“Kitobiy xalfa”lar esa, asosan, ta‘ziya, “Ulli pir”, “Mushkul kushod” kabi marosimlarda “G‘avsuli A‘zam”, “Payg‘ambar hikoyati”, “Bobo Ravshan” “Bibi seshanba” va boshqa diniy mavzudagi kitoblarni yakka xolda o‘qibayollar dardini yengillatishgan.

Xalfalar mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlari va marosimlarda qatnashadilar. Jumladan, nikohto'ylarini "To'y muborak" yoki "To'y boshlovi" qo'shiqlari bilan ochib beradilar hamda "To'y javobi" bilan yakunlaydilar. Xalfachilik an'analari Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a, To'rtko'l, Beruniy tumanlarida hozirgi kunda ham keng davom etmoqda.

Hozirda xalfachilik an'anaviy "ustoz-shogird" maktablaridan tashqari musiqamaktablari, san'at kollejlarida o'zlashtirilmoqda. Respublikamizda Xalfa ijrochilari tanlovi Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a viloyatida "Nafosat bo'stonim manim" nomli festival doirasida (2013 yildan) o'tkazilmoqda. Xorazmlik xalfalar o'z san'ati va ijrochilik mahoratlarini "Boysun bahori" Ochiq folklor festivali, "Asrlar sadosi" An'anaviy madaniyat festivali va "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivallarida namoyish etmoqdalar.

#### 4.8. Raqs san'ati

O'zbekiston hududida raqs harakatlarining dastlabki namunalari paydo bo'lishi "Navro'z" marosimi tarixi va Zardushtiylik dinining O'zbekiston hududiga kirib kelishi bilan bog'liq.

O'zbek raqs san'ati aniq ritm (usul)ga asoslanadi va raqs harakatlari ritm o'zgarishi asosida tizimga solinadi. Kuy ijrosida doira (urma cholg'u)ga kuyni ijro etuvchi cholg'ular jo'r bo'lgan paytda ham raqs ijrochilari faqat usul (ritm) larning soni va tarkibiga ko'ra o'z harakatlarini rejalashtiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida bo'lgan 5 raqs maktabi mavjud:

1. Farg'ona-Toshkent
2. Buxoro-Samarqand
3. Xorazm
4. Qoraqalpoq
5. Surxon

Dastlabki 3 ta maktabning paydo bo'lishi shu hududlarda davlatchilikning (Qo'qon xonligi, Xorazm xonligi va Buxoro amirligi) mavjudligi bilan izohlansa, qoraqalpoq millatining keyinchalik ushbu hududga ko'chib kelishi yanabir yangi maktabning O'zbekiston hududida shakllanishini ta'minlagan. Surxon raqs maktabining shakllanishiga ushbu hududda saqlangan o'ziga xos raqs harakatlarining davr sinovidan o'tib, ma'lum bir tizimga keltirilishi va boshqa maktablardan farqli harakatlarni o'zida mujassam etganisabab bo'lgan.

O'zbek guruhli raqs ijrochiligi ham uzoq tarixga ega emas. Ayollar davrasiga nomahram erkakning kirishi ta'qiqlangan sharoitda balog'at yoshiga yetmagan o'g'il bola sifatida shunday imkoniyatga ega bo'lgan Yusufjon qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilovlar buning uddasidan chiqib, keyinchalik guruhli raqslarni sahnalashtirishgan. Toshkentlik — Kenjaboy Tursunov, Mullo Shobarot Shosolihov; buxorolik — Usta Toji Sobirov, Mixal xonim Xaimova, Bibishirin Mamanova;

qo‘qonlik — Mahkam Hofiz, Kamolxon Muhammadjonova, Qumrixon Hamdamova; namanganlik — Usmonxo‘ja Fozilboyev, Sharofat yallachi; andijonlik — Mama- jonxo‘ja Usmonxo‘jayeov; farg‘onalik — Nazirxon; xorazmlik — Allabergenov, SafarMug‘anniy; marg‘ilonlik — Otaxo‘ja, Qimmatxon Sultonovalar raqs san‘ati- ning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shgan.

Hozirda har besh raqs maktablari bo‘yicha ijodiy jarayon professional va havaskor raqs jamoalari, shuningdek yakka ijrochilar tomonidan davom ettirilmoqda.

Farg‘ona raqslari qadimdan “Katta o‘yin” va “Kichik o‘yin” turlariga bo‘lingan. “Katta o‘yin” 280 dan ortiq doira usullariga mos harakatlardan tashkil topib, asosan katta maydonlarda ijro etilgan. “Kichik o‘yin” esa xonadonlarda ijro etilgan. Unda milliy cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq (yalla va lapar) larga raqs tushilgan.

Ayollar xonatlas, beqasam va krep- deshin matosidan tikilgan yoqali ko‘ylak, nimcha, ipak matosidan tikilgan ishton, boshlariga esa parang, durra shakllarida o‘ralgan ro‘mollardan foydalanishgan. Erkaklar bo‘z matosidan tikilgan ko‘ylak va nimcha yoki yengil xalat, milliy shalvor, oyoqlarida etik va boshlariga do‘ppi kiyib raqsgatushgan.

**Farg‘ona – Toshkent raqs uslubida** “Tanovar”lar muhim o‘rin tutadi. Tanovar raqsi faqat ayollar tomonidan ijro etilib, uning harakatlardagi mayinlik, mayuslik, ibo, hayo ifodasi mahalliy xalq xarakteri va mentaliteti bilan bog‘liq holda raqs san‘atida o‘z aksini topgan.

Tanovar (forscha– jasur, qudratli, kuchli) — “tan” — ya‘ni jismni, “ovar” — esa zavq olib kelish ma‘nolarini anglatadi. Ushbu ibora amaliy san‘atdan kelib chiqqan va iste‘molga kirib kelgan. Tanovar xalq qo‘shig‘i, mumtoz ashulasi va xalq — mumtoz she‘riyati asosida yaratilgan hamda raqs sifatida ham omma- viylashgan. Raqs harakatlarida o‘zbek qizi- ning sevgilisi bilan uchrashuvi va visolga yetishi aks ettirilgan. Tanovarning xalq aytim yo‘lidagi “Qorasoch”, “Sumbula” (xalq so‘zlari), “Endi sendek” (Muqimiy she‘ri) variantlari dutor jo‘rn avozligida ijro etilgan. Keyinchalik uning mumtoz ashula, katta ashula va cholg‘u yo‘llari shakllangan. “Tanovar”, “Adolat tanovari”, “Yovvoyi tanovar”, “Farg‘onacha Shahnoz”, “Qo‘qoncha tanovar”, “Marg‘ilontanovari”, “Namangan tanovari”, “Yangi tanovar” kabi lokal variantlari (20 ortiq); ashula turkumi (Tanovar I–V), bastakorlik ashulalari “Ulkun jonon” (M. Mirzayev), “Yovvoyi

tanovar” (J. Sultonov), “Tanovarni tinglab” (A. Ismoilov); cholg‘u yo‘llari “Qo‘qon tano- vari” (dutor), “Turg‘un tanovari” (dutor, tanburvasato), “Gulbahor va tanovar” (chang) ijod etilib, xalq orasida ommalashib ketgan. Tanovar– mashhur o‘zbek raqsi, ilk bor Mukarrama Turg‘unboyeva tomonidan XX asrning 40-chi yillarida sahnaga olib chiqilgan va o‘zigaxos raqs san‘ati asari sifatida ommalashib ketgan.

“**Xorazm raqsi — lazgi**”ning dastlabki elementlari inson tomonidan olov kashf qilingan davrda paydo bo‘lgan. Quyi Amudaryo (Markaziy Osiyo davlatlarini kesib o‘tuvchi yirik daryo) etaklarida yashagan xorazmiylar ushbu raqsning ijodkorlarisanaladi. Raqs ijrosida qo‘l va oyoq harakatlari muhim ahamiyatga ega va har bir ijrochi o‘z qobiliyatiga yarasha o‘z hissiyatini namoyish etadi. Lazgi 20 asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda faqat musiqa cholg‘ulari jo‘rgida ijro etilgan va 8 turi (“Masxaraboz”, “Qayroq”, “Surnay”, “Dutor”, “Saroy-bazm”, “Garmon”, “Changak”, “Xiva” (lagan bilan o‘ynaladigan) mavjud bo‘lgan. Qo‘shiq jo‘rgidagi “Yalla qo‘shiq lazgi”si ilk bor Komiljon Otaniyozov tomonidan ijro etilgan, hozirgi kungacha uning turli variantlari yaratilib kelmoqda. Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Zarip Latipov, Bikajon Raximova, Roviya Otajonova, Gavhar Matyaqubova, Malika Qalandarova, Saodat qayroqchi, Yaxshim qayroqchi, Shommi qayroqchi, Karimbergan Raximov, Otaxon qayroqchi, Oliya Otomurotova, Jumaniyoz qayroqchi kabi raqs ijrochilari uning saqlanishi va kelgusi avlodga yetkazilishida katta rol o‘ynadi.

Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumani Oqdarband qishlog‘ida yashovchi aholi o‘zining “Changak” lazgisi bilan, Xiva shahri “Xiva (chanoq) lazgisi” bilan, Shovot tumani Monaq qishlog‘i “Masxaraboz lazgisi” bilan tanilgan.

Muqadda Lazgi faqat yakka ijrochilar tomonidan o‘ynalgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Toshkent shahri (O‘zbekiston poytaxti)da uning sahnaviy shakllari xorazmlik mutaxassislar yordamida yaratildi. Raqs musiqasining avval tremolo (rez)da boshlanib, keyin juda bosiq tempdan asta-sekin tezlashib, raqs so‘ngida junbushga keladigan darajada tezlashuvi, uning jozibador o‘ynoqi xarakteri o‘ziga xos joziba kashf etishi sababli boshqa hududlarga tarqalgan. Hozirda raqs O‘zbekistonning barcha hududida ommlashgan bo‘lib, barcha ommaviy bayramlar, sayillar, konsertlar, oilaviy marosimlar davridagi xursandchiliklarda ijro etiladi. Hozirgi kunda uning yangi turlari yaratilishi davometmoqda.

**Buxoro raqsi** — o‘zbek xalq raqs uslublaridan biri. U Buxoroda shakllangan va rivojlangan. Harakatlarning mardona va shiddatliliigi, qayrilish, yarim qayrilish, shox va charxlarga boyligi bilan ajralib turadi. Raqqoslar kundal, adras, kimxob kabi matolardan keng qilib tikilgan kamzul yoki zardo‘zi yaktak, yakrang shoyidan salla o‘rab, oyoqlariga poshnali baxmal etik kiyib chiqqanlar.

Ayol raqqosalar, asosan, o‘rdalarda, ichkarida, xufyona bazmlarda xizmat qilishgan. Karvonsaroy, sayilgoh, to‘y kabi erkaklar yig‘iladigan joylarda ularning raqsiga tushishi ta‘qiqlangan. Shu sababli xotin-qizlar raqsini ham erkaklar (yasama soch taqib, ayollar liboslarida) ijro etishgan.

Odatda Buxoro raqsleri qo‘l harakatlari bilan boshlanadi, keyinchalik gavda harakatlari qo‘shilib, undan keyin oyoq harakatlari bilan to‘ldiriladi. Bunda



gavdaning turli holatlari, ortgabukilish, o'z o'qi atrofida aylanish, qo'llarning rang-barang harakatlari raqslarning jozibadorligini oshiradi.

Buxoroda ayollarning tizzaga o'tirib, o'rnidan turmasdan gavdani har tomonga bukib, yelkarni silkitib, qo'llarning epchil va chaqqon harakatlari vositasida ijro etiladigan raqsi "zamin bozi" (yer raqsi) deyiladi. Buxoro raqslarining eng murakkab turi – "larzon" (qo'l kaft-larini silkitish) bo'lib, bunda raqqo-salar turli taqinchoqlar bilan bezangan holda yalang oyoq raqsga tushadilar. Larzon raqsida raqqosalar butun gavdasini silkitib, yonayotgan olovda alanga harakatlariga o'xshash harakatlarni bajarishadi. Buxoro raqslaridagi har bir harakat o'z nomi va ramziy ma'nosiga ega. Buxoro raqqosalari qo'l va oyoqlariga zang (kichik qo'ng'iroqchalar to'plami) taqqan holda va qo'llarida qayroq tosh bilan raqsga tushishadi. Buxoro raqs an'alarining saqlanishi va keyingi avlodga yetkazilishida M. Xaimova, Chervonxonim, Isaxor Oqilov, Viloyat Oqilova, Tuxfaxonim Pinxasova, Oliyaxon Xasanova va boshqalarning xizmatlari katta. Hozirgi kunda Buxoro raqslari an'analari "Buxoro" va "Mavrigi" professional jamoalari, shuningdek Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan havaskor folklor-etnografik hamda raqs jamoalarida davom ettirilmoqda.

**Surxon raqslari** – ko'chmanchi aholining turmush tarzi bilan bog'liq raqs uslubi. Erkaklar va ayollar tomonidan ijro etiladi. Ayollar raqsida yengil va dadil qadam tashlash, ma'noli qo'l harakatlari, gavdaning mayin harakatlanishi kuzatiladi. Raqsga turmushda ishlatiladigan qoshiq, urchuq, chig'iriq, chiroq va boshqa ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

Erkaklar raqsida doimiy ravishda bir oyoqda sakrash, yerga cho'kka tushgan holda gavdaning aylanma harakatlari, qo'llarning samoga to'g'ri yoki yon tomonga xuddi qanotga o'xshab cho'zilishi bilan ajralib turadi. Raqsga pichoq, yog'och tayoqlar ko'proq ishlatiladi. Shu sababli bu raqslarning aksariyatida jangovarlik harakatlari asosiy o'rin tutadi. Surxon raqslarida barcha harakatlar ma'lum ma'noga ega. Masalan:

«to'lqama», «tebranma», «irchitma», «g'ajir qo'ndi», «qanot», «mo'ralash», «muloyim», «shilshila», «siltama», «uchirma» va hokazo nomlari bilan ataladigan raqs harakatlari ommaviy va yakka raqslarni sahnalashtirishda juda qo'l keladi.

Erkaklar raqslarida chorvachilik, ovchilik, hayvon va parrandalar harakatlariga taqlid qilish bilan bog'liq harakatlar ko'p uchraydi.

Ayollar libosida mahalliy matolar – alacha, bo'z, jandadan foydalaniladi. Matolarning ranglari esa juda yorqinligi bilan ajralib turadi. Raqqosalarning bo'yin, quloq va qo'llari zebigardon, zafaband, shodamarjon, bilakuzuk, zirak, nozigardon, kiftak, ko'kraktumor, munchoq, qo'l tiq tumor singari taqinchoqlar bilan bezatiladi. Ayollar harakatida bosh qismini o'ynatish, sakrama harakatlarning

qo'ldagimayin harakatlar bilan chatishgan holda ishlatilishi surxon raqslariga alohida joziba bag'ishlaydi.

Erkaklar yaktak yoki oddiy ko'ylak, sholvor kiygan holda oyoqlarida mukki (yengil teri choriq) bilan raqsga tusha- dilar. Surxon raqslarining saqlanishi va targ'ib etilishida Holik Xursandov, Abdulla Karim o'g'li, Mulla Juma Dutoriy, Xoji Bolta raqqos, Orzigul raqqosa, Xursand Qurbon o'g'li, Mulla Umar Dutorchi, Zikrilla Umarov, Abduxalil Nazarov, Shoirra Qurbonova, Komil Rahmonov va boshqalarning xizmati katta.

### ***Nazorat savollari***

1. Ijro san'ati shartli ravishda necha turga bo'linadi?
2. Xalq tomosha san'atining janrlarini sanab bering.
3. Qo'g'irchoqbozlik san'atining qanday yo'nalishlari mavjud?
4. Dor osti tomoshasida yana qanday tomoshalar ko'rsatiladi?
5. Necha xil dorlar mavjud?
6. Kasbiy musiqa tarkibiga qaysi maqomlar kiradi?
7. Maqomlarning cholg'u yo'li qanday nomlanadi?
8. Xalq musiqa ijodiyotining qaysi janrlarini bilasiz?
9. Qaysi ashula va qo'shiqlar jo'rsiz kuylanadi?
10. Milliy cholg'ular ovoz hosil qilish xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
11. O'zbekistonda nechta raqs maktabi bor?
12. Ijrochilik san'atidan nechta meros Insoniyat nomodiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgan?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston nomodiy madaniy merosi ro'yxati. Hilol nashr MChj, Toshkent, 2016 y.
2. Intangible cultural heritage of Uzbekistan (O'zbekiston nomodiy madaniy merosi). ICHCAP, IICAS, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy Komissiyasi nashri. Mega Basim, 2017 y.  
<https://www.unesco-ichcap.org/publications-archive/intangible-cultural-heritage-in-uzbekistanuzbektili/>
3. List of Intangible Cultural Heritage in Need of Urgent Safeguarding. UNESCO, 2009.
4. O'.Toshmatov, N.Isakulova. Nomodiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (monografiya). Toshkent, 2015 y.
5. Osnovniye teksti Mejdunarodnoy konvensii ob oxrane nematerialnogo kulturnogo naslediY. YUNESKO, 2020 g.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## **1-amaliy mashg‘ulot: Xonandalik san’ati – ijrochilik san’atining tarkibiy qismi sifatida. (4 soat)**

***Ishdan maqsad:*** Bunda musiqa, raqs, xalq tomosha san’atining barcha janrlarini namoyish etishga (hoh u sahnada bo‘lsin, hoh maydonda, hoh kichik davrada) mo‘ljallangan janrlar ijrochilik san’ati tarkiblari o‘rganiladi.

***Maqsadning qo‘yilishi:*** Ijrochilik san’atining barcha janrlarini qamrab olmagan holda misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

**Musiqa** yo‘nalishi bo‘yicha: “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari”, “Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari”, Dutor va surnay maqom yo‘llari, “Tanovor”, “Ushshoq”, “Feruz”, “Suvora”, “Lazgi”, “Mavrigi”, “Miskin” singari turkumlar, “Katta ashula”, allalar, o‘lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek, “baxshichilik”, “xalfachilik” va hududga xos boshqa yo‘nalishdagi manbalar.

**Raqs** yo‘nalishi bo‘yicha: Farg‘ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos bo‘lgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslari.

**Tomosha san’ati** yo‘nalishi bo‘yicha: dorbozlik, polvonlik, an’anaviy sirk, ko‘zboylog‘ichlik, qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyaklik o‘yinlari, yog‘och oyoq o‘yinlari, milliy xalq o‘yinlari va boshqalar.

### **Urf-odat, marosim va bayramlar, madaniy makonlar.**

*Urf-odat, marosim va bayramlar* tarkibiga mehmondo‘stlik an‘analari, axloq-odob bilan bog‘liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq marosimlar, beshik to‘yi, ism qo‘yish marosimi, sunnat to‘yi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o‘tkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Quyidagi qo‘shiqlar yoki ashulani talabalarga o‘rgatish uchun tayyorlanish mumkin.

Naqorat

Sadag‘a satig‘ing bo‘lay,  
 oshinga qatig‘ing bo‘lay.  
 Uygina mehmon kelsa,  
 kishtala qoshig‘ing bo‘lay.

Qaldirg‘ochning qanotiday,  
 qoshingdan aylanay sening.  
 Qattiq yerning sholg‘omiday,  
 boshingdan aylanay sening.

Naqorat

Samarqandning kulchasiday,  
 yuzingdan aylanay sening.  
 Kentalaning kechasiday,  
 ko‘zingdan aylanay sening.

Naqorat

Oqsaroyning qo‘rg‘oniday,  
 uyingdan aylanay sening.

O‘rtabo‘zning teragiday  
 bo‘yingdan aylanay sening.

Naqorat

## Mehmonjon

Jon, jon, jon ukajon,  
 dastiyor jon ukajon.  
 Bog‘lab mehmon toyini,  
 olib keling choyini.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
 ichib ko‘ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
 dastiyor jon ukajon.  
 Bizga kelibdi mehmon,  
 olib keling issiq non.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
 tatib ko‘ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
 dastiyor jon ukajon.  
 Otga iling to‘rvani,  
 mehmon ichsin sho‘rvani.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
 ichib ko‘ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
 dastiyor jon ukajon.  
 O‘zingiz yeng holvani,  
 mehmon yesin olmani.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
 tatib ko‘ring mehmonjon.

Ogahiy g'azali  
Xorazm mumtoz  
yo'llaridan

M. M.  $\text{♩} = 80$

Mush\_kin qo\_shing\_ni hay\_a\_ti  
(ey) ul chash\_mi jal\_lod uz\_ti\_na,  
(ey) qat\_lim u\_chun nas kel\_tu\_rur (yo\_  
re) nun el\_ti\_bon sod  
us\_ti\_na (ey)  
Qil\_g'il ta\_mo\_sho qo\_ma\_tin  
ze\_bo\_si bir\_lan o\_ra\_zin,  
gar ko'r\_ma\_sang gul o'l\_g'\_nin (yo\_  
re) pay\_von\_di sham\_shod  
us\_ti\_ma (ey).  
No\_zu a\_do\_yu g'am\_za\_si

(ey) qat lim qi lur lar dam ba dam,  
 vah mun cha o fat mu bo' lur (yo  
 re) bir o da mi zod  
 us ti na (ey).  
 Men xas ta ga jon as ra mak (ey)  
 en di e rur  
 dush vor kim, (ey) qo til ko' zi  
 be dod e tar (ey) har kah za be  
 dod us ti na (ey)  
 yor yo rey),  
 Bo shim g'a yoq qan g'am to shin (ey)  
 ming din bi ri  
 cha bo'l ma g'ay (ey)

yor yo \_ rey),  
 gar \_ dun a \_ gar ming Bes \_ tun (ey)  
 yog' \_ dur sa far \_ xod us \_ ti \_ na (ey)  
 yor yo \_ rey).  
 Ey, shoh, ka \_ ram ay  
 lar cho\_g'i (ey)  
 teng tut yo \_ mo nu yax)shi \_ ni, (ey)  
 yor yo \_ rey ),  
 kim , teng qu \_ yosh nu \_ ri tu \_ shar  
 (ey) vay ro \_ nu o \_ bod us \_ ti \_ g'a (ey)  
 yor yo \_ rey ).  
 Ne jur'at i \_ la  
 O \_ ga \_ hi (ey)



och \_ gay o \_ g'iz so'z der \_ ga \_ kim,  
 (ey) yuz hay \_ li g'am qil \_  
 mish hu \_ jum (yo \_ re ) Ul zor, no  
 shod us \_ ti \_ na, (ey) (ey).

## **2- amaliy mashg'ulot: Buyuk Ipak Yo'lining musiqa madaniyati rivojidagi o'rni.**

**Ishdan maqsad:** Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi xalqaro munosabatlar rivojida muhim ahamiyatini o'rganish. Uning tarmoqlari nafaqat savdo-iqtisodiy aloqalarga, shuningdek, madaniy muloqoti haqida.

**Maqsadning qo'yilishi:** Mazkur mavzu adabiyotlarda yetarlicha tahlil etilgan. Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'rta Osiyo Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga turli dinlarning tarqalishida (buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, xristian) katta o'rin tutgan. Mazkur dinlar ma'naviyat rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shni o'lkalarga yozuv (sug'd, parfiya yozuvi) va yangi musiqa asboblarning kirib borishi O'rta Osiyo ta'sirida ro'y berdi. Xitoyda VII-VIII asrlarda buxorolik, samarqandlik, chochlik musiqachilar mashhur bo'lgan. Mintaqaning o'zida tolerantlikning rivojlanishi madaniyatning ko'p xilligida va diniy bag'rikengligida o'z aksini topgan. Misol tariqasida, Surxondaryo vohasida turli shakldagi yozuv namunalari aniqlangan. Oromiy va yunon yozuvlari asosidagi baqtriya yozuvi, yunon yozuvi, hind-kxaroshtxi va braxma yozuvlari shular jumlasidan. Shuningdek, qo'hna Termizda, Fayoztepa va Qoratepada Budda ibodatxonalari, Dalvarzintepada Budda ibodatxonasi va hayvonot olami ilohasi Nana ibodatxonasi (kushonlar davri) hamda qadimgi shahar tevaragida zardushtiylar maqbarasi – novus o'rganilgan Bunday holat mintaqaning turli viloyatlarida namoyon bo'lgan.

Marg'iyonaning Marv shahrida antik davri va ilk o'rta asrlarga oid arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra, moniylik, yahudiylik, xristianlikning oqimi nasroniylik va buddaviylik dinlari rivoj topgan. Ular bilan birga, mahalliy e'tiqodlar ona ilohi va olovga sig'inish tarqalgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Marvda mahalliy aholi bilan birgalikda yahudiylar, buddaviylik va xristian dini targ'ibotchi – qohinlari va boshqa xalqlarning vakillari yashaganligi ehtimoldan xoli emas. Janubiy Orolbo'yi Xorazm vohasida ham e'tiqodlar va diniy qarashlar turlicha bo'lgan. Zardushtiylik va hosildorlik e'tiqodi, olovga, ajdodlar ruhiga hamda o'lib borayotgan va jonlanayotgan tabiatga sig'inish shular jumlasidan. Olov ibodatxonalari mil.avv. V asrga oid Katta Oybo'yirqal'a va Xumbuztepada, hosildorlik e'tiqodi bilan bog'liq ibodatxonalar Quyi qirilganqal'a va Qal'aliqir 2 da (mil.avv.IV-II asrlar) topib tekshirilgan. Ilohalar tasviri Elxaras ibodatxonasida aniqlangan (mil.avv. V-IV asrlar chegarasi). Tuproqqal'a saroy-ibodatxonasida (milodiy III asr)shohlar ajdodlari ruhlariga ta'zim qilish an'analari saroy haykallari tasvirlarida o'z aksini

topgan. Hukmdor – ajdodlar mavzusi Oqshaxonqal’a devoriy rangtasvirlarida ham mavjud (mil. avv. II-I asrlar). Xorazm, Sug’d va Baqtriya hududlarida, baqtriya yozuvlaridan ma’lum “Vaxshubago” (Vaxshu xudosi), xususan, Amudaryo bilan bog‘langan suv va daryo e’tiqodi tarqalgan, shuningdek, xudo-chavandoz Siyovush va “shox-cho‘pon” (Kubodshoh) siymolari bilan bog‘langan e’tiqodlar ham rivojlangan. Narshaxiy Siyovushning Buxoroda “somonfurushlar darvozasining ichkarisiga” dafn etilishi va bu joyning ziyoratgohga aylanishi haqida shunday yozadi: “Buxoro otashparastlari o’sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o’sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi”. O‘rta Osiyo qadimiy aholisining dunyoqarashi va ma’naviyati rivojlanishi darajasi turlicha san’at namunalarida ifodalangan (haykaltaroshlik, devoriy rangtasvirlar, ossuariylar tasvirlari).

Ular ko‘p hollarda mintaqa xalqlari madaniyatining umumiylikidan dalolat beradi. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tolerantlikka oid talaygina misollar keltirish mumkin. Bu borada turli din va e’tiqodlar tarafdorlarining yashash joyini tanlash huquqi cheklanmagan. Ular shaharlar umumiy hududiy guzarlarida joylashib, turli kasb-hunar sohalari bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega edi. Odamlar o‘z diniy bayramlari va marosimlarini erkin amalga oshirishgan. Zardushtiyarning otashgohlari, buddaviylik, xristian va yahudiylik ibodatxonalarining yonma-yon qurilishi man etilmagan. Boshqa e’tiqodlar va o‘z ma’budalariga sig‘ingan kishilarga nisbatan dushmanlik kayfiyati hamda irqiy nafrat mavjud bo‘lmagan. Shu bois, ilk o‘rta asrlarda Choch, Farg‘ona vodiysida va Yettisuv vohalarida buddaviylik dini va xristianlik ta’limoti tarqaladi.

Sug‘diylarning Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga migratsiyalari tufayli, Xitoydagi Chanyan, Loyan va Kayfan shaharlarida otashgohlar, ya’ni olov ibodatxonalari bunyod etilgan. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlarda turli e’tiqod va diniy qarashlar doimo bir-biriga ta’sir qilgan va o‘zaro boyigan. Sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, chochliklar va farg‘onaliklar o‘zga qabilalar va elatlarga madaniy yutuqlarni yetkazishda muhim o‘rin tutgan. Xalqaro madaniy muloqot dunyoqarashning yangi asoslarda rivojlanishiga zamin yaratgan. Ma’naviy madaniyat taraqqiyoti darajasi betakror san’at namunalarida ifodalangan. San’at obidalarida ezgulik, yaratuvchanlik va go‘zallikka intilish o‘z aksini topgan

### 3- amaliy mashg'ulot: Xalq musiqa ijodiyotini xonandalik san'ati vositasida targ'ib etish masalalari.

**Ishdan maqsad:** Har bitta tinglovchi o'z musiqa yo'nalishi bo'yicha o'zining pedagogik faoliyatida nomoddiy madaniy merosdan qay darajada foydalanayotganligi to'g'risida ma'lumot beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston kompozitorlari murojaat etayotgan zamonaviy musiqiy janrlar tahlil etilib, shu yo'nalishda samarali faoliyat olib borayotgan kompozitorlar ichidan o'z ijodiy faoliyatida milliy kuy va qo'shiqlardan yaxshi foydalanayotganlari saralab olinadi va ularning ijodi o'rganiladi. Tinglovchilarning tavsiyasiga ko'ra bir nechta turli janrlarda yaratilgan musiqiy asarlar notalari (agar imkoni bo'lsa audi yoki video variantlari bilan) muhokama qilinadi va kompozitorning xalq kuy va qo'shiqlaridan foydalanish uslubi o'rganiladi. Imkoni bo'lsa, tinglovchilar ichida bitta xalq kuyi yoki qo'shig'ini bir necha xil janrda foydalanish bo'yicha kichik guruhlarga bo'lingan holda mashg'ulot o'tkazish ham mumkin.

**Maqsadning qo'yilishi:** Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad tinglovchilar o'z pedagogik faoliyati davrida o'z talabalariga xalq kuy va qo'shiqlaridan samarali foydalanish uslublari va yo'llarini o'rgata olish ko'nikmasini yetkaza bilishini ta'minlashdan iborat.

#### Misol sifatida beriladigan qo'shiqlar notalari:

Hamal keldi, Navro'z degan farmon keldi. bahor sepi – gullar xirmon-xirmon keldi.  
Momojonlar sumalakni pishiringlar, dilda quvonch, labda kulgi-xandon keldi.

Gul yasharish hayotga bosh yo'riq bukun, gulladilar nok, shaftoli, o'rik bukun.  
Duo qil ey diling, ko'zing, so'zing bilan, Navro'z olam tiriklikka ko'rik bukun.

Kayvonilar bug'doyini  
undiradi,  
kelinchaklar uni tuyib,  
tindiradi.  
O'spirinlar sumalakka  
o'choq qazar,  
chavandozlar oxirini  
endiradi.

Qir betida qirquin qizlar qator-  
qator,  
bo'z bolalar keng dalada oshiq  
otar.  
Uyurlarda ayg'ir, biya  
tuvlashadi,  
quluntoylar shamoldan tez  
quvlashadi.

Naqorat  
Bahor taomi sumalak,  
Navro'z kalomi sumalak.

Naqorat  
Bahor taomi sumalak,  
Navro'z kalomi sumalak.

Naqorat  
Jelagim, ho jelagim,

Jelagim alachadan,

hosil bo'lsin tilagim.  
Seni kiysam keladi,  
o'ynab-o'ynab kuylagim.

suyganim Qo'rg'onchadan.  
Jelak kiyib yuraman,  
kelishim Besharchadan.

Jelaging uchar yelda,  
chilvir chaqmog'ing  
belda.  
Ko'zing olma teradi,  
muddaong nima dilda.

Qo'rg'onchada suyganing,  
Besharchada kuyganing.  
Qiz tanlashmi yurt kezib,  
jelagingga tuyganing.

Heye..y! Surxonimning tovi bor,  
tovlarida ovi bor.  
Jelagimga yarashgan,  
alachadan bovi bor.

Naqorat

### Cho'pon duyeti

**Yigit:** - Qo'ng'iroq elda qo'y boqdim-a, bo'yniga qo'ng'iroq taqdim.  
Oshiq bo'ldim o'zingga-ya, qoshing bilan ko'zingga.

**Qiz:** - Qoshimiz qalam akajon, oshqlik alam akajon.  
Bo'yimga tengmas bo'yingiz-a, sepimga yetmas qo'yingiz.

**Yigit:** - Yonib-a keldim elingdan-a, suvsab-a keldim cho'lingdan.  
Birgina kosa suv bergin-a, tol xivichdayin qo'lingdan.

**Qiz:** - Suv beraman-a savobga, kosa berayin tavobga.  
Birgina qiliq boshlaysiz-a, bilagimdana ushlaysiz.

**Yigit:** - Alacha to'nni kiymayman, alacha qopga o'xshatib.  
Boshqa yorni-ya demasman-o, sizginani qaqshatib.

**Birgalikda:** - Hazilni qo'ying kuylaylik, alyorni ayting o'ynaylik.  
Ona yurtimiz tinch bo'lsin-a, birga qo'shilib quvnaylik.

### Sumalak qaynagani

Naqorat

Sumalak qaynagani, qaynagani,  
jo'ralar yayrab keling o'ynagani.

Hey! Sumalak bahor gʻururi,  
sumalak Navroʻz sururi.  
Sumalak dillar shuuri,  
kelgusi yil yo nasib.

Naqorat

Hey! Sumalak oshi yilboshi,  
sumalak soylarning toshi.  
Joʻralar oling taloshib.  
kelgusi yil yo nasib.

Naqorat

**V. KEYSLAR**

## V. KEYSLAR

**Quyidagilar ichidan faqat ijrochilik san'atigagina taalluqli elementlarni ko'rsatib bering:**

- Askiya
- Raqs
- Doston ijrochiligi
- Cholg'u ijrochiligi
- Lapar
- Yalla
- Dorbozlik
- Qo'g'irchoqbozlik
- Alla
- Maqom ijrochiligi
- Maqom musiqasi
- Lazgi musiqasi
- Tanovar kuyi
- Xalfachilik
- Morbozlik

**I. Quyida berilgan nomoddiy madaniy meros sohalariga xos elementlarni aniqlang:**

1. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari
2. Ijrochilik san'ati
3. Urf-odat, marosim va bayramlar
4. Tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalar
5. An'anaviy hunarmandchilik

**II. Quyidagi berilgan ro'yxat va Reyestrda O'zbekistondan qaysi meroslar kiritilganligini aniqlang:**

Reprezentativ ro'yxat

Zudlik bilan muhofaza qilinishga muhtoj nomoddiy madaniy meros ro'yxati

Eng yaxshi tajribalar Reyestri

**IV. Quyida ko'rsatilgan hududlarga xos nomoddiy madaniy meros elementlarini va ularning qaysi sohaga hosligini aytib bering**

Qoraqalpog'iston

Toshkent shahri



Namangan viloyati  
Andijon viloyati  
Farg‘ona viloyati  
Jizzax viloyati  
Samarqand viloyati  
Navoiy viloyati  
Buxoro viloyati  
Xorazm viloyati  
Qashqadaryo viloyati  
Surxondaryo viloyati  
Sirdaryo viloyati  
Toshkent viloyati

**V. Quyidagi musiqa namunasini eshitib, uning qaysi hududga xosligi va qaysi cholg‘uda ijro etilganini aniqlang.**

- Yallama yorim
- Lazgi
- Tanovar
- Mavrigi
- Suvora
- Lapar
- Yalla
- CHo‘poncha
- Buxorcha
- Xalfa qo‘shig‘i
- Chipra dalli
- O‘zganча
- Qashqarcha
- Yor-yor

## VI. GLOSSARIY

## VI. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi izohi</b>	<b>Ingliz tilidagi izohi</b>
madaniy meros	moddiy va nomoddiy madaniy meros yig‘indisi	the sum of tangible and intangible cultural heritage
moddiy madaniy meros	Moddiy qiymatga ega madaniy meros	Cultural heritage with material value
nomoddiy madaniy meros	Og‘zaki tarzda ajdodlardan avlodlarga uzatiladigan meros	Inherited from ancestors to generations orally
Konvensiya	Xalqaro miqyosda kelishuv, bitim turi	International agreement, type of agreement
Operativ yo‘riq noma	Konvensiyani amalga tatbiq etish bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘plami	A set of guidelines for the implementation of the Convention
Reprezentativ ro‘yxat	Nomoddiy madaniy meros konvensiyasining namoyish etish, ko‘rsatish maqsadida tuzilgan ro‘yxati	List of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage
Eng ilg‘or tajribalar reyestr i	YUNESKOning nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida erishilgan eng yaxshi tajribalarni qayd etish hujjati	A document recording UNESCO’s best practices in the field of intangible cultural heritage protection
hamjamiyat	Bir maqsadni ko‘zlagan yoki bir hududda joylashgan holda uyushgan jamiyat	An organized society with a purpose or located in a region

muhofaza	Nomoddiy madaniy merosni asrash, saqlash, muhofaza qilish, targ'ib etish ma'nosida qo'llaniladi	It is used in the sense of preservation, preservation, protection, promotion of intangible cultural heritage
Bosh Assambleya	Nomoddiy madaniy meros borasidagi Konvensiyani boshqaruvchi eng yuqori tashkilot	The highest governing body of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage
Hukumatlararo Qo'mitaa	Ishtirokchi-davlatlar orasidan 4 yil muddatga saylanadigan boshqaruv qo'mitasi	A Steering Committee elected from among the States Parties for a term of four years
nomoddiy madaniy meros sohalari	Nomoddiy madaniy meros namoyon bo'ladigan sohalari	Areas where intangible cultural heritage is manifested
ijrosan'ati	Sahna (davra, maydon va boshqa)da ijro etish uchun mo'ljallangan nomoddiy madaniy meros namunalari	Samples of intangible cultural heritage intended for performance on stage (circle, field, etc.)
urf-odat	Ma'lum bir muhitda tartibga solingan va rioya qilinadigan harakatlar majmui	A set of actions that are regulated and followed in a particular environment
marosim	Yozilmagan qoidalarga rioya qilgan holda o'tkaziladigan tadbir	An event held in accordance with unwritten rules

hunar mande hilik	Inson ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni an'anaviy bilimlar asosida ishlab chiqarish	Production of products necessary for human needs on the basis of traditional knowledge
kandak orlik	Metall bilan ishlashga yo'naltirilgan hunarmanchilik yo'nalishi	Craft orientation focused on working with metal
besuya kbozli k	Inson tanasining bukiluvchanlik mkoniyatlarini namoyish etish janri	A genre that demonstrates the flexibility of the human body
doston chilik	Dostonlarni ijro etish	Playing epics
xalfac hilik	Xorazm hududida tarqalgan, ayollar tomonidan ijro etiladigan qo'shiq ijrochiligi janri	A genre of singing performed by women, spread in the Khorezm region
suvora	Qadimda otliqlar tomonidan ijro etilgan, hozirda sikl sifatida shakllangan ashula janri	A genre of song performed in ancient times by horsemen, now formed as a cycle

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

## VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### 2. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini

oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish" to'g'risidagi Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6000-son Farmoni.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

18. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro'yxati. Hilol nashr MChj, Toshkent, 2016 y.

19. Intangible cultural heritage of Uzbekistan (O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi). ICHCAP, IICAS, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy Komissiyasi nashri. Mega Basim, 2017 y. <https://www.unesco-ichcap.org/publications-archive/intangible-cultural-heritage-in-uzbekistanuzbektili/>

20. Nomoddiy madaniy meros va barqaror rivojlanish. YUNESKO nashri

21. Nomoddiy madaniy meros va gender masalasi. YUNESKO nashri

22. What is intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH

23. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH

24. Implementation of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH

25. Working towards a Convention. Published by UNESCO and ICH

26. Questions & Answers. Published by UNESCO and ICH

27. Identification and inventory of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH

28. Domains of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH

29. Fact sheets. Published by UNESCO and ICH



## I. Internet saytlar

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://bimm.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <http://www.dsmi.uz>
6. <http://music.edu.ru/catalog>
7. <http://artyx.ru/>
8. <https://www.unesco-ichcap.org/publications/>
9. <https://www.ich.uz>